

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI**



«Geologiya va konchilik ishi»

fakulteti

“Neft va gaz konlarini ishlatalishda geofizik nazorat” fanidan

Amaliy mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha

USLUBIY KO'RSATMA

**5311900- “Neft va gaz konlarini ishga tushirish va
ulardan foydalanish” ta'lif yo'nalishi uchun**

Qarshi - 2022

“Neft va gaz konlarini ishlatishda geofizik nazorat”

fanidan amaliy mashg‘ulotlarini bajarish uchun uslubiy ko‘rsatma

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

“Foydali qazilma konlari geologiyasi va razvedkasi” kafedrasi

Tuzuvchilar:

«Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi» kafedrasi o‘qituvchilari.

Sh.Sh.Turdiyev

T.T.Xolmurodov

F.O.Jo’rayev

J.Sh.Rabbimov

Taqrizchilar:

“Foydali qazilmalar geologiyasi va razvedkasi” kafedrasi professori **B.M.Xolbaev**

“Gissarneftgaz” MCHJ QK Neft va gaz qazib chiqarish bo‘limi boshlig‘i **A.A.Abdulxayev**

“Neft va gaz konlarini ishlatishda geofizik nazorat” fanidan bajariladigan amaliy mashg‘ulotlari shu kursning muhim qismidir. Mazkur uslubiy ko‘rsatma talabalarni ma’ruzalardan olgan nazariy bilimlarini amaliy mashg‘ulotlarida chuqurlashtirish va mustahkamlash uchun ishlab chiqilgan.

Qo‘llanma 5311900 – “Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan.

QMII Uslubiy Kengashida

tasdiqlangan Bayon № _____

1-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Kirish. Fanning asosiy maqsadi va vazifalari. Quduqlarda geofizik tadqiqot o'tkazish usullari.

Quduqlarni o'rganish va qatlamlarni sinash bo'yicha olib boriladigan geofizik ishlar tizimi konlarda geofizik nazoratni asosi bo'lib xizmat qiladi. Geofizik nazorat qilish texnologiyalari konlarda bir qator muhim vazialarni hal qilishga imkon beradi:

- a) quduqning optimal ishlash rejimini va uning texnologik jihozlarini tanlash (texnologik nazorat);
- b) ochilgan qatlamlarning gidrodinamik xususiyatlarini aniqlash (ekspluatatsionn nazorat);
- v) neft va gazning qatlama siljish jarayonini o'rganish (kon geologik nazorat);
- d) quduq fondining hozirgi holatini o'rganish (texnik nazorat).

Quduqlar va ularning texnologik jihozlarini optimal ishlash rejimini tanlash uchun quyidagilar zarur:

- a) Quduq stvolda ajratilgan fazalarning statik va dinamik satxini baxolash;
- b) Quduqning gidrodinamik parametrini quduq ustidagi o'lchov bo'yicha ;
- c) texnologik uskunalarning ishlashini nazorat qilish;
- d) quduq stvolidagi ko'p fazali oqimning tarkibini va tuzilishini o'rganish
- e) quduqning umumiy fazaviy miqdorini aniqlash

Ochilgan qatlamlarning ishlash xususiyatlari, shu jumladan uni o'zlashtirish va quduq oqimni jadallashtirish bosqichlarini aniqash quyidagilarni nazarda tutadi:

- a) qatlarning ishchi qalinligini tanlash;
- b) ishlab chiqarish quduqlaridagi oqim yo'nalishini va xaydovchi quduqlardagi qabul qilish yo'nalishlarini aniqlash;
- c) neft, gaz va suv beradigan intervallarning oqimi tarkibini aniqlash (kallonna ortidagi qatlamlar aro oqimlarni va tortib olishni xisobga olgan xolda);
- d) fazalar va maxsulotning tarkibiy qismlari (gaz, suyuqlik, neft va suv) bo'yicha intervallarning debitini miqdoriy baholash;
- e) Qatlarning gidrodinamik parametrlarini aniqlash (qatlam bosimi va xarorati, maxsulorlik koyefisentlari, o'tkazuvchanlik va bosh.).

Zaxiralarning rivojlanishini nazorat qilish va neft (gaz) qazib olishni ko'paytirish usullarini qo'llash samaradorligini baholash maqsadida neft va gazni qatlama siljish jarayonlarini o'rganish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) Belgilangan maxsulor qatlarni, samarali qalinligini, bir xil emasligini, qumtoshlik koyefisentini, gillik koyefisentini, g'ovaklik koyefisentini, kollektorlik

xususiyatlari va boshqa xusuiyatlarni aniqlash orqqli batafsil qismlarga ajratish (asosan quduqlarning ochiq stvolida olib borilgan geofizik tadqiqotlar natijasida); b) faol qalinliklarni ajratish, tozalash va suv bostirishda qatlamni xozirgi ko'rsatkichlarini aniqlash. v) qatlamning boshlang'ich va xozirgi neft(gaz) ga to'yinganligi ko'rsatkichlarini, SNK va GSK xolatini aniqlash. g) siljish koyefisentini va qoldiq neft gazga to'yinganlik ko'rsatkichlarini aniqlash.

Quduqlarning texnik xolatini o'rghanish quyidagilarni nazarda tutadi:

a) konstruksiya elementlarining yoki yer osti uskunalarining xolatini aniqlash. b) eskirgan quvurlarning yemirilish xolati va darajasini baxolash. V) ishlatish jarayonida quvur ichi kesimida har xil gidratlarning salnik xosil qilishi va tuzli yotqiziqlarning yopishishi natijasida xosil bo'lgan toryishlarni aniqlash. g) sement toshining germetikligi va xolatini baholash. (quduq tubida va quvur ortki qismida.)

Neft va gaz uyumlarini o'zlashtirishda

Ma'lumki, sanoat uglevodorod zaxiralari (neft, gaz, gaz kondensati) nisbatiga qarab konlarni shartli ravishda quyidagilarga bo'lish mumkin: gaz, neft, gaz kondensatli, neft va gaz, gaz va neft, gaz va neft kondensatli, neft va gaz kondensatli, gaz kondensati va neft. Ishlab chiqarishga ko'ra, uglevodorodlarning aralash turlari bo'lgan konlar uchun gaz kondensati va neft konlari (neft zaxiralari kondensat bilan gaz zaxiralaridan yuqori) yoki neftli va gaz kondensati konlari (neft zaxiralari kondensati bo'lgan gaz zaxiralaridan kam) tushunchalari bilan ishlashto'g'riroq.

Kon haqida asosiy ma'lumotlar uning geologik chegaralari bo'lib, ular quyidagilardir: strukturaviy turdag'i, turli yoshdgi tog' jinlarining o'zaro munosabati va litologiyasi bilan bog'liq, stratigrafik nomuvofiqliklar va tektonik yoriqlar bilan bog'liq, kollektor jinslari va ularning to'yinganligi bilan bog'liq bo'lgan (ya'ni VNK, GNK, GVK kontaklari) turlariga ajratildi.

Ma'lumki, konlarning aksariyati odatda turli tektonik tuzilmalar bilan chegaralanadi (masalan, gumbazlar, ko'tarilmalar, burmalar, klinoformlar va boshqalar). Bunday konlarning chegaralarini aks ettirish shakli bu strukturaviy xaritalar (mutlaq balandlikdagi izogipslar), shu jumladan quduqlar rejasi (ularning xaritalangan yuzasi bilan kesishgan joyida), shuningdek gazlilik va neftlilik tashqi va ichki konturlar bilan chegaralnadi.

Ko'p qatlamli gaz konlari

Bu yerda qoida bo'yicha ishlatishning uchta sistemasidan bittasidan foydalilaniladi:

- Ishlatish quduqlarni yagona panjarasiga muvofiq amalga oshiriladi.
- Ishlatish har bir gorizontning individual tarmog'i orqali amalga oshiriladi.
- Kombinatsiya qilib ishlatish.

2-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Quduqlarda o'tkaziladigan geofizik tadqiqotlarda ishlataladigan qurilma va jixozlar.


Karotaj stansiyalari va zondlar.



1-rasm. Kamaz 43114 avtomashinasiga o'rnatilgan KOBRA-M karotaj stansiyasining yon va orqa tarafdan ko'rinishi



2-rasm. UAZ 3909 avtomashinasiga o'rnatilgan SKG-1 «Kobra-M» karotaj stansiyasi



3-rasm. Karotaj stansiyasiga o‘rnatilgan lebyodka (chig‘ir).

1- lebyodka; 2 – roga kabelni lebyodkadan bir tekisda blok balans tomonga yo‘naltirishga va bir tekisda o‘rashga (yig‘ishga) xizmat qiladi; 3 - rogani kabel o‘rami joylashishi bo‘yicha ikki tarafga harakatlantiruvchi o‘q tasvirlangan uning harakati operator kabinasidan turib boshqariladi; 4 - kabel tugash joyi, poynak (kabelniy nakonechnik) poynak kabelni quduq zondiga ulash uchun xizmat qiladi.



4-rasm. Blok – balanslarning turlari

Sariq rangli g‘ildirak asbob ulangan kabel quduqqqa tushganda va tepaga ko‘tarilayotgan vaqtida aylanadi. Blok balans doimo burg‘i qudug‘ining og‘ziga quduq markaziga kabel yo‘naladagan qilib o‘rnatiladi. Ularning diametri va o‘lchami har-xil bo‘lishi mumkin. Karotaj tadqiqotlarida blok balanslar aylanishlar soni bevosita kabelning qancha chuurlikka tushib borganliginiqayd qilishda ham muhim sanaladi.



5-rasm. Kamaz avtomashinasiga o‘rnatilgan «Kobra-M» karotaj stansiyasining operator bo‘linmasida joylashgan tezlikni boshqarish mexanizmi 1- richagi; 2- tezlikni ko‘tarish pedali.

Bu mexanizm lebyodkaning aylanish tezligini boshqaradi. Misol uchun karotaj o‘tqazishda qayd qilish tezligi soatiga 1000 m/soat tezlik bilan ko‘tarishi yoki ma’lum bir ma’danli intervallarda tog‘ jinslarining petrofizikxususiyatlarini past tezlik bilan qayd qilishda ushbu boshqaruv mexanimzmi orqali ishlar

bajariladi. Odatda ma'danli yoki mahsuldor gorizontlarni past tezliklarda qayd qilish lozim.



6-rasm. Operator xonasi.

Operator xonasi avtomashina uzunligiga ko'ndalang ravishda joylashgan va katta deraza oynasi bo'ladi. Bu oynadan stansiyaning orqa qismidagi lebyodka bo'linmasi bemalol ko'rinish turadi. Ushbu o'rindiqda o'tirgan holda QGT operatori karotajni motorist yordamida o'tkazadi. Operator xonasida AKT (axborot kommunikatsiya texnologiya) va boshqa boshqaruv qurilmalari joylashgan. Karotajni boshlashdan oldin motorist zondni burg'i qudug'iga tushiradi va operator bo'linmasiga kelib, asbobni quduqqa tushirib, ko'taruvchi tezlik mexanizmini boshqaradi. Operator esa AKTda karotaj tadqiqotlarini o'tkazadi va boshqa jarayonlarni nazorat qiladi.

Karotaj kabellari

Burg'i quduq asbobini (zondni) yer ustida o'rnatilgan o'lchash na qayd kilish apparaturalari (karotaj stansiyasi)ga ulash uchun karotaj kabellari qo'llaniladi.


Ishlatish sharoitlariga ko'ra karotaj kabellari quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

yeterli mustahkam bo'lishi. (Uzilish kuchi).


yuqori haroratga va bosimga chidaydigan izolyatsiyasi bo'lishi lozim.
tok o'tkazuvchi simlarning elektr qarshiligi past bo'lishi kerak.

Buning uchun ishlatish sharoitlariga ko'ra quduqlardagi geofizik tadqiqotlarda turli xil karotaj kabellari qo'llaniladi. Hozirgi kunda burg'i quduqlardagi geofizik tadqiqot ishlarida KTSH- 0,3, KTSH-2, KTSH-4, KTO-1, KGO-2, KOBD-6, KOBDF-6, KSB- 8; KTBD-6 va boshka karotaj kabellari qo'llaniladi (ko'rsatilgan raqamlar shu kabelning uzilish kuchini ko'rsatadi). Belgilovchi ifodalar kabelning tavsifini ko'rsatadi: Birinchi xarf "K" - karotaj, ikkinchi xarf tok o'tkazuvchi simlarning soni - "O" – bir simli, P- ikki simli, T-

uch simli, S - yetti simli, Uchinchi harf kabelning izolyatsiya qatlamini ko'rsatadi: SH- shlangli, O - o'ramali, B - po'latli. D - ikki po'latli qatlam bilan qoplangan,F - ftoroplastli, ya'ni kabel simlari ftoroplastli izolyatsiya bilan qoplangan, N - neftta chidamli, T - haroratga chidamli.



7-rasm. Neytronli – gamma karotaj (NGK) asbobining sxematik tuzilishi.



9-rasm. Chuqurlik asbobi (karotaj zondi) ni quduqqa tushrish jarayoni.

Karotaj ishlarini amalga oshirish texnika va texnologiyalari

Karotajda ishlatiladigan apparatura (asbob) ikkita asosiy bloklardan iborat: Quduq asbobi (zond deb ataladi) va Yer ustidagi boshqarish va qayd etish multi hamma bloklar to'plami – karotaj stansiyasi deb ataladi. Karotaj stansiyalar komplektiga:

- 1) Chuqurlik asbobi (karotaj zondi);
- 2) Bitta, uchta yoki ko'p tomirli kabel;
- 3) Potensiallar ayirmasini o'lchaydigan asboblar;
- 4) Elektr tok manba'lari;
- 5) Karotaj kabelini quduqqa tushirish va ko'tarish uchun lebyotka;

6) Kabelni quduqqa yo‘naltirish uchun va chuqurlik asbobining joylashish chuqurligini qayd qiluvchi tasmani tortuvchi mexanizmiga sinxronli o‘tkazish uchun, quduq oldida blok – balans o‘rnatiladi.



Gamma – karotajning GK -75 asbobi



Neytron karotajning 2NK -75 asbobi



Neytron-gamma karotajning 2NGK -75 asbobi



Kavernomer-profilemer KP-75



Inkloemer INKL -75

3-amaliy mashg’ulot.

Mavzu: Geofizik metodlarning turlari.

Neft va gaz quduqlarini burg‘ilash jarayonida kon geofizik tadqiqot o‘tqazish maydon bo‘yicha olib boriladigan ishlarni jadallashtiradi. Burg‘ilash jarayonini sekinlashtirmagan va ko‘p mablag‘ sarflamagan holda maydonni o‘rganish imkoniyatini beradi.

Quduqlarni kern olmasdan o‘rganish uchun, hozirgi zamon fizika, matematika va o‘lchash texnikasining yutuqlari hamda tog‘ jinslarining litologik-petrografik va ularning fizik xususiyatlari, solishtirma elektr va issiqqlik qarshiliklari, radioaktivligi va boshqalar orasidagi o‘rnatilgan aniq bog‘liqliklar asosida geofizik usullar majmuasi bor. Bu usullarni “quduqlarda geofizik tadqiqotlar” deb atash mumkin. Bu usullar elektr, radioaktiv, termik, magnit, geoximik va boshqa fizik usullardir.

1. quduq kesimlarini litologik va stratigrafik bo‘laklash, tog‘ jinsini tekstura-struktura xususiyatlarini aniqlash, kichkina qalinlikdagi qatlamchalarni ajratish.

2. quduq kesimlarida kollektor tog‘ jinslarini ajratish va ularning kollektor xususiyatlarini aniqlash.
3. quduq kesimlarida foydali qazilmalarni - neft, gaz, ko‘mir va rudalarni ajratish.
4. Foydali qazilma boyliklarni zaxiralarini hisoblash uchun kerakli ko‘rsatkichlar - g‘ovaklik koefitsiyenti, neft va gazga to‘yinganlik koeffiyenti, qatlamning effektiv qalinligi, gilliylig koefitsiyenti va boshqalarini aniqlab berish.



1-rasm. Karotaj ishlarini amalga oshirish texnika va texnologiyalari.

Karotajda ishlataladigan apparatura (asbob) ikkita asosiy bloklardan iborat: Quduq asbobi (zond deb ataladi) va Yer ustidagi boshqarish va qayd etish pulti hamma bloklar to‘plami – karotaj stansiyasi deb ataladi. Karotaj stansiyalar komplektiga:

- 1) Chuqurlik asbobi (karotaj zondi);
- 2) Bitta, uchta yoki ko‘p tomirli kabel;
- 3) Potensiallar ayirmasini o‘lchaydigan asboblar;
- 4) Elektr tok manba’lari;
- 5) Karotaj kabelini quduqqa tushirish va ko‘tarish uchun lebyotka;
- 6) Kabelni quduqqa yo‘naltirish uchun va chuqurlik asbobining joylashish chuqurligini qayd qiluvchi tasmani tortuvchi mexanizmiga sinxronli o‘tkazish uchun, quduq oldida blok – balans o‘rnatiladi.



2-rasm. Bitta, uchta yoki ko‘p tomirli kabel.

Elektrik karotaj usullari

1. Solishtirma qarshilik (Sq)ni oddiy zondlar bilan o‘lhash usuli.
2. Sq ni bir nechta, xarhil uzunlikdagi oddiy zondlar bilan o‘lhash (БКЗ-боковое каротажное зондирование) usuli.
3. Sq ni ekranlashtirilgan zondlar bilan o‘lhash (БК-боковой каротаж) usuli.
4. Sq ni mikrozondlar bilan o‘lhash (МКЗ-микрозондирование) usuli.
5. Sq ni ekranlashtirilgan mikrozondlar bilan o‘lhash (МБК-микробоковой каротаж) usuli.
6. Induksion usul.
7. Xususiy qutblanish potensiallari (ПС-потенциал собственной поляризации) usuli.

RADIOAKTIV KAROTAJ

Gamma usullar va -neytron usullar.

Gamma usullar o‘z navbatida:

- a) gamma karotaj (GK),
- b) gamma-gamma karotaj (GGK),
- v) izotop usuli.

Neytron usullari esa:

- a) neytron-neytron karotaj (NNK)
- b) neytron-gamma karotaj (NGK),
- v) yo‘naltirilgan aktivlik.

Akustik karotaj (AK)

- 1. Tezlik bo‘yicha akustik karotaj.
- 2. To‘lqin so‘nishi bo‘yicha akustik karotaj.

Termik karotaj

- 1. Tabiiy issiqlik maydoni usuli.
- 2. Sunniy issiqlik maydoni usuli.

Quduqning texnik holatini o’rganish usullari.

- 1. Quduqlarni diametrini o’lchash.
- 2. Quduqlarni burg‘ilanayotgan yo‘nalishdan og‘ishini o’lchash.
- 3. Cement halqasining ko‘tarilgan balandligi va cementlanganlik sifatini aniqlash.
- 4. Quduqlarga oqib kelgan suvlarni va mustaxkamlovchi quvurlar ortidagi suv harakatini aniqlash.
- 5. Quduqlardagi suv sathini aniqlash.
- 6. Quduqlarda qoldirilgan metal predmetlarni aniqlash

Quduqlarni o’rganishning geoximik usullari.

1. Gaz usuli.
2. Lyuminessent-bituminologik usul.
3. Burg‘i qorishmasini nazorat qilish usullari kiradi.

Gaz usulining, boshqa geofizik usullardan avzalligi, ularning o‘tkazish uchun maxsus vaqt talab qilmaslidigkeit. Burg‘ilash jarayoni davom etayotgan paytda o‘tkaziladi, bu qidiruv ishlarini tezlashtiradi.

Gaz usulida quyidagi vazifalar bajariladi: a)quduqdan chiqqan burg‘i qorishmasini gazsizlashtirish (degazatsiya); b) burg‘i qorishmasidan tortib olingan gazlarning tarkibi va miqdorini aniqlash; v) xamda aniqlangan gazlarni quduqning kaysi cho‘qurligidan chiqqanini aniqlash.

Burg‘i qorishmasini gazsizlashtirish uchun turli usullardan foydalaniladi. Bo‘lardan: qorishma ustida bosimni kamaytirish (vakuum hosil qilish), isitish, mexanik ta’sir etish, yoki birnecha usullarni birdaniga qo‘llash mumkin.

Degazatorning asosiy qismi, tubi ochiq, kamera bo‘lib, po‘kak orqali burg‘i qorishmasining ustida cho‘kmay turadi (rasm.1).

Kamera gaz-havo yuliga vakuum nasosi orqali ulangan. Vakuum nasosi havoni o‘ziga tortganda kamera va suyuqlik o‘rtasidagi muxitda bosim kamayadi, to‘siq 3 (rasm.1) ga urilgan suyuqlik oqimidan gazlar ajralib chiqadi. Levit A.M. ma’lumotlariga karaganda bu degazatorlar burg‘i qorishmasida atigi 0.02% uglevodorodlarni ajratib olar ekan.

Geofizik tashkilotlar geofizikaga ta’lluqli bo‘limgan ishlar, ya’ni quduqlarda otish va portlatish ishlarini ham olib boradilar. Bular:

1. Quduqlarni perforatsiya qilish.

2. Quduqlarni torpedalash.
3. Quduq devorlaridan tog‘ jinsi namunalarini olish.
4. Qatlamlarni suyuqlik namunalarini olish bilan

4-amaliy mashg’ulot.

Mavzu: Elektrik korataj.

1. Solishtirma qarshilik (Sq)ni oddiy zondlar bilan o‘lhash usuli.
2. Sq ni bir nechta, xarhil uzunlikdagi oddiy zondlar bilan o‘lhash (BKZ-bokovoye karotajnoye zondirovaniye) usuli.
3. Sq ni ekranlashtirilgan zondlar bilan o‘lhash (BK-bokovoy karotaj) usuli.
4. Sq ni mikrozondlar bilan o‘lhash (MKZ-mikrozondirovaniye) usuli.
5. Sq ni ekranlashtirilgan mikrozondlar bilan o‘lhash (MBK-mikrobokovoy karotaj) usuli.
6. Induksion usul.
7. Xususiy qutblanish potensiallari (PS-potensial

Elektr karotaj metodining ishlash prinsiplari

Elektr karotaj quduqda ochilayotgan yotqiziqlar va ularni tarkibidagi flyuidlarning elektrik xossalariini uzliksiz yozib boriladi. O‘lhash quduqning ochiq tana qismida, burg‘ilash eritmasi bilan to‘ldirilgan holatda amalga oshiriladi (doliv) qilinadi va karotaj ishlari amalga oshiriladi. Sirg‘anuvchan elektrodlar izolyatsiya qilingan turubka ichida bo‘ladi – bu zond deb ataladi va quduq ichiga tushriladi. Yer yuzasidagi generatorlardan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi quduqqqa tushrilgan kabelning bir simi orqali quduqdagi kabelning aynan shu simi bilan bog‘langan elektrodga yuboriladi, elektrod esa elektr energiyasini quduq devorlaridagi tog‘ jinslariga o‘tkazadi ya’ni ular orasida vositachilik vazifasini bajaradi.

Kabelning boshqa simlar bilin bog‘langan elektrodlar quduq devoridagi tog‘ jinslaridan kelayotgan elektir zaryadlarni qabul qilib, yer yuzasiga yuboradi va yer yuzasida yorug‘likka ta’sirchan qog‘oz lentasida tok kuchlanishiga monand egri chiziqlarda yozib boriladi. Zondagi zaryadni qabul qilayotgan elektrodlar oralig‘idagi masofa (elektrodlarning uzoqlashib yaqinlashishi) geologik xususiyatlariga va litologik tarkibiga qarab o‘zgaradi. Natijada quduq devorlarini tashkil etgan jinslarning elektrik xossosini aks ettiruvchi elektr karotaj diagrammalari xosil bo‘ladi.

Elektr karotaj metodining ishlash prinsiplari

Elektr karotaj quduqlarni o‘rganishning eng samarali usul va bu karotaj diagrammalaridan geologlar, injenerlar, ilmiy xodimlar juda keng miqyosda quduq

stratigrafiyasini, litologiyasini, stratigrafik tabaqalash birliklarini qalinligini aniqlashda xamda struktura xaritalarini geologik profillarni tuzishda foydalanilad. Elektro karotaj diagrammalari geoglarning barcha tadqiqotlarida foydalanilgani uchun amalyotda bu metod standart karotaj deb xam nomlanadi.

Elektr karotaj yordamida quduqda ochilayotgan qatlamlarning va flyuidlarning ikkta geofizik parametri aniqlanadi: elektrik potensiallik va solishtirma elektrik qarshilik.

Quduqda ochilayotgan qatlamlarning elektrik potensiallik diagrammasini o‘z - o‘zdan yuzaga keladigan potensialning egri chizig‘i yoki tabiiy qutublanishning chizig‘i (qutublanish qarshiliqi – polyarizatsionnoye soproтивleniye(PS)) deb xam ataladi va PS indeksi bilan belgilanadi. PS odatda standart karotaj lentasining chap tarafida joylashtiriladi. PS ko‘rsatkichlari millivoltlarda ifoda etiladi va elektr karotaj markaziga yaqin joylashgan o‘q chizig‘idan xisob boshlanadi. Yuqori elektrik potensiallikka ega jinslari millivolt shikalasi bo‘yicha chap tarafga xar xil masofada siljigan egri chiziqning (diagramma chizig‘ining) bo‘laklari bilan ifodalanadi. PS karotaji o‘tkazish jarayonida o‘lchanadigan PS tokni xosil qiluvchi elektr xarakatlantiruvchi kuch ikki turdag'i fizik jarayon 1) elektrfiltratsiya 2) elektrosmos sababli sodir bo‘ladi deb xisoblanadi. Bu jarayonlar tufayli xosil bo‘livchi elektr potensiallar, ko‘p xollarda ularning yig‘indisi tarzida ifodalanadi.

Filtratsiya jarayonida bog‘liq elektr xarakatlantiruvchi kuch o‘zining tabiatiga ko‘ra elektr kinetik xisoblanadi. U bosim xamda filtratsiyalanayotgan suyuqlikning elektr qarshiligiga to‘g‘ri proporsional va uning qovishqoqligiga teskari proporsional. Bu suyuqlik – quduqdaga burg‘ulash eritmasining suvi; u o‘tkazuvchan qattiq dielektrik muxit orqali quduq devori jinslariga yengil singuvchi elektrolit sifatida namoyon bo‘ladi. Burg‘ilash eritmasining gidrostatik bosimi odatda o‘tkazuvchan gorizontlardagi qatlam bosimidan yuqori bo‘ladi va shuning uchun xam burg‘ilash eritmasining suvi quduq devoridagi gilli qobiq orqali atrofdagi jinslarga filtirlanib o‘tadi.

ESLATMA: Gilli qobiq - burg‘ilash eritmasidagi gil zarralarining burg‘i qudug‘i devoriga yopishgan qatlamchasi. Gidrostatik bosim qatlam bosimidan farq qilganligi sababli, burg‘ilash eritmasidagi suv qatlamga singiydi, gilli komponent esa qatlam sirtida to‘planib zichlashidi va zichlashgan gil zarrachalari kollektor qatlam qarshisidagi gilli qobiq xosil qiladi.

5-amaliy mashg‘ulot.

Mavzu: Solishtirma qarshilikni o‘lchash prinsiplari.

Solishtirma elektr qarshilikni va uni har-xil omillarga bog‘liqligi

Elektr usullaring, aksariyat, qismi tog‘ jinslarining solishtirma qarshiligini o‘lchashga asoslangandir. Tog‘ jinslarining solishtirma qarshiligi deb bir kub metr xajmdagi, eni, bo‘yi va balandligi bir metr bo‘lgan tog‘ jinsining qarshiligiga aytiladi. Umuman olganda istalgan o‘tkazgichning qarshili:

$$\rho l$$

$$R = \underline{\hspace{2cm}}$$

$$S$$

bu formuladan

$$\rho = R S / l \text{ agarda:}$$

R - o‘tkazgichning qarshiliqi, Om da, S - o‘tkazgichning ko‘nlalang kesimi, M² da,
l - o‘tkazgichning uzunligi, M da o‘lchanilsa, ρ - o‘tkazgichning solishtirma
qarshiliqi,

1-jadval.

Asosiy tog‘ jinsi hosil qiluvchi va ruda minerallarining solishtirma elektr qarshiliklari

Minerallar	ρ, OM.M	Minerallar	ρ, OM.M
Angidrit	10⁷ – 10¹⁰	Magnetit	10⁻⁴ – 10⁻²
Galenit	10⁻⁵ – 10⁻³	Muskovit	10¹¹ – 10¹²
Grafit	10⁻⁶ – 10⁻⁴	Neft	10⁹ – 10¹⁶
Kalsit	10⁷ – 10¹²	Dala shpatlari	10¹² – 10¹⁵
Osh tuzi	10¹⁴ – 10¹⁵	Silvin	10¹³ – 10¹⁵
Kvars	10¹² – 10¹⁴	Slyudalar	10¹⁴ – 10¹⁵

Solishtirma elektr qarshiliqi

Jadvaldan ko‘rinib turiptiki, cho‘kindi tog‘ jinsi hosil qiluvchi minerallar: kvars, kalsit, muskovit, slyudalar va tog‘ jinslari: angidrit, osh tuzi va boshqa cho‘kindi tog‘ jinslari judayam katta qarshilikka egadir. Lekin cho‘kindi tog‘

jinslarining ion o'tkazuvchanlikka ega bo'lishlari va ular tarkibida suv va unda erigan tuzlarning bo'lishi, tog' jinslarining solishtirma qarshiliklarini kamaytiradi.

Shuning uchun cho'kindi tog' jinslarining solishtirma qarshiliklari, agarda u faqatgina suv bilan to'yintirilgan bo'lsa (vp qatlam ichidagi suvning solishtirma qarshiliği (v ga, ushbu suvning miqdoriga, miqdori esa qatlamning umumiyligi 'ovakligi Kp bilan belgilanadi, Bundan tashqari (vp tog' jinsining tekstura va struktura tuzilishiga bog'liq bo'ladi.

Solishtirma elektr qarshiligi

- Ushbu bog'liqlikni quyidagi matematik formula bilan ifodalash mumkin:
- $\rho_{sn} = f(\rho_c, K_e, T.C)$ bu yerda:
- ρ_c - qatlam ichidagi suvning solishtirma qarshiligi;
- K_e - qatlamning g'ovaklik koeffitsiyenti;
- $T.C$ - qatlamning tekstura va struktura xususiyati.

Qatlamning solishtirma qarshiligi ρ_{sn} suvning soliitirma qarshiligi ρ_e ga to'g'ri propotionaldir. Demak ρ_e ortgan sari ρ_{sn} ham ortib boradi.

Singish zonasining qarshiligi

Singish zonasining qarshiligi (zp ni aniqlash esa singishning tafsifini belgilaydi. Agarda $\rho_{sn} < \rho_n$ dan kichkina bo'lsa, bu singishni "kamaytiruvchi" singish deb atashadi va holat odatda neftgazga yoki chuchuv suvlarga to'yingan qatlamlarda kuzatiladi.

Agarda $\rho_{sn} > \rho_n$ dan katta bo'lsa, buni "ortiruvchi" singish deb ataladi va bu holat odatda sho'r suvlar bilan to'yingan qatlamlarda kuzatiladi. Demak ρ_{sn} ni aniqlash kollektorlarning nima bilan to'yinganini aniqlash imkonini beradi.

REZISTVIMETRLAR

- Burg'i qorishmasining solishtirma qarshiligi (r rezistvimetrlar degan asbobda o'lchanidai).
- Θ_k ni o'lchanhash tok elektrodlari A va B dan tok yuborilib, M va N orqali hosil bo'lgan potensiallar ayirmasi o'lchaniladi.

$$\rho_p = K \cdot \Delta U / I$$

- bu formulada: K - rezistvimetrlar koeffitsiyenti;
- I - A va B elektrodlaridan o'tgan tok kuchi;
- ΔU M va N orasidagi potensiallar ayirmasi.
- Rezistvimetrlarning elektrodlari A , M va N bilan belginadi va quyidagi $A0.04M0.03N$ gradiyent zondni tashkil etiladi.

Ehtimoliy qarshilikni Mikrozondlar bilan o'lchanhash.

Mikrogradiyent va mikropotensial zondlar bilan ehtimoliy qarshilikni bir paytda yozish.

Mikrozondlar quduq kesimlarini mufassal o'rganish uchun ishlatiladi. Shuning uchun ular quduqlarni faqat maxsuldar qatlamlari uchraydigan oraliqlarida, 1:200 masshtabida o'tkaziladi. Mikrozondlar, zond uzunliklarining kichkinligi tufayli, kichkina qalinlikdagi (bir necha sm. qalinlikdagi) qatlam chegaralarini aniqlashda ishlatiladi. Mikrozondlarning asosiy vazifalaridan biri - quduq kesimlarida kollektorlarni ajratishdir.

6-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Tog' jinslarini haqiqiy qarshiligidagi aniqlash.

Tog' jinslarining haqiqiy qarshiligidagi aniqlash.

Oldingi o'tgan darslarimizda Eq ni xarhil omillarga bog'liqligi va shuning uchun qatlamlarning haqiqiy qarshiliklari (p ni bitta zond diagrammalaridan aniqlab bo'lmasligini takidlagan edik. Shuning uchun qatlamlarning haqiqiy qarshiliklarini aniqlash uchun BKZ (bokovoye karotajnoye zondirovaniye) usuli qo'llaniladi. Bu usul - Ё_к birnechta 5-7 ta xarhil uzunlikdagi zondlar bilan o'lchashga aytildi. Zondlar bir turdag'i zondlardan iborat bo'lib: yoki potensial, yoki gradiyent zondlar tanlaniladi. Potensial zondlarning kichkina qalinlikdagi qatlamlarni o'rghanishdagi kamchiliklari tufayli, odatda, BKZ gradiyent zondlar bilan o'tkaziladi.

BKZ quyidagi vazifalarni yechish uchun ishlataladi:

1. Qatlamning haqiqiy qarshiligi ρ_n ni aniqlash. Bu ko'rsatkich Pn - g'ovaklik ko'rsatkichini aniqlash imkonini beradi, bu esa o'z navbatida g'ovaklik koeffitsiyenti Kn ni aniqlashda ishlataladi. Agarda qatlam neftgazga to'yingan bo'lsa ρ_n orqali

P_{n_2} - neftgazga to'yinganlik ko'rsatkichi va bu orqali K_{nr} - neftgazga to'yinganlik koeffitsiyentini aniqlash mumkin.

2. Qatlamda singish zonasining mavjudligini aniqlash. Agarda singish zonasi kuzatilsa - bu qatlam kollektor deb qabul qilinadi.

3. Singish zonasi kuzatilgan qatlamlarda ρ_{3n} - singish zonasining solishtirma qarshiligi va D_{3n} - singish zonasining diametrini aniqlash. D_{3n} - aniqlashdan maqsad kollektorlarning turini, ya'ni kichkina D_{3n} katta g'ovaklikka, saralangan zarralar orasidagi g'ovaklikka ega bo'lgan kollektorlarda kuzatilishini, aksincha, katta D_{3n} kollektorning kichkina g'ovaklikka, darzli (siniqli) kollektorlarda kuzatiladi.

Singish zonasining qarshiligi

Singish zonasining qarshiligi ρ_{3n} ni aniqlash esa singishning tafsifini belgilaydi. Agarda $\rho_{3n} < \rho_n$ dan kichkina bo'lsa, bu singishni "**kamaytiruvchi**" singish deb atashadi va holat odatda neftgazga yoki chuchuv suvlarga to'yingan qatlamlarda kuzatiladi.

Agarda $\rho_{3n} > \rho_n$ dan katta bo'lsa, buni "**ortiruvchi**" singish deb ataladi va bu holat odatda sho'r suvlar bilan to'yingan qatlamlarda kuzatiladi. Demak ρ_{3n} ni aniqlash kollektorlarning nima bilan to'yinganini aniqlash imkonini beradi.

Rezistvimetrlar

Burg‘i qorishmasining solishtirma qarshiligi ρ_p rezistvimetrik deban asbobda o‘lchanidai.

E_q ni o‘lchash tok elektrodlari A va B dan tok yuborilib, M va N orqali hosil bo‘lgan potensiallar ayirmasi o‘lchaniladi.

$$\rho_p = K \cdot \Delta U / I$$

bu formulada: K - rezistvimetrik koeffitsiyenti;

I - A va B elektrodlaridan o‘tgan tok kuchi;

ΔU - M va N orasidagi potensiallar ayirmasi.

Rezistvimetning elektrodlari A , M va N bilan belginadi va quyidagi $A0.04M0.03N$ gradiyent zondni tashkil etiladi.


7-amaliy mashg’ulot.

Mavzu: Ehtimoliy qarshilikni mikrozondlar bilan o‘lchash.

Mikrogradiyent va mikropotensial zondlar bilan ehtimoliy qarshilikni bir paytda yozish.

Mikrozondlar quduq kesimlarini mufassal o‘rganish uchun ishlatiladi. Shuning uchun ular quduqlarni faqat maxsuldar qatlamlari uchraydigan oraliqlarida, **1:200** masshtabida o‘tkaziladi.

Mikrozondlar, zond uzunliklarining kichkinligi tufayli, kichkina qalinlikdagi (bir necha sm. qalinlikdagi) qatlam chegaralarini aniqlashda ishlatiladi. Mikrozondlarning asosiy vazifalaridan biri - quduq kesimlarida kollektorlarni ajratishdir.




1-rasm. Ehtimoliy qarshilikni mikrozondlar bilan o'lchash.

E_q ga elektrodlarga yaqin joylashgan zona, ya'ni gil qoplamasining solishtirma qarshiligi ρ_{ek} asosan ta'sir o'tkazadi, МПЗ bilan yozilgan ρ_k^{MPZ} ga esa ρ_{ek} bilan bir qatorda to'la yuvilgan zonaning ρ_{nn} ning ham ta'siri bo'ladi. Odatda $\rho_{ek} < \rho_{nn}$ bo'lganligi tufayli mikrogradiyent zond bilan yozib olingan ρ_k^{MPZ} mikropotensial zond bilan yozilgan ρ_k^{MPZ} qiymatidan kichkina, ya'ni $\rho_k^{MPZ} < \rho_k^{MGT}$ kuzatiladi.

Mikropotensial va mikrogradiyent diagrammalarini alohida va bir paytning o'zida yozish mumkin. Kollektorlarni ajratish uchun faqatgina bir paytda yozib olingan diagrammalar ishlataladi, chunki ikkala zond diagrammalari Eq ni bir hil sharoitda yozib olinishi kerak.

Alohida diagrammalar yozilganda mikrozondlar boshmoqlari va quduq devorlari orasidagi muhit qalinligi xarhil bo'ladi va shu sababli kollektorlarda kuzatiladigan ortirma, ya'ni $\rho_k^{MPZ} < \rho_k^{MGT}$ bo'lmasi ligi ham mumkin.

Diagrammalarini bir paytda yozish uchun quyidagi sxema ishlatalishi mumkin:



2-rasm. Mikrozond o'tkazish sxemasi.

Bunda quyidagi belgilar kiritilgan:


A va B - tok elektrodlari; M va N -qabul qiluvchi elektrodlar; R- tok kuchini o'zgartiruvchi qarshilik; mA -tok kuchini o'lchovchi milliampermetr; G - o'zgaruvchi tok generatori (tok manba'si); RP1-mikrogradiyent zond bilan E_q yozib oluvchi galvanometr;

RP2-mikropotensial zond bilan E_q yozib oluvchi galvanometr; FCHV - Faza sezgir to'g'irlagich. Quduqdan kelayotgan MGZ va MPZ signallarini ΦЧВ bir-biridan ajratib, so'ngra ularni o'zgarmas tokka to'g'irlab beradi.

Oddiy gradiyent va potensial zondlar bilan E_q o'lchanganda, unga xarhil omillarning ta'sirini oldingi ma'ruzalarda ko'rgan edik. Ayniqsa quduqqa to'ldirilgan burg'i qorishmasi (eritmasi) ning solishtirma elektr qarshiligi ρ_p ning va quduq diametri D_s ning o'zgarishini o'lchanayotgan E_q ka ta'siri kattadir. Agarda quduqqa to'ldirilgan burg'i eritmasining solishtirma qarshiligi kichik bo'lsa, bu ta'sir yanada katta bo'ladi.

8-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Ehtimoliy qarshilikni ekranlashririlgan zondlarda o'lhash.




1-rasmda. Katta solishtirma qarshilikka ega bo‘lgan qatlam qarshisida, hamda quduqdagi burg‘i qorishmasining qarshiligi juda kichik bo‘lgandagi tok chiziqlarining tarqalishi ko‘rsatilgan.

Rasmdan ko‘rinib turibtiki, tok chiziqlarining ozgina qismigina qatlam ichiga, asosiy qismi esa quduq bo‘ylab tarqalmoqda. Bu esa yozilayotgan E_q ga qatlam solishtirma qarshiligi ρ_n ning ta’sirini juda kamliligin, burg‘i qorishmasi ρ_p ning esa, aksincha, ta’sirini juda katta ekanligini ko‘rsatadi. Demak, bunday holatda o‘lchanayotgan Eq qatlam qarshiligi ρ_n dan ancha farq qilib, burg‘i qorishmasining qarshiligi ρ_p yaqin bo‘ladi. Bu narsa bizga kerak emasdir. Maqsadimiz o‘lchanayotgan Eq va ρ_n bir-birlariga yaqin bo‘lishini ta’minlashdir. Bu maqsadga erishish uchun tok elektrodidan chiqayotgan tok chiziqlarini qatlam ichiga perpendikulyar ravishda ko‘rsatilgandek yo‘naltirishimiz kerak.


Uch va yettti elektrodli ekranlashtirilgan zondlar.

Uch(3), yetti(7) va to‘qqiz(9) elektrodli zondlar bo‘lib, ularni uch elektrodli **BK-3**, yetti elektrodli **BK-7** va to‘qqiz elektrodli **BK-9** deb belgilanadi. Rasm a,b,v,g larda BK-3, BK-7, BK-9 zond sxemalari ko‘rsatilgan.



2-rasm. Uch, yettti va to'qqiz elektrodli ekranlashtirilgan zondlar.

Uch elektrodli ekranlashtirilgan zond BK-3 markaziy qisqa (uzunligi 0.15 m.) silindrik tok elektrodidan A_0 dan va unga simmetrik ravishda joylashgan silindrik elektrodlar A_1 va A_2 ekran elektrodlaridan iborat bo'lib, zondning umumiyligi uzunligi 3.2 m. ga tengdir. Ekran elektrodlari bir-birlari bilan qisqa ulanilgan bo'lib, markaziy tok elektrodi A_0 ulangan qutbga ulanadi. Ikkinchisi tok elektrodi V odatda yer yuzasida, yuqorida joylashgan bo'ladi. E_q ni yozish uchun ekran elektrodlaridan chiqayotgan tok kuchini avtomatik ravishda shunday o'zgartirish kerakki, uchchala elektrodlar A_0 , A_1 va A_2 larning potensiallari bir-biriga teng bo'lishi kerak.



3-rasm. EK diagrammalarini.

Uch elektrodli BK-3 eondlari 0.5 m. va undan katta qalinlikka ega bo‘lgan qatlam chegaralarini aniq ajratadi. Eq diagrammalari qatlamning o‘rtasiga simmetrik bo‘lgan egri chiziqlar bilan har bir alohida qatlamni ajratadi. Katta qarshilikka ega bo‘lgan qatlamlarda E_q ni katta bo‘lishi, kichkina qarshilikka ega bo‘lganlarida esa E_q ni kichkina bo‘lishi, ya’ni yozib olinayotgan Eq bilan qatlamlarning solishtirma qarshiliklari ρ_n orasida doimo to‘g‘ri proporsionallik kuzatiladi. E_q larning qatlam o‘rtalarida olingan masimal qiymatlari, qatlamlarning solishtirma qarshiliklari ρ_n dan atigi 10-15 % ga gina farq qiladi. Bu esa ekranlashtirilgan zondlarning samaradorligini ko‘rsatadi.

9-amaliy mashg‘ulot.

Mavzu: Radioaktiv va yadro-fizik usullar.

Radioaktiv Karotaj 2 ga bo‘linadi. Gamma usullar va -neytron usullar. Gamma usullar o‘z nabatida:

- a) gamma karotaj (GK),
- b) gamma-gamma karotaj (GGK),
- v) izotop usuli.

Neytron usullari esa:

- a) neytron-neytron karotaj (NNK)
- b) neytron-gamma karotaj (NGK),
- v) yo‘naltirilgan aktivlik.

Jinslarning tabiiy radioaktivligini va sun’iy gamma va neytron nurlanishlar ta’sirida hosil bo‘lgan ikkilamchi gamma va neytronlar nurlanishlarining keskinligini o‘rganishga asoslangan. Elektrik karotajga nisbatan yadroviy karotajni temir quvurlar bilan mustahkamlangan va quvursiz quduqlarda o‘tkazish mumkin.

Radioaktiv usullar tog‘ jinslarining **tabiiy, yoki ularda suniy ravishda** hosil qilingan radioaktivlikni o‘lchashga asoslangandir. Radioaktiv usullarni yadroviy usullar ham deb ataladi, chunki o‘rganilayotgan fizikaviy hodisalar modda yadrolarining o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Radioaktiv usullarning boshqa geofizik (masalan, elektrik) usullardan afzalligi, ularni ochiq quduqlarda, hamda mustahkamlovchi quvurlar tushirilganda va quduq devorlari bilan mustahkamlovchi quvur oralig‘i sementlanganda ham o‘tkazish mumkin. Sizlar bilan oldingi darslarda tanishgan elektr usullarini esa, faqat ochiq quduqlarda o‘tkazish mumkin.

Tabiiy radioaktiv usuli GK da tog‘ jinslarining tabiiy radioaktivligi o‘rganiladi. **Radioaktivlik nima?** Radioaktivlik ayrim atom yadrolarining

o‘z-o‘zidan parchalanishiga va ushbu parchalanishni α , β va γ - nurlarini tarqatish bilan bir paytda sodir bo‘lishiga aytildi.

Alfa α -nurlar geliy atomi e_2^4 ning yadrosi bo‘lib, ikkita proton va ikkita neytrondan iboratdir. Alfa nurlar musbat zaryadlangan zarrachalar bo‘lib, massasi $6.598 * 10^{-12} \text{ g}$ va tezligi $1.39 * 10^9 \text{ м/с}$ tengdir. Turli radioaktiv elementlarning (-nurlarining kinetik energiyasi 3.99 dan-8.785 MeV gacha bo‘lgan oraliqda yotadi. Alfa nurlarning energiyasi atomlarni ionlashtirish uchun sarflanadi. Yuqori energiyali (-nurlarining jismlardan o‘tish qobiliyati havoda 11.5 sm.ni tashkil qiladi. Bu masofani o‘tgan (-nurlar o‘z energiyalarini batamom yo‘qotadi. Qattiq jismlarda esa, bu o‘tish masofasi mikronlar bilan o‘lchanadi.

Beta β -nurlar elektron va pozitron oqimlaridan iborat bo‘lib, massalari $0.9035 * 10^{-27} \text{ г}$. va zaryadi $4.77 * 10^{-10} \text{ elektrostatik}$ birlikka tengdir. Beta nurlarning tezligi 0 дан 0.998 yorug‘lik tezligigacha o‘zgarishi mumkin. **Beta nurlar** jismlardan o‘tayotganlarida, ularning energiyalari jism atomlarini ionlashtirishga va ularni qo‘zg‘atishga sarflanadi. Massalarining kichkinaligi tufayli β - nurlar, α -nurlariga qaraganda jismlarda ko‘proq masofani o‘tish qobiliyatiga egadirlar, lekin bu masofa tog‘ jinslarida **8-9 mm.** ni tashkil qiladi.

Quduq sharoitida α va β -nurlarni o‘lchab bo‘lmaydi, chunki bu ikki nurning ham jismlardan o‘tish qobiliyati judayam kichkina va quduqqa tushirilgan po‘lat g‘ilofli zondlarimizdan hisoblagichga etib kelolmaydilar.

Gamma γ -nurlar yuqori chastotali elektromagnit nurlanish bo‘lib, jismlardan o‘tish qobiliyati α va β - nurlariga қараганда ancha kattadir. Agarda β - nurlar birnecha mm. qalinlikdagi tog‘ jinslaridan o‘tganlarida, α -nurlar birnecha mikron qalinlikdagi tog‘ jinslaridan o‘tganlarida butunlay yutilsalar, γ -nurlarning butunlay yutilishi uchun 1 m. ga yaqin qalinlikdagi tog‘ jinsi kerak. Havoda bu masofa 1300-1400 m.ni tashkil etadi.

Gamma nurlarining energiyasi boshqa yadro zarrachalarining energiyasi kabi elektron – volt (eV) yoki million elektron-volt (MeV) da o‘lchaniladi. $E = 1.602 \cdot 10^{-19} \text{ Dj}$.

Gamma nurlarning energiyasi - E_γ , Plank doimiyligi- h va (γ -nurlarining chastotasining ko‘paytmasiga tengdir, ya’ni:

$$E_\gamma = h \nu = c \lambda$$

Формулада; h -Plank doimiyligi $h = 6.62 \cdot 10^{-34} \text{ Dj} \cdot \text{с}$;

ν - γ -nurlarining chastotasi;

λ - γ -nurlarining to‘lqin uzunligi;

c- yorug‘lik tezligi.

Tabiiy radioaktiv elementlarning

γ -nurlarining energiyasi 0.05-3 MeV oralig‘ida bo‘ladi. Gamma nurlarining jismlardan o‘tish qobiliyatining yuqoriligi quduqlarda tog‘ jinslarining tabiiy radioaktivliliginи ushbu nurlarning intensivligini o‘lchash bilan aniqlash imkonini beradi.

Radioaktivlikni o‘lchash birlklari.

Moddaning absolyut (mutloq) radioaktivligi Bk (Bekkerel) deb 1s. da sodir bo‘lgan parchalanish soniga aytildi. Agarda 1 s. da 1 dona parchalanish sodir bo‘lgan bo‘lsa ush bu moddaning radioaktivligi 1 Bk (Bekkerel) deb qabul qilinadi **Bekkerel $1\text{Bk}=1$, $1\text{Bk}=0,27 \cdot 10^{-10}$ Ki (Kyuri)**. Geofizikada SI sistemasidan tashqari radioaktivlikni o‘lchash birligi deb kyuri (Si) qabul qilingan. 1 Si radioaktivlikka shunday radioaktiv moddalar miqdori olinadiki, ularda 1 sek. ichida $3.7 \cdot 10^{10}$ radioaktiv parchalanish kuzatiladi, bu 1 g.Ra da 1 sek ichida sodir bo‘lgan parchalanishga tengdir. Demak 1 g.Ra ning radioaktivligi 1 Si ga tengdir. Si katta birlik bo‘lib, amaliyotda mingdan bir ulushi mCi, milliondan bir ulushi mkCi ishlatiladi.

Cho‘kindi tog‘ jinslarining tabiiy radioaktivligi.

Cho‘kindi tog‘ jinslarining tabiiy radioaktivligi katta oraliqda o‘zgaradi va bu o‘zgarish ularning tarkibida yuqorida qayd qilingan radioaktiv elementlar **uran, toriy va kaliylarning miqdoriga bog‘liqdir**.

Cho‘kindi tog‘ jinslarining orasida eng katta radioaktivlikka (**kaliy tuzlaridan tashqari**) **gillar** egadir. Gil va gilli slanetslarning boshqa cho‘kindi tog‘ jinslariga nisbatan yuqori radioaktivlikka egaligini quyidagi sabablarga asoslanib tushuntirish mumkin: **1) uran, toriy va kaliy gil** zarrachalari orqali boshqa tog‘ jinslariga nisbatan yaxshi sorbsiya qilinadi; **2) gillar tarkibida kaliy, toriy va olti valentlik uran** minerallarining mavjudligi. Ayniqsa gillarning radioaktivligi, agarda ular uran konlarining yaqinida, ularning oksidlanish zonalari atrofida paydo bo‘lsalar, yuqori bo‘ladi.

Gil va gilly tog‘ jinslari.

Gil va gilly tog‘ jinslarining radioaktivligining yuqoriligi ularning tarkibida 6.5 % gacha kaliyning borligi hamdir. O‘ta chuqur suvli havzalarda hosil bo‘lgan gillarning tarkibidagi radioaktiv elementlar konsentratsiyasi $50 \cdot 10^{-12}$ r ekvRa/g va undan ortiqroqdir. Kontenental va sayoz suv havzalarida hosil bo‘lgan gillarda radioaktiv elementlar konsentratsiyasi 3 dan $20 \cdot 10^{-12}$ r ekvRa/g ga tengdir. Qumtoshlar, asosan, kichkina radioaktivlikka egadirlar. Ularda radioaktiv elementlar konsentratsiyasi $0.7-1.5 \cdot 10^{-12}$ r ekvRa/g oralig‘ida bo‘ladi. qumtoshlarning radioaktivligi ularning tarkibida gil zarrachalarining miqdoriga qarab ortib boradi.

10-amaliy mashg'ulot.


Mavzu: Gamma usuli (GK). Fizik mohiyati va yechadigan vazifalari.

Qo'llaniladigan asbob-uskunalar.

Gamma usuli (GK-gamma-karotaj) da quduqlarda tog‘ jinslarining tabiiy radioaktivligi o‘lchaniladi. Gamma karotaj apparaturasi rasm 11.1 da ko‘rsatilgandek quduqqa tushuriladigan radiometr (quduq pribori yoki snaryadi) va yer usti pultidan tashkil topadi. Quduqqa tushirilgan radiometrning asosiy tarkibiy qismini g-nurlarining detektorlari (indikatorlari yoki hisoblagichlari) tashkil etadi. Hisoblagichlardan tashqari quduqqa tushuriladigan zondda hisoblagichlarni tok bilan ta’minlovchi manba’, g-nurlaridan hisoblagichda hosil bo‘lgan tok impulsini orttiruvchi ko‘paytgich ham bo‘lishi shart.

Geyger-Myuller hisoblagichi

Geyger-Myuller hisoblagichi silindrik shisha balondan iborat bo‘lib, ichida ikkita elektrod o‘rnatalgan bo‘ladi. Elektrodlarning biri balonning o‘rtasidan o‘tgan yupqa (diametri 0.1-0.5 mm) metall (volfram, temir va bosh.) sim bo‘lib, uni tok manba’sining musbat qutbiga ulanadi va bu elektrotni anod elektrodi deb ataladi. Ikkinchisi elektrod-katod tok manba’ining manfiy qutbga ulanib, u balonning ichki metallashgan sirtini tashkil etadi.



1-rasm. Geyger-Nyuller hisoblagichi: 1-shisha balon; 2-katod-balonning metallashgan ichki sirti; 3-anod; 4-izolyator va kontaktlar; IT-tok manba’i; S-sig‘im; R-qarshilik.

Balon inert gazi (argon yoki geliy) va yuqori molekulyar birikmalar pari aralashmasi bilan past (100-200 mm simob ustuni) bosimda to‘ldirilgan.


Elektrodlarga tok manba’i IT dan 900 V kuchlanishda tok yuboriladi. **Gamma g-nurlari** hisoblagichga tushganda uning katodidan elektron (ikkilamchi elektronlar) yulib oladi. Bu elektronlar balon ichidagi gazlarni ionlashtiradi.

Ionlashtirish qanday sodir bo‘ladi? Harakatlanuvchi elektron zaryadiga ega bo‘lganligi tufayli balon ichidagi gaz atomlari bilan to‘qnashganda, uning elektron qobig‘idan elektronlarni yulib oladi. Atomidan elektron yulib olingan molekula, musbat elektr zaryadiga ega bo‘lib, musbat ionga aylanadi.

Atomdan yulib olingan elektron esa mustaqil harakathanuvchi manfiy ionga aylanadi.

Ssintillyatsion hisoblagichlar

Ssintillyatsion hisoblagichlar ikki asosiy elemenden tarkib topgan: ssintillyator (lyuminofor)-yadro nurlari tushganda o‘zlaridan yorug‘lik tarqatadilar; FEU -foto-elektron ko‘paytgich, ssintillyatorda paydo bo‘lgan yorug‘likni elektr signallariga aylantirib, uni million marotaba kuchaytiradilar.



2-rasm. Ssintillyatsion hisoblagichlar: 1-ssintillyator (lyuminofor);
2-qaytargich; 3-FEU; 4-fotokatod; 5-frkuslovchi dinod; 6-yig‘uvchi elektrod
(anod); 8- kuchlanishni bo‘lgich.

Gamma karotaj quduqlarda tog‘ jinslarining litologiyasini aniqlash, gilli qatlamlarni ajratish, gillilik miqdorini aniqlash, tog‘ jinslarining maydon bo‘yicha o‘zgarishini kuzatish (korrelyatsiya) uchun ishlataladi. 2-rasmda GK usuli va boshqa geofizik usullar majmuasi: elektr usullaridan KS(ehtimoliy qarshilik) va PS usuli; kavernometriya-quduqlarni diametrini o‘lchash usuli va NGM-neytron-gamma usuli keltirilgan va keng tarqalgan cho‘kindi tog‘ jinslarini o‘rganishda ularning imkonlari ko‘rsatilgan.

2-rasmda ko‘rsatilgandek gil qatlamlari gamma usul diagrammasida (GM-uzlukli (punktir) chiziqlarda) eng yuqori ko‘rsatkich bilan ajralib turishipti, chunki cho‘kindi tog‘ jinslarining ichida gillar yuqori radiaktivlikka egadirlar. Bu tog‘ jinslarining gil ekanligi boshqa geofizik usullarda ham o‘z tasdiqini topgan. Masalan ehtimoliy qarshilik (KS) usulida. gillar jida kichkina solishtirma qarshilikka egadirlar. Xususiy qutblanish potensiallari PS usulida eng katta ko‘rsatkich gillardadir. Gil qarshisida quduq devorining yuvilib ketishi kavernogrammada yaqqol ko‘rinib turipti.

Neftga to‘yingan qumtoshlar gamma usulda kichkina qiymatga egadirlar. Bularning neftga to‘yinganliklari ehtimoliy qarshilik usuli (KS) va neytron gamma

usuli diagrammalaridan aniqlashimiz mumkin. Neftli qatlamlar katta qarshilikka neytron gamma usulda gil va nokollektor bo‘lgan tog‘ jinslari ko‘rsatkichlari oralig‘ida bo‘ladi. Ohaktoshlar gamma usul diagrammasida qumtoshlar kabi kichkina radioaktivlikka ega ekanliklari bilan ajralib turadilar.

Umuman olganda gamma usul diagrammalari xususiy qutblanish potensiallari PS diagrammalariga o‘xshab ketadi, chunki bu ikkala usul tog‘ jinslarining gilliliklariga bog‘liqdir. Lekin gamma usulning PS dan afzalligi uni tog‘ jinslarining solishtirma qarshiliklariga bog‘liq bo‘lmaganligidir. Shu sababli PS usuli quduq kesimi yuqori qarshilikka ega bo‘lgan karbonat tog‘ jinslaridan iborat bo‘lganda, usulning samarasi juda past bo‘ladi. Yana gamma usulning afzalliklaridan biri uni ochiq va mustahkamlovchi quvurlar tushirilgan quduqlarda ham o‘tkazish mumkinligidir.

11-amaliy mashg‘ulot.

Mavzu: Quduqlarni o‘rganishni neytron usullari.

Neytron karotaj (NK) radioaktiv karotaj turlaridan bo‘lib, quduq kesimidagi tog‘ jinslarini neytronlar bilan ta’sirlantirib, ularning atom yadrolaridan qayta sochilgan gamma-nurlar yoki neytronlar zichligini o‘lchash orqali ochiq va mustahkamlash quvurlari bilan jihozlangan quduqlardagi suv-neft va gaz-neft tutash yuzalar sathini aniqlash mumkin.

Neytron gamma-karotaj (NGK) radioaktiv karotajning bir turi bo‘lib, bunda quduqqa neytron manbali zond tushiriladi. Unga o‘rnatilgan (nurlanish indikatori yordamida atrof muhit bilan neytronlarning o‘zaro ta’siridan yuzaga kelgan (nurlanish shiddati aniqlanadi. NGK yordamida quduq bo‘ylab chizilgan egri chiziq orqali suvli qatlamlarning joylashishini hamda ular chegaralarini ajratish mumkin bo‘ladi.


Neytron usullarida neytronlar bilan moddalarning o‘zaro ta’siri o‘rganiladi. Neytronlar zaryadlanmagan zarrachalar bo‘lib, **massalari $1.6747 \cdot 10^{-24}$ g.ni** tashkil qiladi. Neytronlarning massalari elektron yoki pozitron massalaridan 1840 marta kichik va proton massasiga yoki vodorod yadrosining massasiga yaqin bo‘ladi. *Neytron manba’lari sifatida geofizik ishlarda ampulali yoki neytron generatorlari ishlataladi.*

Ampulali manba’lar alfa nur tarqatuvchi poloniy- *Po*, plutoniy- *Pu* yoki radiy- *Ra* lar bilan berilli- *Be* yoki bor- *B* lar birikmasidan iboratdir.

Amaliyotda *Po+Be* manba’lari ushlatiladi. buning sababi bu manba’lar *Ra+Be* manba’larga nisbatan birnecha barova kam γ -nurlar tarqatadilar. Neytron generatorlari neytron trubkasi va yuqori kuchlanishdagi tok manba’idan iborat bo‘ladilar.

Neytron trubkasi shisha balon bo‘lib, uning ichiga $5 \cdot 10^{-4} \text{ mm simob ustuni}$ bosimida deyteriy H_7^2 to‘lg‘izilgan. Trubkaning diametri 60 mm, uzunligi esa 300 mm ni tashkil etadi.

Deyteriyini ionlashtirish quyidagicha kechadi. Trubkadagi volfram katodi 2 ga (1-rasm) kuchlanish berilganda katoddan elektronlar emissiya qiladi. Bu elektronlar silindrik anod-4 tufayli tezlanadilar va g‘altak-3 hosil qilgan bo‘ylama magnit maydoni sababli anod elektrodi bo‘ylab spiral trayektoriya bo‘yicha harakatda bo‘ladilar. Tritiy bilan to‘yintirilgan va sirkoniy yoki titandan tayyorlangan nishon-6 yuqori kuchlanishli elektrod-5 ga o‘rnatilgan.



1-rasm. Deyteriyini ionlashtirish.

Neytronlarning moddalar bilan o‘zaro ta’siri.

Neytronlar zaryadsiz zarrachalar bo‘lganliklari uchun ular moddalar bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lganda, bevosita modda elementlarining yadrolari bilan munosabatda bo‘ladilar.

Neytron manba’laridan chiqqan neytronlar katta energiya va katta tezlikka ega bo‘ladilar. Ular element yadrolari bilan to‘qnashganda bir qism energiyalarini yadroga berib, energiyalari kamaygan holda yo‘nalishlarini o‘zgartirib harakatlarini davom ettiradilar.

Tog‘ jinslarining neytron xususiyatlari.

Yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek neytronlarni sekinlashtiruvchi element eng yengil element bu vodoroddir. Tog‘ jinsi tarkibida N qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha neytronlar tez, uzoq masofa o‘tmasdan energiyalarini yo‘qotadilar va issiqlik

neytronlariga aylanadilar. Vodorod tog‘ jinslari tarkibida suvda, neftda va gazda bo‘lib, ularning miqdori tog‘ jinslarining g‘ovakliklari (Kp) ga bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari vodorod gipsda, gillarda bo‘lganligi uchun tog‘ jinslari gipslashgan, gilli bo‘lsalar ular ham vodorodli tog‘ jinslari qatoriga kiradilar.

Demak neytron ko‘rsatkichlardan biri Ls-sekinlashtirish uzunligi, bu neytron manba’sidan neytronning issiqlik neytroniga aylangan nuqtagacha bo‘lgan o‘rtacha sm da o‘lchanigan masofa, tog‘ jinslari tarkibidagi vodorodning miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Keyingi neytron ko‘rsatkichi Ld-diffuziya uzunligi, bu neytronlarning issiqlik neytroniga aylangan nuqtasidan to‘g‘ri chiziq bo‘yicha neytronlarning yutilgan nuqtasigacha sm da bo‘lgan masofa. Bu ko‘rsatkich esa tog‘ jinslari tarkibida vodorodning miqdori bilan bir qatorda issiqlik neytronlarini yutish qobiliyati yuqori bo‘lgan elementlar Cl, Cd, B, Li larning miqdoriga ham bog‘liq bo‘ladi.

Нефть va gaz konlari quduq kesimlarida bu elementlardan **Cl** suv tarkibida **NaCl** tuz eritmalarida ko‘proq uchraydi. Demak **Ld**, asosan **Cl** miqdoriga bog‘liq bo‘lar ekan. Yana neytron ko‘rsatkichlardan biri issiqlik neytronlarining yashash davri **T** - bu issiqlik neytronlarining paydo bo‘lganlaridan to‘larning yutilguncha o‘tgan vaqt. Asosiy bu ko‘rsatkichga ta’sir qiluvchi element Cl.

12-amaliy mashg’ulot.

Mavzu: Quduqni texnik holatini o‘rganishda akustik usul.

Akustik karotaj (AK) tovush va ultratovush diapozonli chastotada elastik to‘lqinlarning tavsiflab, tog‘ jinslarining akustik xususiyatlarini o‘rganishga asoslangan. AK burg‘ quduq apparati, to‘lqin tarqatgich va to‘lqin qabul qilgichdan iborat. Akustik karotajning tezlik, so‘nish va to‘lqin tasvirli turlari mavjud. AK ning tezlik uslubi yordamida kollektorlarning g‘ovaklilik koeffisienti, so‘nish uslubi yordamida g‘ovakliligiga ko‘ra murakkab tuzilgan kollektoriarni, to‘lqin tasvirdagi uslub yordamida esa murakkab geologik kesimda joylashgan kollektoriarni o‘rganish mumkin.

Akustik usullarda hosil qilinadigan kuchlanishlar uchun tabiiy sharoitda yetgan tog‘ jinslarini qayishqoq jismlar qatoriga qo‘sish mumkin. Tog‘ jinslarining elementar xajmiga tashqi kuch ta’sir qilsa, tog‘ jinsi o‘lchami va shaklini o‘zgartiradi, kuch ta’siri olingandan so‘ng tog‘ jinsi avalgi holiga (shakliga) qaytadi. *Tog‘ jinslaridagi shakl o‘zgarishining ketma-ket tarqalishi qayishqoq to‘lqin deb ataladi.*


Bo‘ylama to‘lqinlar muhit xajmini o‘zgarishi (deformatsiyasi) bilan bog‘liqdirlar. Bo‘ylama to‘lqinlarning tarqalishi siqilish va uzayish zonalarini

ko‘chishi bo‘lib, muhit zarrachalari to‘lqin tarqalayotgan yo‘nalishga mos ravishda tebranib turadilar (rasm 9.1.a). Ko‘ndalang to‘lqinlar shakl o‘zgarishi (deformatsiyasi) bilan bog‘liq bo‘lib, muhit zarrachalari to‘lqin tarqalish yo‘nalishga perpendikulyar yo‘nalishda tebranadilar (rasm 9.1.b).

Akustik usullar uchun qayishqoq to‘lqinlarning tarqalish tezligi katta ahamiyatga egadir. To‘lqin tarqalish tezligi V to‘lqin turlariga va tog‘ jinslarining qayishqoqlik xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Bo‘ylama (R) (rasm-1.a)

Ko‘ndalang (S) (rasm-1.b)



**1-rasm. Bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqin. To‘lqinlar ikki turli bo‘ladilar:
bo‘ylama (R) (rasm-1.a) va ko‘ndalang (S) (rasm-1.b).**

Tog‘ jinslarining qayishqoqlik xususiyatlari:

E - Yung moduli, σ - Puasson koeffitsiyenti.

Yung moduli E jismga qo‘yilgan kuchlanish P ni jismning nisbiy uzayishi δ_l ga nisbatiga aytiladi, ya’ni:

$$\bullet \quad E = P / \delta_l = F / S \delta_l$$

P - jismga qo‘yilgan kuchlanish;

F - jismga qo‘yilgan kuch;

S - jismning ko‘ndalang kesimi;

δ_l - nisbiy uzayish.

Bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqin tezligi formulasi.

Puasson koeffitsiyenti σ - nisbiy ko‘ndalang qisqarish δ_k ni, nisbiy uzayish δ_l ga nisbatiga aytiladi, ya’ni:

$$\sigma = \delta_n / \delta_l$$

Tog' jinslari uchun $E = 0.15$ dan to 6 Pa gacha o'zgaradi, σ esa taxminan 0.25 ga teng.

Bo'ylama to'lqin tezligi

$$V_p = \sqrt{(E * (1 - \sigma) / (\delta_n * (1 + \sigma) * (1 - 2 * \sigma)))}$$

Ko'ndalang to'lqin tezligi


$$V_s = \sqrt{E / (2 * \delta_n * (1 + \sigma))}$$

δ_n -tog' jinslarining zichligi.

Formulada **δ_n -tog' jinslarining zichligi**. Formulalarga qaraganda **δ_n maxrajida** yotipti, shuning uchun zichlikni o'sishi to'lqin tezliklarini kamaytirishi kerak, lekin zichlik kamaygan bilan E ning o'sishi katta bo'ladi, shuning uchun zichlik o'sishishi bilan tezlik ham o'sadi. Umuman tog' jinslarining zichligi bilan bo'ylama to'lqinlarning tezligi o'rtasida quyidagi emperik formulani qo'llash mumkin:

- $\delta_n = 0,23 V_p^{-0,25}$

Bo'ylama to'lqinlar odatda ko'ndalang to'lqinlarga nisbatan tezliklari katta bo'ladi va bu nisbat: $V_p / V_s \approx 1.73$ ga teng bo'ladi.



2-rasm. AK zondining ko'p elementli namunaviy cxemasi.

Tog' jinslarining qayishqoqlik xususiyatlari, demak bularda tarqaladigan to'lqin tezliklari, ularning mineral tarkibiga, g'ovakligiga, g'ovaklik turlariga


bog'liq bo'ladi. Shunday qilib tog' jinslarida to'lqinlarning tarqalish tezligi ularning **litologiyasi va petrofizik** xususiyatlariga bog'liq ekan.

Tog' jinslarining akustik xususiyatlarini o'rganish (AK-S).

Quduqlarda qayishqoq to'lqinlarni hosil qilish kerak va bu hosil bo'lgan to'lqinlarni tog' jinslaridan o'tishini kuzatish kerak. *Akustik usullarni o'tkazish uchun ikki va uch elementli zondlar ishlataladi.*

Ikki elementli zond to'lqin tarqatuvchi manba' va undan *L-masofada* joylashgan to'lqinlarni qabul qilgichdan iboratdir. Odatda, ikki elementli zondlar quduqlarda mustahkamlovchi quvurlar ortidagi sement sifatini aniqlashda qo'llaniladi. Quduq kesimlarini bo'laklash, tog' jinslari litologiyasi aniqlash, kollektordiari ajratish va kollektor xususiyatlarini aniqlash *uchun uch elementli zondlar* qo'llaniladi.


Uch elementli zondlar ikkita to'lqin qabul qilgich **P1 va P2**, ulardan biroz masofa narida joylashgan to'lqin tavrqtuvchi manba **I** dan iboratdir. Ikkita qabul qilgich **P1, P2** o'rnida ikkita manba **I1, I2** va bitta manba **I** o'rnida qabul qilgich **P** bo'lishi mumkin. Ikki qabul qilgich **P1, P2** orasidagi masofa ΔL -o'lchanayotgan $\Delta t = T_2 - T_1$ da hisobga olinadi. Bunda **T₁** va **T₂** to'lqinlarning birinchi va ikkinchi qabul qilgichga kelgan vaqtлari.



3-rasm. Uch elementli zondlar.

Akustik usullarni o‘tkazishda SPAK-4M apparatusidan keng foydalaniladi (4-rasm). Bu apparatura bilan quduqlarda quyidagi ko‘rsatkichlar yozib olinadi:

- 1) birinchi to‘lqin taqatuvchi manba’ I₁ dan qabul qilgich P gacha to‘lqin tarqalish vaqtி τ_1 ;
- 2) ikkinchi to‘lqin tarqatuvchi manba’ I₂ dan qabul qilgich P gacha to‘lqin tarqalish vaqtி τ_2 ;
- 3) ikki manba’ orasida bo‘ylama to‘lqinlarning tarqalish vaqtி $\Delta\tau = \tau_2 - \tau_1$;
- 4) I₁dan kelgan to‘lqinlar amplitudasi A₁;
- 5) I₂ kelgan to‘lqinlar amplitudasi A₂;
- 6) amplitudalar nisbatining logarifmi- $\lg(A_1/A_2)$



4-rasm. SPAK-4M apparaturasi.

SPAK-4M apparatusida uch elementli I20.5I11.5P zond qo‘llanilib, o‘lchash bazasi 0.5 m. va zond uzunligi 2 m. tengdir.

To‘lqinlar magnitostriksion tarqatgichlar I₁ va I₂ dan tarqalib, ular G₁ va G₂ impuls tok hosil qiluvchi generatorlardan tok bilan ta’minlanadi. Generatorlar K-kommutator orqali ishga tushadi. I₁ va I₂ dan tarqalgan qayishqoq to‘lqinlar burg‘i qorishmasi, tog‘ jinslaridan o‘tib, to‘lqin qabul qilgich P ga kelib tushadi va unda U-kuchaytirgich orqali kuchaygach F-filtrga o‘tadi. Filtrdan kabel orqali yuqoriga, vaqt pulni VP ga τ_1 , τ_2 , $\Delta\tau$ larni, amplituda bloki AB ga A₁, A₂,

$\lg(A_1/A_2)$ larni yozishga uzatiladi. Demak SPAK-4 apparaturasi akustik usullarning tezlik va so‘nish uslublarini bir paytning o‘zida yozib olish imkonini beradi.

Tog‘ jinslarida to‘lqin tarqalish tezligi.

Diagrammalar 1000-1200 m/soat tezlikda yoziladi, biroq ayrim holatlarda bu tezlik 600-800 m/soat gacha kamaytiriladi.

Tezlik bo‘yicha akustik usul tog‘ jinslarining litologik tarkibi va kollektorlarning g‘ovaklik koeffitsiyenti K_p ni aniqlash uchun qo‘llaniladi.

Litologik tarkibini aniqlashda tog‘ jinslarida to‘lqinlarning harhil tezlikka ega ekanliklari hisobga olinadi. Bo‘s sh sementlangan qumtoshlarda qayishqoq to‘lqinlarning tarqalish tezligi 1500-2500 m/s oraliqda bo‘ladi. Mustahkam sementlangan qumtoshlarda tezlik 3000-6000 m/s gacha oshishi mumkin.

Gillarda to‘lqin tarqalish tezligi bo‘s sh sementlangan qumtoshlar kabi 1200-2500 m/s atrofida bo‘ladi va gillarning zichligi oshgan sari (chuqurlik oshgan sari) ularda tezlik ortib boradi.

Ohaktoshlarda tezlik katta oraliqda, ya’ni 2300-6000 m/s chegaralarida o‘zgaradi. Tarkibida gillarning bo‘lishi tezlikni kamaytiradi.

Dolomitlarda tezlik ancha mo‘tadil bo‘lib, 5000-7500 m/s tashkil etadi.

Osh tuzida ham tezlik kichkina oraliqda o‘zgaradi va 4500-5500 m/s ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichlar orqali quduq kesimlarida tog‘ jinslarining litologik tarkibini aniqlash yaxshi natijalarni beradi.


Neft yoki gazga to‘yingan, bo‘s sh sementlangan, yuqori g‘ovakli kollektorlarda α_{ak} suvli kollektorlarga nisbatan yuqori bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda α_{ak} ning gilliylilik, darziyilik, kovaklikliy bilan bog‘liqligi ushbu ko‘rsatkich orqali kollektorlarni o‘rganish imkonini beradi va boshqa usullarda aniqlanishi qiyin bo‘lgan xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi.

13-amaliy mashg‘ulot.

Mavzu: Burg‘ilash quduqlarini o‘rganishni geoximik usullari.

Gaz usuli. Gaz usulining, boshqa geofizik usullardan avfzalligi, ularning o‘tkazish uchun maxsus vaqt talab qilmaslidadir. Burg‘ilash jarayoni davom etayotgan paytda o‘tkaziladi, bu qidiruv ishlarini tezlashtiradi.

Gaz usulida quduqdan chiqayotgan burg‘i qorishmasi tarkibidagi uglevodorodli gazlar tarkibi va miqdori aniqlanadi. Tabiiy yonuvchi gazlarga: metan-CH₄, etan-C₂H₆, propan-C₃H₈, butan-C₄H₁₀ va boshqalar kiradi. Metan yengil uglevodorod, qolganlari esa og‘ir uglevodorodlar qatoriga kiradi.



1-rasm. GTI stantsiyasining ma'lumotlarini yig'ish va uzatish sxemasi.


Quduq qatlamlarni ochganda, ularning g'ovaklari orasidagi gazlar burg'i qorishmasiga qo'shib, u bilan birga yer ustiga ko'tariladilar. Shuning uchun neftli, gazli qatlamlarni o'tganimizda, burg'i qorishmasi tarkibida uglevodorod gazlarini paydo bo'lganini kuzatamiz. Lekin neftli, gazli, gazokondensatli qatlamlarda uglevodorodlarning sifat va miqdor tarkibi turlichadir.

Gaz usulida quyidagi vazifalar bajariladi: a)quduqdan chiqqan burg'i qorishmasini gatsizlashtirish (degazatsiya); b) burg'i qorishmasidan tortib olingan gazlarning tarkibi va miqdorini aniqlash; v) xamda aniqlangan gazlarni quduqning kaysi cho'qurligidan chiqqanini aniqlash.

Burg'i qorishmasini gatsizlashtirish uchun turli usullardan foydalilanadi. Bulardan: qorishma ustida bosimni kamaytirish (vakuum hosil qilish), isitish, mexanik ta'sir etish, yoki bir necha usullarni birdaniga qo'llash mumkin.

Degazatorning asosiy qismi, tubi ochiq, kamera bo'lib, po'kak orqali burg'i qorishmasining ustida cho'kmay turadi.

Kamera gaz-havo yuliga vakuum nasosi orqali ulangan. Vakuum nasosi havoni o'ziga tortganda kamera va suyuqlik o'rtaсидаги muxitda bosim kamayadi, to'siq 3 ga urilgan suyuqlik oqimidan gazlar ajralib chiqadi. Levit A.M. ma'lumotlariga karaganda bu degazatorlar burg'i qorishmasida atigi 0.02% uglevodorodlarni ajratib olar ekan.



2-rasm. PG-1 degazatori.


2-rasmda keltirilgan PG-1 degazatorining asosiy qismlari quyidagilardan iborat:

1) kozirek; 2) gaz-havo yuliga ulovchi shtutser; 3) burg‘i qorishmasining oqimini tekislovchi to‘silalar; 5) degazatorni maxkamlovchi joy; 6,4) degazatorni maxkamlovchi taxtacha; 7) ingichka tros-degazatorni taxtachaga boylab kuyuvchi; 8,10) Degazator satxini suyuqlik ustida baland-pastligini o‘rnatuvchi vint; 9) jelob-ariq; 11) po‘kaklar.

PG-1 degazatori uzlusiz gазsizlantiruvchi degazator bo‘lib, gaz usulida vaqtı-vaqtı bilan, kern va shamlarni gазsizlantiruvchi degazatorlar xam qo‘llaniladi.

Vaqti-vaqtı bilan degazatsiya qiluvchi TVD-1 degazatori issiq suv bilan aralashtirilgan burg‘i qorishmasining namunasi ustida vakuum hosil qilish yuli bilan ishlaydi. Degazator-idishda 50 mm simob ustuni bosimida vakuum hosil qilinadi, idishga qorishma namunasi solinadi, so‘ngra 70° gacha isitilgan issiq suv quyiladi. Vakuum sharoitida suv qaynay boshladi, bu esa qorishmani intensiv ravishda aralashtiradi. Shu sababli gazlarning ajralishi tezlashadi va gазsizlashtirish darajasi 60-90 % tashkil etadi. Degazasiya vaqtı 5 min.

Kern va shamlarni degazatsiya etish uchun xam termik va termovakuum usullardan qo‘llaniladi. Degazator tomonidan ajratib olingan gaz havo bilan qo‘shilib gaz-havo aralashmasini hosil qiladi. Bu aralashma uglevodorodlarning tarkibi va miqdorini aniqlovchi gazaniqlagich (gazoanalizatorga) ga etib borguncha, quyidagi gaz-havo yulini o‘tadi.



3-rasm. gaz-havo yo'li.

Rasmda: 1-ariq (jelob), 2-degazator; 3-tindirgich; 4-reometr (yoki rotametr); 5-suvli barboter; 6-elektr isitgich; 7-gazoanalizatorning ishchi kamerasi; 8-oqim tezligini o'zgartiruvchi klapan; 9-ballon; 10-vakuum o'lchagich; 11-vakuum rostlagich; 12-vakuum nasosi.


Gaz-havo oqimi tindirgich 3 dan o'tganida tarkibidagi mexanik qo'shimchalar, suv tomchilaridan ozod bo'ladi. Reometr 4 gaz oqimining tezligini o'lchaydi. Reometr vertikal shisha naycha bo'lib, diametri pastdan yuqoriga kattalashib boradi. Uning ichiga yengil sharcha joylashtirilgan. Gaz-havo oqimining tezligi kancha katta bo'lsa, shuncha shar naychaning yuqori qismiga ko'tariladi. Naychaga tezlikni bildiruvchi belgilar qo'yilgan, ularga qarab bevosita tezlik aniqlanadi. Gaz-havo oqimining tezligini odatda 500 ml / min ushlab turiladi. Suvli idish 5 gaz-havo oqimidagi serovodorod H_2S va CO_2 gazlarini yutadi va gaz-havo oqimini namlaydi. Suvni xar ish kuni olmashtirib turiladi. Elektr isitgich 6 gaz-havo oqimini isitib, uni gazoanalizatordan o'tayotganida u yerda bug'lanish hosil qilmaslikni oldi olinadi. Vakuum nasosi oldida o'matilgan ballon 9 nasos ishlayotganida tebranishni kamaytirish vazifasini bajaradi. Gaz tarkibi va miqdorini aniqlash uchun, odatda, elektr gazoanalizatorlar ishlatiladi.

Gazoanalizatorda aloxida og'ir (etan, propan, butan va boshqa) va aloxida jami uglevodorodlar miqdorini aniqlash mumkin. Og'ir uglevodorodlar ishchi kamerada 500° bo'lganida yonadilar va shuning uchun ko'priq yelkalari orasida 0.65 v kuchlanish hosil qilinadi. Agarda bu qarshilikni sxemadan chiqarib tashlasak, ko'priq yelkalari orasida 1.1 v kuchlanish bo'lib, bu kuchlanish esa kamerada 850° issiqlikni yaratadi. Bu issiqlikda barcha uglevodorodlar yonib, gazoanalizator uglevodorolarning umumiyligi miqdorini aniqlaydi. Gaz miqdorini va tarkibini aniqlash uchun gazoanalizatorlar bilan bir qatorda xromatograflar ham ishlatiladi. Xromatograflar metan, etan, propan, butan, pentan va geksan kabi

uglevodorodlaning miqdorini alohida aniqlash imkonini beradi. Xromatograflarning asosiy qismini gaz yutgich - selikagel bilan to'ldirilgan kolonka – shisha naycha tashkil etadi.

Burg‘ilash tugagandan so‘nggi gaz usuli.

Qorishmaning sirkulyatsiyasi to‘xtatilgandan keyin qatlam ichidagi gazlar quduqka chiqib, qorishmani uglevodorodlarga boyitadi. Shuniing uchun quduqda burg‘ilash ishlari to‘xtatilgandan so‘ng, qaytadan burg‘i qorishmasining sirkulyatsiyasi tiklanadi va gaz usuli yuqorida ko‘rsatilgan tartibda o‘tkaziladi: ya’ni 1-degazatsiya; 2-gaz tarkibi va miqdorini aniqlash; 3-gaz chiqqan cho‘qurlikni aniqlash. Gazli qatlamlar diagrammalarda ikki marta qayd qilinishini yodingizda tutishingiz kerak. Birinchi marta qorishmaning quduq devorlari va burg‘ilash quvurlari orasidagi ulushi yuqoriga ko‘tarilganda; ikkinchi marta qorishmaning burg‘ilash quvurlari orasidagi ulushi yuqoriga ko‘tarilganda qayd qilinadi. Bu usulni maxsuldor qatlamlar ochilgandan so‘ng, ko‘p vaqt o‘tmasdan oldin o‘tkazish maksadga muvofikdir, chunki bunda singish zonasining diametri unchalik katta bo‘lmaydi. Gaz usullarining umumiy samaradorligi 80 % ni tashkil etadi.



4-rasm. Burg‘ilash uskunalarining joylashish sxemasi.

Rasmda: 1 - burg‘i; 2 - turbobur; 3 - burg‘ilash quvuri; 4 - burg‘ilash qulfi; 5 - chig‘ir; 6 - chig‘ir va rotoring dvigatellari; 7 - vertlyug; 8 - tal arqoni; 9 - tal bloki; 10 - ilgak; 11 - burg‘ilash shlangi; 12 – boshqaruvchi quvur; 13 - rotor; 14 -

minora; 15 - metal ariqcha; 16 - nasos bog‘lanishlari; 17 - burg‘ilash nasosi; 18 - nasosning dvigateli; 19 - qabul qiluvchi idish;

14-amaliy mashg’ulot.

Mavzu: Mustahkamlangan quduqlarda solishtirma elektr qarshiligni o’lchash.

Elektr usullaring, aksariyat, qismi tog‘ jinslarining solishtirma qarshiligini o’lchashga asoslangandir. Tog‘ jinslarining solishtirma qarshiligi deb bir kub metr xajmdagi, eni, bo‘yi va balandligi bir metr bo‘lgan tog‘ jinsining qarshiligiga aytildi. Umuman olganda istalgan o’tkazgichning qarshili:

$$\rho = \frac{R}{S} l \quad (1)$$

bu formuladan

$$\rho = R S / l \text{ agarda:}$$

R - o’tkazgichning qarshiligi, OM da, S - o’tkazgichning ko‘ndalang kesimi, M2 da, l - o’tkazgichning uzunligi, M da o’lchanilsa, ρ - o’tkazgichning solishtirma qarshiligi, OMM da o’lchaniladi.

Tog‘ jinsi va minerallarning solishtirma qarshilik-lari juda katta oraliqda o‘zgaradi. Buni quyida keltirilgan 1- jadvaldan ham ko‘rish mumkin.

Asosiy tog‘ jinsi hosil qiluvchi va ruda minerallarining solishtirma elektr qarshiliklari.

1-jadval

Minerallar	ρ , OMM	Minerallar	ρ , OMM
Angidrit	$10^7 - 10^{10}$	Magnetit	$10^{-4} - 10^{-2}$
Galenit	$10^{-5} - 10^{-3}$	Muskovit	$10^{11} - 10^{12}$
Grafit	$10^{-6} - 10^{-4}$	Neft	$10^9 - 10^{16}$
Kalsit	$10^7 - 10^{12}$	Dala shpatlari	$10^{12} - 10^{15}$

Osh tuzi	$10^{14} - 10^{15}$	Silvin	$10^{13} - 10^{15}$
Kvars	$10^{12} - 10^{14}$	Slyudalar	$10^{14} - 10^{15}$

Jadvaldan ko‘rinib turiptiki, cho‘kindi tog‘ jinsi hosil qiluvchi minerallar: kvars, kalsit, muskovit, slyudalar va tog‘ jinslari: angidrit, osh tuzi va boshqa cho‘kindi tog‘ jinslari judayam katta qarshilikka egadir. Lekin cho‘kindi tog‘ jinslarining ion o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lishlari va ular tarkibida suv va unda erigan tuzlarning bo‘lishi, tog‘ jinslarining solishtirma qarshiliklarini kamaytiradi. Extimoliy qarshilik va ularning oddiy geologik sharoitlardagi ko‘rinishlari.

Solishtirma qarshilikni o‘lchash uchun quduqqa zond tushiriladi. Zond bu bir bo‘lak kabel bo‘lib uning uzunligini ikki chetdagi elektrodlar orasidagi masofasidan 1-2 m uzunroq olinadi. Elektrodlar tomiri po‘latdan iborat qo‘rg‘oshin simdan tayyorlanib, uzunligi 20-30 sm.ni tashkil qiladi. Uchta elektrod kabelning xarbir tomiriga alohida-alohida ulanib, so‘ngra qo‘rg‘oshin simlar kabelga yonma-yon o‘raladilar. Elektrodlarning atigi 1-2 o‘ramigina ochiq qoldiriladi, qolganlari esa izolyatsion lenta bilan o‘raladi. Shunday usulda nuqtaviy elektrodlar yasaladi. Nuqtaviy elektrodlar - bular kattaliklari elektrodlar orasidagi masofadan birnecha bor kichik elektrodlardir.

Elektrodlar bajaradigan vazifalariga binoan ikki turli bo‘ladilar: tok yuboruvchi va o‘lchovchi (qabul qiluvchi) elektrodlardir. Tok elektrodlari A, V, o‘lchovchi elektrodlar M, N xarflari bilan belgilanadi. Shunday qilib A va V elektrodlari tok manba’iga ulanib quduqlarda elektr maydoni hosil qilinadi.

Hosil qilingan sunniy elektr maydoni o‘lchovchi (qabul qiluvchi) M va N elektrodlari orqali o‘rganiladi. A va V tok zanjirining elektrodlari, M va N o‘lchovchi zanjirning elektrodlari juft elektrodlar deb ataladilar. Odatda uch tomirli kabellar ishlatilganligi tufayli quduqqa bir tok elektrodi A va juft elektrodlar M va N tushiriladi, yoki juft elektrodlar A va V hamda elektrod M tushiriladi. Zondlar tok elektrodlarining soniga qarab bir qutbli (bitta tok elektrodi) va ikki qutbli (ikkita tok elektrodi - rasm) bo‘lishadi.

Zondlar juft elektrodlar A va V, yoki M va N orasidagi masofa va A va M orasidagi masofa nisbatiga qarab ham ikki turga bo‘linishadi. Agarda: AV(M N)(AM bo‘lsa bu zondlarni gradiyent zondlar deb ataladi. AV(M N)(AM bo‘lsa, bunday zondni potensial zond deb ataladi. Zondlar elektrodlarning tartib bilan joylashishiga qarab ham ikki turga bo‘linadilar: Agarda toq elektrod yuqorida, juft elektrodlar esa pastda joylashgan bo‘lsalar, bularni ketma-ket zondlar dab atashadi. Agarda juft elektrodlar yuqorida, toq elektrod esa pastda joylashgan bo‘lsa, bunday zondlarni ag‘darilgan zond deb atashadi.

15-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Quduqlarni texnik holatini o'rganishda termik usullari.

Termik usullar quduqlarda tevarak-atrofdagi tog‘ jinslarida tabiiy yoki sun’iy issiqlik maydonlarining tarqalishini o‘rganadilar. Bu usullarda tog‘ jinslarining quyidagi termik xususiyatlari o‘rganiladi.

1. Issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti l-kkal m soat grad birlikda o‘lchanib, tog‘ jinslarining issiqlik o‘tkazish (uzatish) qobiliyatini ko‘rsatadi.
2. Solishtirma issiqlik qarshiligi x-m soat grad kkal da o‘lchaniladi va 0.2-10 oralig‘ida o‘zgaradi.
3. Solishtirma issiqlik sig‘imi s-kkal \propto kg grad da o‘lchaniladi va 0.15-0.5 oralig‘ida o‘zgaradi.
4. Solishtirma temperatura o‘tkazuvchanlik a-m² soat da o‘lchaniladi va 200-27000 oralig‘ida o‘zgaradi.

Yerning tabiiy issiqlik maydoni usuli (geotermiya)

Yer bag‘rining tabiiy temperaturasi neft va gaz konlarini paydo bo‘lishi, ularni migratsiyasi, qatlamlarda saqlanish sharoitlarini belgilovchi omillardandir. Konlarni qazish, ularni ekspluatatsiya qilish, quduqlarda ishlatiladigan geofizik apparatlarini tanlashda quduqdagi temperaturani bilish muhim ahamiyatga egadir.

Geotermiya usuli quduqlarda burg‘i qorishmasining sirkulsiyasi to‘xtatilgandan keyin, birqancha vaqt (o‘rtacha 10-20 kun) o‘tgandan so‘ng qorishma qatlam temperaturasini qabul qilgandan so‘ng o‘tkaziladi. Burg‘i qorishmasi va qatlam temperaturalarini bir-birlariga tengliklari quduqlarda temperatura qarorlashgan holat deb ataladi va bu sharoitda o‘lchangan temperatura qatlamlarning chuqurlikdagi haqiqiy temperaturalari hisoblanadi.

Quduqlarda temperaturani o‘lhash uchun maksimal simob termometrlari va elektr termometrlari qo‘llaniladi.

Maksimal simob termometrlarning ishlash prinsipi tibbiyotda ishlatiladigan termometrlar kabitdir. Termometrning simob joylashgan rezervuari bilan kapillyar ulangan joyida torayish mavjud bo‘lib, temperatura oshgan sari simob yuqoriga kapillyar bo‘ylab ko‘tariladi. temperatura pasayaboshlaganda, yuqorida aytilgan torayish kapillyar va rezervuardi simobni uzib qo‘yadi. Termometr eng baland temperaturani ko‘rsatadi, shuning uchun uni maksimal termometr deb ataladi. Simobni rezervuarga qaytarish termometri silkitish bilan amalga oshiriladi. Temperaturani aniq o‘lhash uchun quduqqa birnechta termometr bir vaqtda tushiriladi. Tevarak atrofning temperurasini termometr qabul qilib olishi uchun

birqancha vaqt kerak, shuning uchun termometr o'lhash nuqtasida 0.5 soatdan 1 soatgacha ushlab turiladi. Maksimal simob termometrlari temperaturani katta aniqlikda o'lchaydilar.

Asosan, quduqlarda temperatura elektr termometrlari bilan o'lchaniladi. Termometrlarning ishlash prinsipi metal o'tkazgichlarning temperatura o'zgarishi bilan ularning qarshiliklarining o'zgarishi orasidagi bog'liklikka asoslangandir:

$$R_t \gg R_0(1+a(t-t_0))$$

Elektron termometrlarda o'lchanilgan temperatura ancha aniq bo'lib, kabelning xarakteristikalariga bog'liq bo'lmaydi. Quduqga tushirilgan termometr 250 v li doimiy tok bilan ta'minlanadi. Issiqliknini sezadigan rezistorlar R_t termometrning pastki qismida mis trubalarning ichiga joylashtirilgan bo'lib, bevosita burg'i qorishmasi bilan kontaktda bo'ladi. Geotermiya usulida temperaturani zondni tushirayotganda o'lchaniladi. Elektr usullariga nisbatan termometriyani o'tkazish tezligi ancha kamroq 600-1000 m soat. Tabiiy issiqlik maydoni usuli gaz qatlamlarini, ko'mir, tuz va ruda konlarida ham ishlatilishi mumkin.

Sun'iy issiqlik maydoni usuli

Bu usulda sun'iy ravishda issiqlik maydoni hosil qilinadi va vaqt o'zgarishi bilan bu maydonlar tekshiriladi. Sun'iy maydonlar tog' jinslarining temperatura o'tkazuvchanliklari bilan uzviy bog'liqdir. Sun'iy issiqlik maydonlarini burg'i qorishmasini isitish yo'li bilan ham hosil qilish mumkin.

16-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Quduq va qatlam bosimini aniqlashda barometrik usuldan foydalanish.

Barometriya vaqt davomida bosimning harakatini yoki quduq bo'ylab bosim gradientini o'rganadi. Usul chuqurlik va rezervuar bosimining qiymatlarini aniqlash, qatlamlarga tushirish (repressiya) ni baholash, gidrostatik bosim gradientini aniqlash, statsionar aralashmaning zichligi va tarkibini baholash, toraytirilgan bosimning qaytarilmas yo'qotishlarini baholash uchun ishlatiladi. quduq qudug'i, harakatlanuvchi oqimning gidravlik yo'qotishlari va harakatlanuvchi aralashmaning zichligi va tarkibini aniqlash (oqim tarkibini baholashning boshqa usullari bilan birgalikda). Qo'llash chekllovleri quduqdagi statsionar bo'lмаган jarayonlar, harorat va gaz-suyuqlik oqimining strukturasi bosim o'lchagichlarning ko'rsatkichlariga ta'siri bilan bog'liq. O'lchovlar chuqurlik o'lchagichlari bilan amalgma oshiriladi. absolyut bosim va differentialsni o'lchashga bo'linadi. Bundan tashqari, avtonom ro'yxatdan o'tgan bosim o'lchagichlari mavjud bo'lib, ular qirg'ichdan yasalgan simga yoki shakl sinovchilarining bir qismi

sifatida tushiriladi va masofadan turib, kabel orqali ishlaydi. Bosim transduserlari piezokristal (kvarts, safir), shuningdek, torli va membrana turlari (eskirgan modellar) bo'lishi mumkin. Quduq o'lchagichlari umumiyl bosimning statik komponentini o'lhash uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak (radial oqimlar ta'siri qilishi mumkin bo'lgan quduq tubiga intensiv suyuqlik oqimining intervallari bundan mustasno). Barometrik usulning masofaviy asboblari quyidagi talablarga javob berishi kerak: asosiy o'lchov diapazonlari- 10; 25; 40; 60 va 100 MPa ; bosim o'tkazgichlarining sezgirligi - 0,001-0,05 MPa; asosiy nisbiy o'lchov xatosi - $\pm 0.25\%$ yoki $\pm 0.5\%$. Bosim sensorlari bo'lgan qurilma (modul) "kirish-tarkibi" baholash usullarining boshqa sensorlari, shuningdek, HA, LM (bo'limga ulanish uchun) bilan birlashtirilgan.

Birlamchi va davriy kalibrlashlar yuqori bosimli kalibrlash uskunasida sertifikatlangan o'lchagichlar yordamida amalga oshiriladi. Chuqurlik o'lchagichlarining ko'rsatkichlariga haroratning kuchli ta'siri tufayli kalibrash transduser va qurilmaning o'zini termostatlashda kamida uchta belgilangan haroratda amalga oshiriladi. Kalibrash bog'liqligi $P = f(J; T)$ ko'rinishiga ega, bu erda P , T - bosim (MPa) va harorat ($^{\circ}$ S), J - qurilma ko'rsatkichlari. Mutlaq bosimlarni va ularning o'zgarishlarini o'lhash uchta usulda amalga oshiriladi, belgilangan chuqurlik nuqtalarida vaqt funksiyasi sifatida bosimning o'zgarishini qayd etadi; chuqurlik funksiyasi sifatida quduq bo'ylab statsionar bosim maydoni; chuqurlik va vaqt funksiyasi sifatida quduq bo'ylab statsionar bo'limgan bosim maydoni. Bosimning o'zgarishini vaqt funksiyasi sifatida qayd etish tebranish o'lchovlari paytida yoki rezervuarlarni gidrodinamik tadqiq qilishda (CP kirish egri chizig'ini, bosim o'zgarishi egri chizig'ini - bosimning oshishi, bosimning oshishi va boshqalarni qayd etish) amalga oshiriladi. Taxminan 1 m asosda gidrostatik bosim farqlarini o'lchaydigan differentsial bosim o'lchagichlari bo'sh turgan quduqdagi suyuqlik zichligini aniqlash uchun ishlatiladi. O'lchangan bosim farqi quduq ichidagi suyuqlik aralashmasining o'rtacha zichligiga mutanosib bo'lganligi sababli, topilgan zichlik qiymatlari oqim kesimida ham, o'lhash oralig'ida ham o'rtacha hisoblanadi. Aralashmaning zichligini xuddi shunday baholash, gidravlik yo'qotishlarning ta'siri ahamiyatsiz bo'lgan past oqim tezligida ham ruxsat etiladi.

17-amaliy mashg'ulot.


Mavzu: Neft va gaz konlarini ishlatishni nazorat qilishda termometriya usuli.

Quduqlarda temperaturani o'lhash uchun maksimal simob termometrlari va elektr termometrlari qo'llaniladi.

Maksimal simob termometrlarning ishlash prinsipi tibbiyotda ishlatiladigan termometrlar kabitdir. Termometrning simob joylashgan rezervuari bilan kapillyar

ulangan joyida torayish mavjud bo‘lib, temperatura oshgan sari simob yuqoriga kapillyar bo‘ylab ko‘tariladi. temperatura pasaya boshlaganda, yuqorida aytilgan torayish kapillyar va rezervuardagi simobni uzib qo‘yadi. Termometr eng baland temperaturani ko‘rsatadi, shuning uchun uni maksimal termometr deb ataladi. Simobni rezervuarga qaytarish termometri silkitish bilan amalga oshiriladi. Temperaturani aniq o‘lchash uchun quduqqa birnechta termometr bir vaqtida tushiriladi. Tevarak atrofning temperaturasini termometr qabul qilib olishi uchun birqancha vaqt kerak, shuning uchun termometr o‘lchash nuqtasida 0.5 soatdan 1 soatgacha ushlab turiladi. Maksimal simob termometrlari temperaturani katta aniqlikda o‘lchaydilar.

quduqlarda ishlataladigan elektr termometrlarida ko‘prik sxemasi qo‘llaniladi (rasm-1). Rasm-1.a da temperaturani uch tomirli kabellarda, rasm-1.b da bir tomirli kabellarda o‘lchash sxemalari keltirilgan. Rasm-1.v da elektron termometri TEG ning elektr sxemasi keltirilgan.



1-rasm. Quduqlarda ishlataladigan elektr termometrlari.

Termik usullar yuqorida sanalgan vazifalarning birinchisi, ya’ni sementning ko‘tarilgan balandligini aniqlaydi. Ma’lumki sement qorishmasi qotayotganida ekzotermik reaksiya sodir bo‘lgani uchun issiqlik chiqaradi.

Sementlangan oraliq, sementlash tugagandan so‘ng ko‘p vaqt o‘tmay o‘lchangan termogrammalarda temperaturaning oshishi bilan kuzatiladi. Sementlangan oraliq 980 m. dan pastda joylashgan bo‘lib, termogrammada temperaturaning keskin o‘zgarishi bilan ajralib turipti. Agarda 980 m. gacha sementlanmagan oraliqda termogrammada temperaturaning chuqurlik bilan o‘sishi bir tekis, ravon bo‘lsa, sementlangan oraliqda esa, temperaturaning o‘sishi keskin differensiallangan.

Sement ko‘tarilgan balandlikda temperaturaning qiymati quyidagi omillarga bog‘liq: 1) sementning fizikaviy va kimyoviy xususiyatlari va uning miqdoriga; 2)

sement qorishmasi quyilgandan temperaturani o'lchaguncha ketgan t vaqtga; 3) sementlash ishlarining geologik va texnik sharoitlariga.

Harxil markadagi sementlarning qotish vaqt va issiqlik chiqarish temperaturasi turlichadir. Eng yuqori temperatura qorishma quyilgandan 6-16 soat vaqt o'tgandan keyin kuzatiladi. Lekin temperaturani o'lhash imkon (texnik sabablarga ko'ra) 24-48 soatdan keyin paydo bo'ladi.

1000-1800 m. chuqurlikda sementlash ishlari o'tkazilgan va quduqqa sement qorishmasi quyilgan vaqt bilan temperaturani o'lchaguncha o'tgan vaqt t orsida temperaturaning ekzotermik reaksiya natijasida oshishi o'r ganilgan. Tekshirishlar shuni ko'rsatdi. Agarda t bir sutka bo'lganida temperatura oshishi 3C, t ikki sutka bo'lidanida bu ko'rsatgich 1.6C va t uch sutka bo'lidanida temperatura oshishi 0.9C bo'lgan.

Shuning uchun quduq bo'shashi bilan temperaturani o'lhash zarur.

Sementning miqdori qancha ko'p bo'lsa, shuncha ko'p issiqlik ajraladi, shuning uchun gil qatlamlari qarshisida (kavaklarda) odatda sement ko'p bo'ladi va quduqning sementlangan oraliqlari gillar qarshisida katta temperatura bilan aniq ajralib turadi.

Katta chuqurlikda, ayniqsa geotermik gradiyent katta bo'lidan rayonlarda, termometriya usuli bilan sement ko'tarilgan balandlikni aniqlash mumkin emas. Shuningdek sement qorishmasi quyilgandan keyin ancha vaqt o'tib ketsa, termometriya natija bermaydi. Bu sharoitlarda bu vazifani yechish izotop usuli bilan bajarilishi mumkin.

18-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Neft va gaz konlarini ishlatishni nazorat qilishda gamma-gamma zichlik o'lhash usuli.

Gamma-gamma usulida tog' jinslarini gamma nurlar bilan nurlatilganda ularni tashkil qiluvchi elementlaridan qaytgan su'niy gamma nurlar qayd qilinadi. Quduqqa tushirilgan zondda gamma nur taqatuvchi manba' 1, tog' jinslaridan qaytgan nurlarni hisoblovchi 4-indikator, manba'dan indikatorga to'g'ridan-to'g'ri nur tushmasligini ta'minlovchi qo'rg'oshin to'siq 3, zond ichidagi elektron sxemani tok bilan ta'minlovchi blok 5, indikator 4da gamma nurlaridan hosil bo'lidan impulslarni kuchaytirgich 6, quduqning ta'sirini kamaytiruvchi va uni quduq devoriga taqab turuvchi qurilma 8, zond bilan yuqoridagi o'lchovchi qurilmalarni bir-biri bilan bog'lovchi kabel 7, kollimatsion darchalar 2 kabilar mavjuddir.

Gamma nurlari tog‘ jinslaridan o‘tayotganlarida muhitning atomlari, elektronlari yoki atom yadrolari bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lishlari mumkin. Bu o‘zaro ta’sirda gamma nurlar butunlay yutilishlari yoki harakat yo‘nalishlarini o‘zgartishlari va bu hol esa ularning energiyalarini kamaytirishga olib kelishi kuzatiladi.

Energiyalari 10 Mev dan kam bo‘lgan gamma nurlar uchun moddalar bilan gamma nurlarining, odatda, uch hil o‘zaro ta’siri kuzatiladi: 1) fotoelektrik effekt; 2) Kompton effekti; 3) pozitron -elektron juftligini hosil bo‘lish effekti.


Fotoeffektda (-nurlar element atomlari bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladilar va bor energiyalari h) ni atomlarning elektron qobig‘laridagi elektronlarning biriga to‘la beradilar.

Gamma nurlarning energiyalari katta bo‘lmaganida elektronlar gamma nurlariga nisbatan 90(burchak ostida yuliyu olinadi. Gamma nurlarning energiyalari oshishi bilan bu burchak kamayib boradi.

Fotoeffekt jaroyonining kuzatilish ehtimoli ta’sir qilayotgan gamma nurlarining energiyasini elektronlarning atom qobig‘laridagi bog‘lanish energiyalariga qanchalik yaqin bo‘lishiga bog‘liq. Odatda elkektronlarning bog‘lanish energiyasi birnecha yuz Kev dan oshmaydi, shuning uchun fotoeffekt gamma nurlarining energiyalari nisbatan kichkina bo‘lganda yuz berishi mumkin. Og‘ir elementlar uchun elektronlarning bog‘lanish energiyalari chuqur orbitalarida ortib boradi, demak og‘ir elementlarda fotoeffektning kuzatilish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi.

Elektron pozitron juftligi gamma nurlarini yadro bilan o‘zaro ta’sirda hosil bo‘ladi. O‘zaro ta’sirda hosil bo‘lgan elektron va pozitronlarning harbirining energiyasi 0.51 Mev ga tengdir. Shu sababli bu jaroyon ta’sir etayotgan gamma nurlarning energiyasi 1.02 Mev dan kam bo‘lmagan taqdirdagina hosil bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan gamma nurlarining jismlar bilan o‘zaro ta’sirini gamma-gamma karotaj (GGK) usulida o‘rganiladi GGK usuliga kompton effektining ta’siri ko‘proq bo‘lsa, bu gamma-gamma usulini zinchlik uslubi deb, GGK-P deb belgilanadi. Agarda o‘lchanayotgan kattalikka foton effekti ko‘proq ta’sir ko‘rsatsa, bu usulni gamma-gamma usulning selektiv uslubi deb, GGK-S deb belgilanadi.



1-rasm. Gamma-gamma korataj diagrammasi.

GGK-P diagrammalarida quduq kesimi quyidagi tog‘ jinslaridan iborat: 1-- osh tuzi; 2- kaliy tuzi; 3- gil; 4- diametri yuvilgan gil; 5- gips; 6- angidrit; 7- kichik g‘ovakli oxaktosh; 8- yuqori g‘ovakli oxaktosh va qumtosh; 9- gazga to‘yingan; 10- neftga to‘yingan; 11- suvga to‘yingan; 12-metamorfik tog‘ jinslari.

19-amaliy mashg’ulot.

Mavzu: Vertikal seysmik profillash usuli yordamida quduqlar oralig’ini o’rganish texnologiyalari.

VSP-S, VSP-PGR materiallarini qayta ishlash.

VSP materiallari signal-to‘siq munosabatni oshirish, to‘lqinlar xaritasi strukturasini soddalashtirish va seysmik to‘lqinlarning dinamik va kinematik xususiyatlarini aniqlash uchun qayta ishlangan.

Qayta ishlash SSS-3 VSP-PGR kompleksi IBM-370 tizimida hamda personal EHM laridagi VSP-PGR, VSP-S, SSS-3-RS paketlarida bajarilgan.

VSP-S ma’lumotlarini qayta ishlash quyidagicha bajariladi:

1. Demultipleksatsiya.
2. Pasportni yaratish va SSS-3 boshini o‘zlashtirish.

3. Ro'yxatga olish bilan profil tuzish.
4. Ma'lumotlarni SSS-3 formatidan (IBM-370) VSP-PGR (IBM-PC) tizimi formatiga o'tkazish.
5. VSP-RS tizimida pasportni yaratish va boshini yaratish.
6. Statik tuzatmalar kiritish.
7. Dastlabki maydonni oldindan aytuvchi dekonvolyutsiya qilish.
8. To'lqinlarni tezlik bo'yicha ajratish.
9. Bir karrali qaytaruvchi trassalarni hisoblash.
10. VSP ma'dumotlarini qayta ishslash natilarining vizualizatsiyasi.

VSP-PGR materiallari quyidagi jarayonlar natijasida qayta ishlangan:

1. Demultipleksatsiya.
2. Pasportni yaratish va SSS-3 boshini o'zlashtirish.
3. Ro'yxatga olish bilan profilni joylashtirish (tuzish).
4. Qatlamlarni ularash.
5. Ma'lumotlarni SSS-3 formatidan VSP-RS formatiga o'tkazish.
6. VSP-RS tizimida pasportni yaratish va boshini o'zlashtirish.
7. Statik tuzatmalarni kiritish.
8. Tezliklar bo'yicha to'lqinlarni ajratish.
9. Optimal dekonvolyutsiya.
10. Sinfazli to'plamoq.
11. Chastotali yutilish kompensatsiyasi.
12. Amplitudalarni tuzatish.
13. Qayta dinamik vazifani yechish.

VSP-OGT materiallarini qayta ishslash 3 ta asosiy bosqichdan iborat.

Birinchi vazifasi dala materiallarini EHM dasturiga kiritishdan iborat. Buning uchun IBM-370 ma'lumotlarni uzatishda demultplikatsiya va boshqa bir qator dasturlardan foydalilanildi. Profil geometriyasini olishda pasport tuziladi, portlatuv punkti va seysmogrammalar tartibga solinadi. Bundan so'ng ma'lumotlar magnit lintadan EHM dasturlari qattiq diskiga yoziladi.

Ikkinci bosqichda trassalar va seysmogrammalar ro'yxatga olinadi, ular filtratsiya qilinadi. So'ngra so'nuvchi to'lqinlar hisoblanadi. Bunda VSP ma'lumotlarini qayta ishslashga mo'ljallangan har xil paketli dasturlar jarayonidan foydalilanildi. Birinchi va ikkinchi bosqichlar VSP materiallarini qayta ishslashda umumiy va standart hisoblanadi.

Uchinchi bosqichning vazifasi oldingi olingan natijalar bo'yicha VSP-OGT kesimini qurish hisoblanadi. Bu VSPCDP dasturida amalga oshiriladi. Ushbu dastur 1992 yilda A.A. Tabakaov boshchiligidagi qurilgan. Bu dastur tik seysmik profillash (VSP) ma'lumotlarini qayta ishslash uchun quduq tubi va undan chuqr muhitlarning yuqori sifatli sur'atlarini olishga mo'ljallangan.

Dasturlar asosida qayta ishslash punktlari quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Edit-Inc dasturi quduq inkloometriyasida ma'lumotlarni kiritadi yoki saralaydi. Bunda asosiy dasturlar paketi kengroq yoritiladi.

2. Edit-Exp dasturi maydonda joylashgan portlatuv punkti haqidagi ma'lumotlarni kiritadi yoki saralaydi. Portlatuv punkti koordinatalari to'g'ri burchakli dekart koordinatlar sistemasida bajariladi.

3. Edit-Vmd dasturi muhitning dastlabki seysmogeologik modelini kiritadi yoki saralaydi. Modelli muhitda qatlamlarning joylashishi, bo'ylama va ko'ndalang to'lqinlarning tarqalish tezligi, tezliklardagi anizotrop koeffitsiyentlari, jinslar zichligi haqidagi ma'lumotlar keltiriladi. Ushbu dastur ma'lumotlarni kiritish va saralashdan tashqari modelni tezlik qonuniyati bo'yicha namoyon qiladi. Bundan tashqari ikki o'lchamli vertikal kesimini ham olish mumkin.

4. Haqiqiy ma'lumotlarni tayyorlash. Ushbu jarayon umumiyl portlatish punktlari bo'yicha saralangan VSP-OGT materiallarini qayta ishlashni hisoblaydi. Haqiqiy materialarni tayyorlash jarayoni har bir portlatuv punktlaridagi VSP seysmogrammalarini alohida faylga yozish, trassalar to'plamini ketma-ket yaratish bilan tugaydi. Dastlabki qadamda standart sahifa bo'lishi kerak. Bu har bir fayllar uchun aloxida FORSTISM yoki FOVSP dasturida amalga oshiriladi. Shakllantirilgan seysmogrammalar bitta faylda SLIV dasturida ajratib olinadi. SLIV ishlari natijasida yagona fpyl hosil bo'ladi. So'ngra REFORMAT dasturidagi kiritilgan ma'lumotlar rejimiga o'tiladi. Ishlar natijasida kengaytirilgan IHT fayli hosil qilinadi. Bu keyingi qayta ishlash ishlari uchun dastlabki fayl hisoblanadi. Bundan so'ng funksional qayta ishlashga o'tiladi.

5. Make-Oht dasturi transformatsion maydonni qurish uchun mo'ljallangan. Bunda uch o'lchamli koordinatlar sistemasida seysmik trassalar bog'lanadi. So'ngra Make-Sum dasturida OGT yig'indi trassasi olinadi.

6. Portlatuv punkti va qabul punktlarinng joylashish koordinatalari topshirilgan muhit modeli va seysmik trassalar boshidan olinadi. Ularning quyi qismi Oz o'qini kesib o'tadi. Snellius qonuni bo'yicha har bir chegaralardan P(x, y, z) izlanadi. Bundan t(p) vaqt aniqlanadi. Bu bitta nuqtada bajariladi. Barcha transformatsiyalangan maydonni saqlash va hisoblashning iloji yo'q. Transformatsion maydonni hisoblash uchun muhit haqidagi ma'lumotlardan, portlatuv va qabul punktlarining joylashishi, vertikal o'q bo'yicha chegaralar kesishishining maksimal chuqurligi, to'lqinlar turi, kiritishda tanlangan seysmik trassalardan foydalaniлади.

7. Make-Sum dasturi uch o'lchamli muhitda qaytgan to'lqinlar amplitudasining taqsimlanishini olish uchun mo'ljallangan. Uni vizualizatsiyasida Draw-Trake dasturidan va transformatsion maydondan foydalaniлади. Ularning har biri aniq Tr(t) seysmik trassalarga mos keladi. Agar P(x,y,z) chiziqda yotuvchi balki qaytgan bo'lsa bir karrali qaytgan nurga mos kelsa Amp (x,y,z) signal nuqtasida formula bo'yicha hisoblangan qaytgan amplituda qo'yiladi.

8. Amp (x,y,z) = Tr [t(x,y,z)] (agar nuqta qaytishi mumkin bo'lgan yo'nalishda yotgan bo'lsa, unda u nulevoy amplituda deb qayd qilinadi) hollarida uch o'lchamli muhitda transformatsion maydonlarning barcha to'plamlari qaytgan to'lqinlarni yozish imkonini beradi. Har bir OGT aniq seysmik trassalari uchun amplitudalar to'plami mos keladi. Ushbu dastur asosida butun kubni qurib bo'lmaydi. Unda kubning boshqa ma'lumotlaridan, yon tomonlarining holatlari,

minimal va maksimal chuqurliklari (Z_{\min} va Z_{\max}), koordinatalari, kub qalinligi (dy), ulardagи kichik bo'laklardan (dz) foydalaniladi. Dastlabki trassalarini umumlashtirish PV ning istalgan to'plamlari uchun xos.

9. Sht-to-tht dasturi Make-Sum jarayonida qurilgan kub ma'lumotlarining chuqurlik mashtabidan vaqtli mashtabga o'tkazish uchun qo'llaniladi.

10. Vertikal Oz o'qi diskretnashgan Ot vaqt o'qida o'zgaradi. Bunda z chuqurlik bo'yicha vaqt hisoblab quriladi, avval bajarilgan muhit modelidan foydalanilgan holda qayta hisoblanadi. Agar muhit chegaralari gorizontal bo'lmas, unda t vaqt (x, y) nuqtalari koordinatalariga bog'liq. Dasturda ishslash uchun kub haqidagi chuqurlik mashtabi, muhit modeli, kubga (OGT trassalariga) mos keluvchi yuzaki nuqtalar koordinatalari, to'lqinlar turi, vaqt o'qi diskretizatsiyasi oralig'i haqidagi ma'lumotlar kerak bo'ladi.

11. Draw-Trace dasturi OGT trassalarini vaqtlar mashtabida, OGT trassalarini va dastlabki seysmik trassalarini chuqurlik mashtabida vizualizatsiya qilish uchun mo'ljallangan. Dastlabki to'lqinlar maydonini vizualizatsiya qilish alohida portlatuv punktlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ayrim mashtablar to'plami va har xil kuchlanishda ma'lumotlar ekranda ko'rildi yoki printerdan chiqariladi.

20-amaliy mashg'ulot.


Mavzu: Gradiyent va potensial zondlar, ularning turlari.

Extimoliy qarshilik va ularning oddiy geologik sharoitlardagi ko'rinishlari.

Solishtirma qarshilikni o'lhash uchun quduqqa zond tushiriladi. Zond bu bir bo'lak kabel bo'lib uning uzunligini ikki chetdagи elektrodlar orasidagi masofasidan 1-2 m uzunroq olinadi. Elektrodlar tomiri po'latdan iborat qo'rgoshin simdan tayyorlanib, uzunligi 20-30 sm.ni tashkil qiladi. Uchta elektrod kabelning xar bir tomiriga alohida-alohida ulanib, so'ngra qo'rgoshin simlar kabelga yonma-yon o'raladilar. Elektrodlarning atigi 1-2 o'ramigina ochiq qoldiriladi, qolganlari esa izolyatsion lenta bilan o'raladi. Shunday usulda nuqtaviy elektrodlar yasaladi. Nuqtaviy elektrodlar - bular kattaliklari elektrodlar orasidagi masofadan bir necha bor kichik elektrodlardir.

Elektrodlar bajaradigan vazifalariga binoan ikki turli bo'ladilar: tok yuboruvchi va o'lchovchi (qabul qiluvchi) elektrodlardir. Tok elektrodlari A, V, o'lchovchi elektrodlar M, N xarflari bilan belgilanadi. Shunday qilib A va V elektrodlari tok manba'iga ulanib quduqlarda elektr maydoni hosil qilinadi (1 rasm a,b).

Hosil qilingan sunniy elektr maydoni o'lchovchi (qabul qiluvchi) M va N elektrodlari orqali o'rganiladi. A va V tok



zanjirining elektrodlari, M va N o‘lchovchi zanjirning elektrodlari juft elektrodlar deb ataladilar. Odatda uch tomirli kabellar ishlatalganligi tufayli quduqqa bir tok elektrodi A va juft elektrodlar M va N tushiriladi (1- rasm a), yoki juft elektrodlar A va V hamda elektron M tushiriladi (1-rasm b). Zondlar tok elektrodlarining soniga qarab bir qutbli (bitta tok elektrodi 1 -rasm a) va ikki qutbli (ikkita tok elektrodi 1 - rasm b) bo‘lishadi.

Zondlar juft elektrodlar A va V, yoki M va N orasidagi masofa va A va M orasidagi masofa nisbatiga qarab ham ikki turga bo‘linishadi. Agarda:

AV(M N)(AM bo‘lsa bu zondlarni gradiyent zondlar deb ataladi.

AV(MN)(AM bo‘lsa, bunday zondni potensial zond deb ataladi. Zondlar elektrodlarning tartib bilan joylashishiga qarab ham ikki turga bo‘linadilar:

Agarda toq elektron yuqorida, juft elektrodlar esa pastda joylashgan bo‘lsalar, bularni ketma-ket zondlar deb atashadi. (1-rasm a)

Agarda juft elektrodlar yuqorida, toq elektron esa pastda joylashgan bo‘lsa, bunday zondlarni ag‘darilgan zond deb atashadi.(1 -rasm b)

Zondlarning yozuv nuqtalari bir - biriga yaqin joylashgan elektron o‘rtasida bo‘ladi va buni “O” deb belgilanadi.

Zondlarning uzunligi deb gradiyent zond uchun yozuv nuqtasidan tok elektrodgacha bo‘lgan masofa qabul qilinadi va uning “L” deb belgilanadi. Potensial zondlar uchun zond uzunligi L - bu A elektronidan M elektronigacha bo‘lgan masofadir. Simvolik ko‘rinishda zondlar yuqoridan pastga xarflar bilan belgilanib, xarflar orasiga elektrodlar orasidagi masofa m. da ko‘rsatiladi. Masalan: 1) V0.5A2.5M - bu zond ikki qutbli (chunki ikkita tok elektrodi bor), ag‘darilgan (chunki juft elektrodlar yuqorida), gradiyent (chunki juft elektrodlar A va V orasidagi masofa 0.5 m. kichkina A va M orasidagi masofa 2.5 m.dan). Shunday qilib ushbu zondning to‘liq nomi ag‘darilgan, ikki qutbli gradiyent zond. Zondning yozuv nuqtasi A va V elektrodlari o‘rtasiga joylashgan. Zondning uzunligi L esa yozuv nuqtasidan M gacha bo‘lgan masofa 2.75 m.. 2) A0.5M2.5 N - bu zond bir qutbli (chunki zonda bitta tok elektrodi), ketma-ket (chunki toq elektron A yuqorida joylashgan), potensial (chunki juft elektrodlar M va N orasidagi masofa 2.5 m. katta A va M orasidagi masofa 0.5 dan).Shunday qilib ushbu zondning to‘liq nomi ketma-ket, bir qutbli potensial zondir. Quyidagi 1-jadvalda zondlarning tasnifi (klassifikatsiyasi), sxematik ko‘rinishi, uzunligi ko‘rsatilgan.

Yana 1-rasm a ga qaytib, tog‘ jinslarining solishtirma qarshiliklarini o‘lchash prinsiplari bilan tanishamiz. Agarda zondlarimiz bir turdagи muhitda joylashgan bo‘lsa, ya’ni zondning qurshab turgan muhit bir hil solishtirma qarshilikka (o teng bo‘lsa, M nuqtasida A tok elektrodidan hosil bo‘lgan potensial (kuchlanish) teng bo‘ladi:

$$U_{MA} = \rho_o \cdot I / 4\pi \cdot R = \rho_o \cdot I / 4\pi \cdot AM \quad (1)$$

бу формулада I - A электродидан ўтаётган ток кучи, R - A электродидан M электродигача бўлган масофа. N - электродидаги ҳосил бўлган кучланиш:

$$U_{NA} = \rho_o \cdot I \cdot 4\pi \cdot R = \rho_o \cdot I / 4\pi \cdot AN \quad (2)$$

$$\begin{aligned} \text{Potensiallar ayirmasi } U_{mn} &= U_{MA} - U_{NA} = \rho_o \cdot I / 4\pi \cdot AM - \rho_o \cdot I / 4\pi \cdot AN = \\ &= \rho_o \cdot I / 4\pi \cdot (1 / AM - 1 / AN) = \rho_o \cdot I / 4\pi \cdot ((AN - AM) / AM \cdot AN) = \rho_o \cdot I / 4\pi \cdot (MN / AM \cdot AN) \end{aligned} \quad (3)$$

Oxirgi formuladan ρ_o ni aniqlash mumkin.

Eq larni juda ko‘p omillarga bog‘liqligi zondlarni tanlashda ayrim masalalarga e’tibor berishlikni talab qiladi;

1. quduq kesimlarida iloji boricha barcha qatlamlarni (har xil qalinlikdagi) ajratib berishi kerak;
2. qatlam qarshisidagi Eq larning qiymati qatlamning haqiqiy qarshiligidan ko‘p farq qilmasligi kerak.

Ushbu shartlar bir-biriga qarama - qarshi bo‘lib, ya’ni barcha qalinlikdagi qatlamlarni ajratish uchun kichkina uzunlikdagi zondlarni ishlatishimiz kerak. Bunda esa o‘lchanilayotgan Eq ga quduqning (quduq diametri va burg‘i qorishmasining solishtirma qarshiligi) katta ta’sir etadi va Eq qatlamning qarshiligidan ancha farq qiladi. Agarda katta uzunlikdagi zondlar ishlatilsa unda kichkina qalinlikdagi qatlamlarni ajratish qiyin bo‘ladi. Shuning uchun har bir xuddudda standart (optimal) zondlar tanlab olinadi. Bu zondlar iloji boricha ko‘proq qatlamlarni ajratish va o‘lchanilayotgan Eq qatlamning haqiqiy solishtirma qarshiligiga yaqin bo‘lishini ta’minlaydi. Odatda standart zondlar sifatida 0.4 - 0.5 m. potensial va 2.0 - 2.5 m. uzunlikdagi gradiyent zondlar qabul qilinadi. Respublikamizda bu zondlar:

A0.5M2.5N potensial va A2.5M0.5N gradiyent zondlardir.


Gradiyent zondlar				Potensial zondlar			
Bir qutbli		Ikki qutbli		Bir qutbli		Ikki qutbli	
Ag‘darilgan	Ketma - ket	Ag‘darilgan	Ketma - ket	Ag‘darilgan	Ketma - ket	Ag‘darilgan	Ketma - ket
N o	A	B o	M	N 	A o	B 	M o
M 		A 			M 		A
	M		B	M		A	
	o		o	o		o	
A	N	M	A	A	N	M	B
L=A0	L=A0	L=M0	L=M0	L=AM	L=AM	L=AM	L=AM

21-amaliy mashg’ulot.

Mavzu: Ekranlashtirilgan mikrozondlar.

MBK usuli yordamida quyidagi masalalar hal etiladi:

- 1) yuvilgan zona qarshiliginini aniqlash; 2) o‘tkazuvchan qatlamlarni ajratish; 3) qatlamlar qalinligini baholash, o‘tkazuvchan qatlamlar ichidagi zich — o‘tkazmas qatni ajratish; 4) yuvilgan zona qarshiligi qiymatidan foydalanib, kollektorlarning g‘ovakliliginini aniqlash va b. BKZ va MBK egri chiziqlarini taqqoslab, qatlamdagagi flyuidning harakatchanligini, qoldiq neftlilik koeffitsiyentni, hamda neft chiqarib olish koeffitsiyentni aniqlash mumkin.



Mikrozond turlari. O‘lchash prinsipi. Yechadigan vazifalari. Mikrogradiyent va mikropotensial

zondlar bilan ehtimoliy qarshilikni bir paytda yozish.

Mikrozondlar quduq kesimlarini mufassal o‘rganish uchun ishlatiladi. Shuning uchun ular quduqlarni faqat maxsuldar qatlamlari uchraydigan oraliqlarida, 1:200 mashtabida o‘tkaziladi. Mikrozond elektrodlari (1-rasm) izolyatsion materiallardan tashkil topgan boshmoqqa (1) o‘rnatilgandir. Boshmoq ressora (2) ga o‘rnatilgan bo‘lib, prujina (5) orqali quduq devoriga bevosita taqalib turadi.

Mikrozond elektrodlari doimo quduq devorlariga taqalib turadi. Mirozond elektrodlari orasidagi masofalar 0.025 m. ni tashkil etib, bulardan ikki turdag'i mikrogradiyent va mikropotensial zond yasash mumkin. Uchchala elektrodlardan A0.025M0.025N tashkil topgan zond - mikrogradiyent (MGZ) zond deb ataladi. MGZ ning yozuv nuqtasi M va N elektrodlari o‘rtasiga joylashgan bo‘lib, zond uzunligi esa ushbu nuqtadan A eletrodigacha bo‘lgan masofani, ya’ni $L=0.0375$ m. ni tashkil qiladi.

Mikropotensial (MPZ) zondni ikki chetdag'i elektrodlardan foydalanilib, ya’ni A0.05M deb olinganiga aytildi. MPZ ning uzunligi $L(0.05$ m. ni tashkil etadi va yozuv nuqtasi A va M elektrodlari o‘rtasiga joylashgan bo‘ladi.

E_q qarshiliklarni mikrozondlar bilan yozishda oddiy gradiyent yoki potensial zondlarni yozishda qo‘llanilgan usullar ishlatiladi va ρ_k ni $\rho_k = K \cdot \Delta U / I$ formulasi orqali topiladi. Formulada I - A va V elektrodlaridan o‘tgan tok kuchi, ΔU - M va N elektrodlari orasidagi potensiallar ayirmasi, K - mikrozond koeffitsiyenti, rezistvimeetrning koeffitsiyenti qanday topilgan bo‘lsa, mikrozond koeffitsiyenti ham shunday usulda topiladi. 5MZ-20 mikrozondlari uchun K ning pasport qiymati: 0.34 m. MGZ va 0.5 m. MPZ uchun.

Mikrozondlar, eond uzunliklarining kichkinaligi tufayli, kichkina qalinlikdagi (bir necha sm. qalinlikdagi) qatlam chegaralarini aniqlashda ishlatiladi. Mikrozondlarning asosiy vazifalaridan biri - quduq kesimlarida kollektorlarni ajratishdir. Kollektor qatlamga burg‘i qorishmasi filtratining singishi tufayli, ushbu qatlam qarshisida gil qoplama chasi paydo bo‘ladi. Bu qoplamaning qalinligi ayrim terrigen kollektorlarda 1-2 sm. ni tashkil etadi. Gil qoplamasining solishtirma qarshiligi esa ρ_{rk} deb belgilanadi va uning qiymati, burg‘i qorishmasi taylorlangan gillar solishtirma qarshiligiga bog‘liq va, odatda, kichkina bo‘ladi. Singish zonasining quduq devorlariga yaqin joyini to‘la yuvilgan zona tashkil etib, uning solishtirma qarshilagini ρ_{pp} deb qabul qilinadi. Mikrozondlar har xil uzunlikka va har xil o‘rganish radiusi (chuqurligi) egadir. MGZ ning o‘rganish radiusi $R_i^{MGZ} = 3-4$ sm., MPZ ning esa $R_i^{MPZ} = 10-12$ sm. ni tashkil etadi. Shuning uchun MGZ bilan yozilgan E_q ga elektrodlarga yaqin

joylashgan zona, ya’ni gil qoplamasining solishtirma qarshiligi ρ_{gk} asosan ta’sir o’tkazadi, MPZ bilan yozilgan ρ_k^{MPZ} ga esa ρ_{gk} bilan bir qatorda to‘la yuvilgan zonaning ρ_{pp} ning ham ta’siri bo‘ladi. Odatda $\rho_{rk} < \rho_{pp}$ bo‘lganligi tufayli mikrogradiyent zond bilan yozib olingan ρ_k^{MGZ} mikropotensial zond bilan yozilgan ρ_k^{MPZ} qiymatidan kichkina, ya’ni $\rho_k^{MPZ} < \rho_k^{MGZ}$ kuzatiladi.

Mikropotensial va mikrogradiyent diagrammalarini alohida va bir paytning o‘zida yozish mumkin. Kollektorlarni ajratish uchun faqatgina bir paytda yozib olingan diagrammalar ishlataladi, chunki ikkala zond diagrammalari E_q ni bir hil sharoitda yozib olinishi kerak. Alohida diagrammalar yozilganda mikrozondlar boshmoqlari va quduq devorlari orasidagi muhit qalinligi har xil bo‘ladi va shu sababli kollektorlarda kuzatiladigan ortirma, ya’ni $\rho_k^{MPZ} < \rho_k^{MGZ}$ bo‘lmasligi ham mumkin.

RP2-mikropotensial zond bilan E_q yozib oluvchi galvanometr; FCHV - Faza sezgir to‘g‘irlagich. Quduqdan kelayotgan MGZ va MPZ signallarini FCHV bir-biridan ajratib, so‘ngra ularni o‘zgarmas tokka to‘g‘irlab beradi. Diagrammalarni bir paytda yozishning avzalligi ikkala zond ham quduq devoriga bir sharoitda yotadi, elektrodlar va quduq devori orasidagi oraliq muhitning qalinligi ikkala zond uchun ham bir xil bo‘ladi. Bir paytda yozilgan diagrammalarda gil qoplamachasining zondlarga ta’siri yaqqol nomoyon bo‘ladi va shuning uchun, MPZ da yozilgan E_q MGZ da yozilgan E_q dan kattalagi terregn (qumtosh) kollektorlarni ajratishda qiyinchilik tug‘dirmaydi.

22-amaliy mashg’ulot.

Mavzu: Burg‘i qudug‘i kesimini o‘rganish bo‘yicha olingan geofizik ma’lumotlarni geologik izohlash.

Neft va gaz konlaridagi quduqlarni geologik xujjatlashtirishda karotaj ishlari o’tkazish va geofizik tadqiqotlar bajarish keng tarqalgan. Quduqlarda bajariladigan geofizik tadqiqotlari samarali bo‘lib, bunday metodlar yordamida quduq kesimining mahsuldor qismi bilan bir qatorda, quduq kesimida uchraydigan hamma tog‘ jinslari ham tadqiq qilinadi. Quduq kesimini kern olib o‘rganish juda mashaqqatli va iqtisodiy jihatdan samarasiz hisoblanadi, shunga ko‘ra karotaj yordamida olingan diagramma quduq tanasini to‘liq va uzluksiz tavsiflash imkonini beradi.

Geofizik metodlarni qo‘llash tadqiqotlar aniqligi va ishonchlilagini oshiradi, chunonchi: kesimda turli litologik tarkib va kollektorlik xususiyatlariga ega bo‘lgan va qatlarning mahsuldor qismidan tarkibi va xususiyatlariga ko‘ra keskin

farqlanadigan qatlamlarni hamda juda yupqa qatlarni ajratish mumkin. Natijada, konni ishlatish sistemasini, ya’ni qatlam bosimini saqlash maqsadida qatlamga suv haydash rejimini tanlashda mahsuldor gorizontlarning geologik tuzilishi to‘g‘risidagi juda muhim daliliy ma’lumotlar to‘planadi.

Karotaj diagrammasi quduqning yagona va asosiy xujjati bo‘lib, uning asosida quduqda keyinchalik bajariladigan geologiya qidiruv ishlari rejalashtiriladi.

Kon-geofizikasi tadqiqotlari natijasini geologik talqin qilish (izohlash) konchi - geolog ishining muhim qismi hisoblanadi, karotaj natijalaridan to‘g‘ri va mazmunli foydalanish quduqda nafaqat mahsuldor gorizontni ochish va sinashni to‘g‘ri tashkil qilishni, balki, ayrim quduqlarni ishlatish rejimini va konni ishlatish sharoitini aniq belgilash imkoniyatini ham yaratadi.

Karotaj diagrammasini izohlash orqali kon geologiyasiga taalluqli muhim masalalar hal qilinadi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) turli litologik tarkibga ega bo‘lgan qatlamlarning yotish chuqurligini va ular chegaralarini aniqlash;
- 2) tadqiqotlar olib borilayotgan quduq kesimidagi jinslarning litologik tarkibini aniqlash;
- 3) qatlam kesimida neft va gaz kollektorlarini ajratish;
- 4) qatlamni neft, gaz va suvga to‘yinganlik darajasini belgilash;
- 5) qatlamni kollektorlik xususiyatlarini — g‘ovakliligi, o‘tkazuvchanligi hamda neftga to‘yinganligini baholash.

Karotaj diagrammalarini izohlash metodlari elektron hisoblash mashinalaridan foydalanib ishlab chiqilgan. Ular vositasida geofizik o‘lchov natijalarini geologik talqin qilish tezligini va ishonchlilagini oshirish mumkin va o‘z navbatida bu metodning samaradorligi ham ortadi.

Hozirgi davrda quduqda bajariladigan geofizik tadqiqotlar metodlari majmuasi mavjud bo‘lib, ular amaliyotda keng qo‘llaniladi:

Standart elektr karotaj quduq tanasi bo‘ylab uch elektrodi karotaj zondi (**KS**) va quduqda o‘z-o‘zidan yuzaga keladigan tabiiy qutblanish (**PS**) metodlari yordamida jinslarning zohiriyligini o‘lchashga asoslangan. Karotaj diagrammasi yordamida geologik kesimlarni taqqoslash, stratigrafik gorizontlarni aniqlash va boshqa masalalarni hal qilish mumkin bo‘ladi.

Yonlama zondlash karotaji (**BKZ**) elektr karotaj usullaridan bo‘lib, quduq tanasi bo‘ylab harakatlanadigan turli uzunlikdagi (0,4 m dan 8,0 m gacha) karotaj zondlari majmuasi bilan jinslarning zohiriyligini solishtirma qarshilagini o‘lchashga

asoslangan. Odatda **BKZ** da bitta burg‘ snaryadiga o‘rnatilgan bir turdag'i, har xil uzunlikdagi bir nechta (5-7 xil uzunlikda bo‘lgan) elektr zondlari ishlataladi.

Uzunligi har xil bo‘lgan zondlar bilan o‘lchanib, turli radiusda o‘rganilgan karotaj diagrammalari olinadi. Diagrammalarda qatlamlarning chegaralari, jinslarning haqiqiy qarshiligi, burg‘ilash eritmasining shu qatlamlarga qanday chuqurlikda singiganani aniqlanadi. Ayrim hollarda **BKZ** materiallaridan o‘tkazuvchan qatlamlar (eritma zardobini qatlamga singigan joyi) va suyuqlik o‘tkazmaydigan qatlamlar, qatlam g‘ovakliligi koeffitsiyent, neft-suv tutash yuzasi sathlarini aniqlashda foydalaniladi.

Gamma-karotaj (GK) tog‘ jinslarining tabiiy radioaktivligini o‘rganadi. Quduqqa gamma karotaj radiometri tushiriladi. Uning tarkibiy qismini gamma-nurlarning indikator (hisoblagich)lari tashkil etadi.

GK usulining diagrammasi burg‘ilanayotgan quduqlarning kesimlarini taqqoslash, tog‘ jinslarining litologik tavsifini, gillilik koeffisiyentini aniqlash, radioaktivligi yuqori bo‘lgan jinslarni ajratish, kichik gamma aktiv jinslarni aniqlash va talqin qilishda fonni inobatga olishda qo‘llaniladi.

Neytron gamma-karotaj (NGK) radioaktiv karotajning bir turi bo‘lib, bunda quduqqa neytron manbali zond tushiriladi. Unga o‘rnatilgan (nurlanish indikatori yordamida atrof muhit bilan neytronlarning o‘zaro ta’siridan yuzaga kelgan) nurlanish shiddati aniqlanadi. NGK yordamida quduq bo‘ylab chizilgan egri chiziq orqali suvli qatlamlarning joylashishini hamda ular chegaralarini ajratish mumkin bo‘ladi.

Neytron karotaj (NK) radioaktiv karotaj turlaridan bo‘lib, quduq kesimidagi tog‘ jinslarini neytronlar bilan ta’sirlantirib, ularning atom yadrolaridan qayta sochilgan gamma-nurlar yoki neytronlar zichligini o‘lchash orqali ochiq va mustahkamlash quvurlari bilan jihozlangan quduqlardagi suv-neft va gaz-neft tutash yuzalar sathini aniqlash mumkin.

Akustik karotaj (AK) tovush va ultratovush diapozonli chastotada elastik to‘lqinlarning tavsiflab, tog‘ jinslarining akustik xususiyatlarini o‘rganishga asoslangan. AK burg‘i quduq apparati, to‘lqin tarqatgich va to‘lqin qabul qilgichdan iborat. Akustik karotajning tezlik, so‘nish va to‘lqin tasvirli turlari mavjud. AK ning tezlik uslubi yordamida kollektorlarning g‘ovaklilik koeffitsiyenti, so‘nish uslubi yordamida g‘ovakliligiga ko‘ra murakkab tuzilgan kollektoriarni, to‘lqin tasvirdagi uslub yordamida esa murakkab geologik kesimda joylashgan kollektoriarni o‘rganish mumkin.

Kavernomer (kavak o'lchagich) quduq diametrining uning tanasi bo'y lab o'zgarishini o'rghanadi. Kavak o'lchagich to'rtta dastakdan iborat bo'lib, maxsus o'rnatilgan prujinalar dastak uchini quduq devorlariga qisib unga doimo tegib turishini ta'minlaydi. Kavak o'lchagich quduq bo'y lab harakatlanganda dastaklar quduq diametrining o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlarni yer yuzasidagi karotaj stansiyasiga yuboradi. Natijada quduq diametrining chuqurlik bo'y lab o'zgarishini ko'rsatuvchi egri chiziq — kavernogramma chiziladi. Uning ma'lumotlaridan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- a) quduq devori bilan mustahkamlash quvuri oralig'idagi bo'shliqni sementlashga sarf bo'ladigan sement miqdorini hisoblashda;
- b) quduq ichidagi holatni baholashda;
- v) quduqning geologik kesimini aniqlashda;
- g) geofizik ma'lumotlarni taqqoslashda;
- d) quduqning texnik holatini nazorat qilishda;
- e) qatlamlarni sinashda paker qurilmalari va mustahkamlash quvurlari boshmog'i o'rnatiladigan joylarni tanlashda va boshqalarda.

Gaz karotaji (GK) quduq burg'ilash chog'ida gil eritmaga o'tuvchi uglevodorod gazlarining miqdorini aniqlashga asoslangan. Unga ko'ra gazga to'yingan qatlamlarni ajratish mumkin. Gil eritmadan gaz namunasini olishda gaz karotaji stansiyasining gatsizlantirgichidan foydalaniladi va gaz miqdori gaz aniqlagich yordamida aniqlanadi. Kern olib burg'ilashda GK kernda bajarilishi ham mumkin. GK diagrammasini tahlil qilishda unga ta'sir etuvchi omillarni (masalan, burg'ilash tezligi, gilli eritmalarining harakat tezligi, ularning sifati va b. xalaqit beruvchi jarayonlarni) xisobga olish zarur.

GK tadqiqotlari gil eritmadan olingan namunani lyuminessent-bituminologik tahlil va quduqni burg'ilash tezligini o'lchash ishlari bilan qo'shib olib boriladi.

Hozirgi davrda yuqorida qayd qilingan radioaktiv karotaj metodlardan tashqari gidrodinamik, impulsli neytron-neytron, induksion, magnit, mexanik va boshqa karotajlarning turlari ko'p bo'lib, burg' quduqlari kesimini o'rghanishda ulardan ham unumli foydalaniladi. Bunday karotaj metodlari kon geofizikasi fanida mufassal bayon etilgan. Shuningdek, quduqdagi tadqiqotlarni avtomatik ravishda bajaradigan sistemalar shakllanmoqda. Ular yordamida jinslarning geologik va geofizik parametrlarini burg'ilash jarayonida aniqlash hamda burg'ilash rejimini to'g'ri tanlash, burg'ilashni ishonchli boshqarish mumkin bo'lmoqda.

23-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Elektr va radio karotaj ishlarini izohlash.

Geofizik ma'lumotlarni geologik talqin qilish usuli. Karotaj diagrammalarini geologik talqin qilish natijasida burg'i quduq kesimida neftli, gazli qatlamlarni ajratish, ularning g'ovaklilik, o'tkazuvchanlik, uglevodorodga to'yinganlik koeffitsiyentlarini va b.ni aniqlash mumkin.

Karotaj diagrammalarini to'g'ri va ishonchli talqin qilish uchun karotaj metodlarining fizik asoslarini bilish lozim, bunday ma'lumotlar kon geofizikasi fanida keng beriladi. Shu sababli bu bobda burg' qudug'i ochgan tog' jinslarining litologik tarkibini qiyosiy aniqlash imkonini beruvchi karotaj diagrammalarini geologik talqin qilish asoslari bilan cheklanamiz.

Ma'lumki, burg'i qudug'ining geologik kesimi ikki yo'l bilan tuziladi. Birinchisida kesim burg'ilash chog'ida olingan jins namunalari va kern tavsifi asosida, ikkinchisida quduqda bajarilgan geofizik karotaj ishlari natijalariga qarab tuziladi. Kesimning aniqligi va ishonchliligi karotaj egri chiziqlari va jins namunalaridan aniqlangan litologik tarkib ma'lumotlarini o'zaro solishtirish va ularning bir-biriga qanchalik mos kelishiga qarab belgilanadi. Karotaj diagrammasiga asoslanib aniqlangan quduq kesimidagi jinslarning litologik tarkibining ishonchliligi maydonning geologik jihatdan qay darajada o'r ganilganligiga va geologik-geofizik sharoitlariga bog'liq.

Odatda bir tarkibli jinslardan (terrigen, karbonat) tuzilgan geologik kesimlardagi qatlamlarning litologik tarkibi karotaj egri chiziqlarida turli-tuman litologik tarkibli jinslardan tuzilgan qatlamlarnikiga nisbatan yaqqol ajralib turadi. Birinchi holda kesimdagi jinslarni litologik tarkibiga ko'ra ajratish uchun standart karotajdan foydalanish kifoya qilsa, ikkinchisida standart karotajdan tashqari kon-geofizikasi metodlari majmuidan ham foydalanish zarur bo'ladi.

Karotaj egri chizig'i ma'lumotlari yordamida kesimni qatlarga ajratish va litologik tarkibini aniqlashda ularga karotaj o'lchovlari o'tkazilayotgan sharoitlar ta'siri kuchli bo'ladi. Masalan, quduq sho'r burg'ilash eritmasi bilan to'ldirilgan bo'lsa, KS va PS egri chiziqlari biroz tekislanib qoladi, natijada olingan elektr karotaj ma'lumotlari kesimni ajratish uchun etarli bo'lmaydi, katta diametrli quduqlarda bajarilgan neytron gamma-karotaj egri chiziqlari kuchsiz taqsimlanganligidan ular asosida turli litologik tarkibli jinslarni ajratish qiyin kechadi.

Geologik jihatdan yaxshi o‘rganilgan rayonlarda, masalan, foydalanilayotgan konlar maydonlarida kesimni bir yoki ikki metod bilan bajarilgan karotaj egri chiziqlari yordamida o‘rganish kifoya qiladi, razvedka quduqlarida esa kesimdagi jinslarning litologik tarkibini aniqlash uchun ko‘p sonli karotaj metodlaridan foydalanish zarur bo‘ladi.

Ko‘pgina hollarda kesimdagi jinslar elektr karotaj diagrammalari asosida katta aniqlikda ajratiladi. Asosan standart karotajlardan zohiriylar qarshilik (KS), o‘z-o‘zidan tabiiy qutblanish (PS) metodlaridan foydalaniladi. Ulardan keyin yonlama zondlash karotaji va yonlama zondlash mikrokarotaji, so‘ngra radioaktiv karotajining turli metodlari, kavernomer diagrammalari va b. bajariladi. Quyida asosiy cho‘kindi jinslarning karotaj diagrammalari bo‘yicha aniqlangan tavsifi beriladi.

24-amaliy mashg’ulot.

Mavzu: Quduqlarni texnik holatini o‘rganishda qum-gilli jinslarni ajratish.

Quduqning geologik kesimi qum, qumtosh, alevrolit va gil jinslardan tarkib topgan bo‘lsa, uni o‘rganishda elektr karotaj diagrammasi ahamiyat kasb etadi.

Qum va qumtoshlar. Qum zarralari o‘lchami 2 mm dan 0,05 mm gacha o‘zgaradi. Zarralarning katta-kichikligiga ko‘ra yirik (2-1 mm), o‘rtacha — (1-0,5 mm), mayda — (0,5-0,25 mm), juda mayda (0,25-0,05 mm) qumlar bo‘ladi. Mineralogik tarkibiga ko‘ra kvarsli, arkoz, glaukonitli, temirli va ko‘p mineralli qumlar mavjud. *Qumtosh* sementlangan qum bo‘lib, asosan kalsiy, gips, gil, kvars, xaltsedon, opal, temir oksidi, bitum va boshqa moddalar bilan sementlanadi. Zarralar o‘lchamiga ko‘ra dag‘al, yirik, o‘rtacha va mayda zarrali xillardan iborat bo‘ladi. Odatda qum va qumtoshlarning elektr toki o‘tishiga qarshiligi ularning g‘ovakligining va zarralar orasidagi bo‘shliqlar strukturasining hamda g‘ovaklarni band qilgan suyuqliklar tuz miqdorining o‘zgarishiga ko‘ra katta chegarada o‘zgaradi.

Yer yuzasiga yaqin joylashgan, chuchuk va kam minerallashgan suvlar bilan to‘yingan qum qatlamlarining solishtirma qarshiligi yuqori bo‘lib,

odatda bir necha o'n va xatto yuz om-metrga etadi. Katta chuqurliklarda joylashgan qumtosh jinslar ko'pincha ko'p minerallashgan qatlam suvlariga to'yinganligidan ularning qarshiligi g'ovaklik miqdorining o'zgarishiga bog'liq holda om-metrning o'nli ulushidan bir necha om-metrgacha o'zgaradi.

Solishtirma qarshilikning past qiymatlari g'ovakligi yuqori jinslarga — qum va bo'shoq qumtoshlarga xos; g'ovakligi kam, nisbatan sementlangan qumtoshlar qarshiligi yuqori bo'lib, katta intervalda o'zgaradi, juda qattiq sementlanganlarining qarshiligi bo'shoq qumtoshlarnikiga nisbatan o'n va yuz marta yuqori. Neft va gazga tuyigan qumli jinslarning qarshiligi esa, ushbu gorizontga xos minerallashgan suvlar bilan to'yingan shunday jinslar qarshiligiga nisbatan bir necha barobar yuqori bo'ladi.

Demak, elektr karotaj diagrammalarida qum qatlamlarining zohiriy qarshiligi yuqori yoki past ko'rsatkichlarga ega bo'lishi mumkin. Chuchuk suvda tayyorlangan burg'ilash eritmasi zardobini quduq devoriga singishidan qumli qatlamlarning zohiriy qarshiligi ortadi. Gil jinslari aralashmalari va qatchalaridan holi qum va qumtosh jinslardagi qatlam suvlarining minerallashish darjasи burg'ilash eritmasinikidan yuqori bo'lganda ularda o'tkazilgan o'z-o'zidan qutblanish karotaji (PS) diagrammasida qarshilik egri chiziqlari qiymati eng kam-manfiy qiymatli tomonga og'adi, ya'ni minimumga yaqinlashadi. Buning aksi bo'lganda qum va qumtoshlarda PSning musbat anomaliyalari qayd qilinadi.

Agar burg'ilash eritmasi va qatlam suvlarining mineralashganligi bir xil bo'lsa, u holda yuza quduqlardagi suvli gorizontlar karotajida hamda sho'r burg'ilash eritmasi bilan to'ldirilgan chuqur quduqlar karotajida PS egri chiziqlari silliqlangan-tekislangan ko'rinish oladi, qum va qumtosh qatlamlar qarshisida anomaliyalar kuzatilmaydi. Tarkibida gil aralashmalari bo'lgan qum va qumtosh qatlamlarga PS egri chiziqlarining minimumi mos keladi; agarda gil aralashmalari miqdori ko'p bo'lsa, u holda PS diagrammalarida gilli qumlar va gilli qumtoshlarni ajratib bo'lmaydi.

Gil sement bilan sementlangan qumtosh jinslar PS karotaj egri chizig'ida kuchsiz qiyshayishlar kuzatiladi. Zich gilli qumtoshlarni PS diagrammasida ajratib bo'lmaydi. Neft va gazga to'yingan qumtoshlar PS egri chizig'ida xuddi suvli gorizontnikiga teng qiymatlarga ega bo'ladi.

Mikrozond diagrammalarida yuqori g'ovaklikka va o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan qum va qumtoshlarning zohiriy qarshiliklari past bo'lib, odatda burg'ilash eritmasi qarshiligidan 1,5-2 marta ko'p bo'ladi. Shuningdek, bunday jinslarda potensial-mikrozond bilan o'lchangan zohiriy qarshiliklar qiymati gradient-mikrozond bilan o'lchangan qiymatlardan yuqori bo'ladi, ya'ni ko'payish

doimo musbat tomonga bo‘ladi. Ayrim hollarda suvli qumtosh jinslar vertikal yo‘nalishda yuqori o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lsada, uning quyi qismiga burg‘ilash eritmasi zardobi shimplmaydi. Bunday vaqtida mikrozond diagrammalarida zohiriylar qarshiliklarning musbat qiymatining ortishi kuzatilmaydi, chunki gradient va potensial mikrozondlar bilan o‘lchangan qarshiliklar qiymati bir xil bo‘ladi.

Qum va bo‘shoq qumtoshlarda gradient-mikrozondlar bilan o‘lchangan zohiriylar qarshiliklar (KS) qiymati qatlammni to‘yintirib turgan suyuqliklar qarshiligiga, ya’ni qatlam suvlarining minerallashganlik darajasi va qatlammning neft-gazga to‘yinganligiga bog‘liq bo‘lmay, asosan gilli eritma zardobini quduq devoriga shimplgan zonasi va gilli qobiqning solishtirma qarshiliqi qiymati bilan belgilanadi. Mikrozondlar diagrammasida zinch tuzilgan, kam o‘tkazuvchan gilli qumlar va qumtoshlarning zohiriylar qarshiliqi qiymati yuqori g‘ovaklikka ega bo‘lgan, yaxshi o‘tkazuvchan jinslarnikiga qaraganda yuqori bo‘ladi.

Qumli jinslarning tabiiy radioaktivligi gil jinslar tabiiy radioaktivligiga nisbatan past. Shunga ko‘ra gamma-karotaj diagrammasida qum va qumtosh qatlamlarning ko‘rsatkichi ular bilan qavatlanadigan gil jinslarnikiga ko‘ra ancha kam bo‘ladi. Shu sababli gamma-karotaj egri chiziqlari yordamida qumli-gilli jinslar kesimida qum qatlamlarini ajratish qiyin kechmaydi.

Gilli qumlar va qumtoshlar qarshisida chizilgan egri chiziqlardan ularning tabiiy gamma-nurlanish qiymati toza qum jinslarnikiga nisbatan yuqoriligini ajratish oson; qum va qumtosh jinslarda gil aralashmalarining ko‘payishi ularning tabiiy radioaktivligining oshishiga olib keladi.

Ba’zan qum jinslarning yuqori radioaktivligi faqat gil aralashmalar miqdori bilan bog‘liq bo‘lmay, ularda uchraydigan qatlam suvlarining yuqori darajadagi radioaktivligidan ham kelib chiqadi. Gamma-karotaj diagrammalarida glaukonit, monatsit, kaliy-dala shpati qumlar va qumtoshlarning ko‘rsatkichlari doimo yuqori bo‘ladi. Bunday hollarda gil qatlamlar ichida joylashgan qum jinslarni gamma-karotaj diagrammasidan aniqlab bo‘lmaydi.

Neytron gamma-karotaj (NGK) yordamida aniqlangan neftli va suvli gorizontlarning tabiiy radioaktivlik ko‘rsatkichi past bo‘lsa, quruq, gazli qum qatlamlarning va zinch, g‘ovakligi kam qumtoshlarning ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ladi. Agar gazli qatlamlarga burg‘ilash eritmasi zardobi chuqurroq shimplgan bo‘lsa, NGK diagrammasida ularning ko‘rsatkichi xuddi neft va suvga to‘yingan yuqori g‘ovakli qum jinslarniki kabi past bo‘ladi. Kavernogramma diagrammalarida qumli jinslarda burg‘ilangan quduqlar diametri doloto diametriga nisbatan kichikroq bo‘ladi. Ba’zan, ayrim qum va bo‘shoq qumtosh qatlamlarda qazilgan quduqlar diametrining haqiqiysidan kattaroqligini diagrammalarda ko‘rish

mumkin. Gil va gilli slanetslar. Gil jinslarning solishtirma qarshiligi qum va qumtoshlarnikiga nisbatan tor doirada o‘zgaradi. Ularning maksimal qiymati kamdan-kam 15 Om·m dan yuqori, minimal qiymatlari 1-1,5 Om·m dan kam bo‘lmaydi, o‘rtacha qiymati esa 3,0-4,0 Om·m ga teng.

Qum-gilli kesimda, kichik chuqurlikda yotuvchi gil jinslarning qarshiligi odatda uning atrofida joylashgan qum jinslar qarshiligidan kam bo‘ladi. Katta chuqurlikda yotuvchi gil jinslarning solishtirma qarshiligi esa suvli qumlar va bo‘shoq qumtoshlarnikidan yuqori bo‘ladi. Bu hol chuqurlik oshgan sari gil jinslar zinchligining ularning ustida joylashgan jinslar og‘irligi ta’sirida oshishi bilan bog‘liq. Gil jinslarning solishtirma qarshiligi qiymati quduqdagi burg‘ilash eritmasi qarshiligiga yaqin (odatda 1-3 Om·m). Shu sababli gil qatlamlari qarshisida chiziladigan egri chiziqla qayd qilinadigan zohiriylar qarshiliklar qiymati haqiqiy qiymatdan deyarli farq qilmaydi. Argillitlar va gilli slanetslar zinch tuzilganligi sababli ularning zohiriylar qarshilik qiymati gil jinslarnikiga nisbatan ancha yuqori. Juda zinch tuzilgan gilli slanetslarning solishtirma qarshiligi bir necha o‘n Om-metrga etadi. Qumli va alevrolitli gil jinslarning elektr karotaji orqali aniqlangan solishtirma qarshiligi toza gil jinslarnikidan kam farqlanadi; gil jinslar tarkibida qumli va alevrolitli fraksiyalarning ishtiroki ularning g‘ovakliliginini pasaytiradi va oqibatda ularning qarshiligi toza gil jinslarnikiga nisbatan yuqori bo‘ladi.

PS diagrammalarida gil va gilli jinslar (gilli slanetslar, argillitlar va sh.k.) musbat tabiiy potensial qiymatlari bilan ajralib turadi, quduq o‘qiga nisbatan to‘g‘ri, parallel chiziqlar ko‘rinishida chiziladi. Gilli jinslar tarkibida qum va alevrolit fraksiyalar aralashmasining hamda karbonat ashylarning bo‘lishi PS egri chizig‘i qiyofasini o‘zgartira olmaydi, shunga ko‘ra qumli va alevrolitli gil jinslar egri chiziqlari toza gil jinslarnikidan farqlanmaydi. Gamma-karotaj diagrammalarida gil jinslar va gilli slanetslar yuqori ko‘rsatkichlari bilan ajralib turadi, shu sababli gamma-karotajdan quduq kesimida, ayniqsa mustahkamlash quvurlari tushirilgan quduqlarda gilli jinslarni ajratishda foydalaniлади.

Mikrozond diagrammalarida gil jinslar zohiriylar qarshilikning minimal qiymatlari bilan tavsiflanadi. Bunday holat quduq tanasidagi gilli qatlamlar qarshisida yuvilish natijasida kovaklar hosil bo‘lishi bilan bog‘liq. Shu sababli kavernogrammalarda quduq diametrini kattalashishiga qarab gilli qatlamlar yaxshi ajratiladi. *Alevrolitlarning* karotaj tavsifi yaxshi o‘rganilmagan. Ko‘pincha kern bo‘yicha aniqlangan alevrolit qatlamlari elektr karotaji diagrammalarida qumli qatlamlar sifatida ajratiladi, PS egri chiziqlarida quduq devoriga shamilgan suyuqliklar qarshiligiga bog‘liq holda minimum qiymatlari va solishtirma qarshiliklar qayd qilinadi. Gil aralashmalaridan xoli alevrolitlarda ushbu holat

kuzatiladi. Bunday alevrolitlar mikrozondlar, radioaktiv karotaji, yonlama zondlash karotaji, kavernogramma diagrammalarida qumtoshlardan kam farqlanadi. Gil aralashmalaridan xoli alevrolitlar quduq kesimida kam uchraydi, ko‘pincha gilli alevrolitlar ichida yupqa qatchalar ko‘rinishida qavatlanib keladi. Gilli alevrolitlarning karotaj tavsifi gil jinslarnikiga o‘xshashdir. PS egri chizig‘i deyarli o‘zgarishsiz, qiyshayishsiz chiziladi, gamma-karotaj egri chizig‘ida yuqori qiymatga ega bo‘ladi. Gilli alevrolitlar zichligi gil jinslar zichligidan yuqori bo‘lganligidan ularning zohiriy qarshiligi ham ancha ko‘pdir. Gilli alevrolitlarning o‘tkazuvchanligi yomon bo‘lganligi uchun mikrozond diagrammalarida ular qarshisida musbat o‘sishlar, mikrozondlar yordamida olingan zohiriy qarshilik diagrammalarida gil va qum qatlamlarinikiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar qayd qilinadi. NGK diagrammalarida gilli alevrolitlarning ko‘rsatkichlari suyuqlik bilan bir xil to‘yingan qum qatlamlar ko‘rsatkichlari bilan deyarli bir xildir. Gilli kollektorlarda vodorod miqdorining yuqori darajada bo‘lishi gil aralashmalari tarkibida kristallangan suvlarning bo‘lishidan darak beradi.

Gilli alevrolitlar qarshisida qayd qilingan kovak o‘lchagich egri chiziqlaridan quduq diametrini doloto diametridan sezilarli darajada o‘zgarmaganligini ko‘rish mumkin. Ko‘pincha kovak o‘lchagich egri chiziqlarida quduq diametrining kattalashganini ko‘ramiz, bu jarayon gilli alevrolitlarning qum va qumtosh jinslar bilan qavatlanganida kuzatiladi. Mikrozond ma’lumotlari asosida alevrolit va gil pachkalarini katta aniqlikda ajratish hamda ular ichida yaxshi kollektorlik xususiyatlariga ega bo‘lgan qum va qumtosh qatchalarni belgilash mumkin.

25-amaliy mashg’ulot.

Mavzu: Quduqlarni texnik holatini o‘rganishda karbonat jinslarni ajratish.

Karotaj diagrammalari yordamida karbonat jinslarni tabaqalash va ayniqsa ohaktosh va dolomitlarni ajratish qiyin kechadi.

Mergellar. Tarkibi ohak va loyqadan iborat jins. Uning tarkibida karbonatlardan kalsit va dolomit (40-60 foizgacha), gilli minerallardan esa montmorillonit, glaukonit, kaolinit, shuningdek, kvars, gips va temirli minerallar bo‘ladi. Rangi oq, pushti, sarg‘ish qizg‘ish, yashil. Mergel 10% li xlorid kislotada kuchli «qaynaydi». Unga kislota tomizilganda yuzasida dog‘ qoladi. Mergellarning solishtirma qarshiligi g‘ovakligiga va gillilik darajasiga bog‘liq holda katta intervalda o‘zgaradi. Mergellar g‘ovakligi gilli qumtoshlar va alevrolitlardan farqli o‘laroq chuqurlik oshgan sari o‘zgarmaydi. Buning asosiy sabablaridan biri mergel

tarkibidagi karbonat material jinsning mustahkam skeletini hosil qiladi va natijada yuqorida yotgan jinslardan bo‘ladigan bosim ta’sirida zichlashmaydi. Mergelning bo‘sh, yuqori g‘ovaklikka ega bo‘lgan turlarining solishtirma qarshiligi taxminan 5-7 Om·m ga teng, juda zich tuzilgan (masalan, Buxoro-Xiva neft-gazli regionida kellovey-oxford, neokom, alb va b. yaruslar) mergellarining zohiriyligi qarshiligi qiymati bir necha yuz Om·metrga etadi. Shu sababli mergelning zohiriyligi egori chiziqlarining ko‘rinishi turlicha bo‘ladi.

PS karotaji diagrammalarida mergellar xuddi gil jinslarniki kabi chiziladi, ya’ni gil jinsining nol chizig‘idan deyarli og‘maydi. Qarshiliklar diagrammasida oddiy zondlar yordamida chizilgan egori chiziqlarda zohiriyligi qarshilik qiymati yuqori bo‘lsa, gradient va potensial mikrozondlarida chizilgan egori chiziqlarda musbat orttirmalar uchramaydi.

Gamma-karotaj diagrammalarida mergellar ohaktosh va gil jinslar oralig‘idagi holatda bo‘ladi. Mergellarning tabiiy radioaktivligining o‘rtacha qiymati toza ohaktosh va qumtoshlarnikiga nisbatan yuqori, lekin gil jinslar, gilli alevrolit va argillitlarnikidan past bo‘ladi.

Neytron gamma-karotaj diagrammalarida mergellar boshqa gil jinslardek ajratiladi, masalan, gilli alevrolitlar va gilli qumtoshlarning ko‘rsatkichlari gil jinslarnikiga nisbatan yuqori bo‘lsa, zich ohaktosh va kuchli sementlangan qumtoshlarnikidan past bo‘ladi. Ayrim taqrifiyliklarga ko‘ra mergellarni karbonat sement bilan qotgan gil jinslar sifatida ham qarash mumkin. Zarralarni o‘zaro biriktirib turgan sement jinsni suv ta’sirida ko‘chishi va ivishdan saqlaydi, shu sababli mergel kavernogrammalarida quduq diametri doloto diametriga monand keladi. Faqat tarkibida gil fraksiyasi juda ko‘p bo‘lgan mergellarda quduq diametrini biroz kattalashgani seziladi. Ba’zan gil jinslari orasida uchraydigan qattiq, lekin mo‘rt mergel qatlarida quduq diametrida kattalashish kuzatiladi.

Ohaktoshlar va dolomitlar. Ohaktoshlar asosan kalsiy karbonatdan tarkib topgan zich, serg‘ovak, nozik kristall jinslar bo‘lib, tarkibidagi aralashmalarga ko‘ra kulrang, qora, qo‘ng‘ir yoki qizg‘ish tusli xillari uchraydi. Ular organik, kimyoviy va aralash yo‘l bilan hosil bo‘ladi. Ohaktosh dengiz, ko‘l va boshqa suvlarda erigan holdagi ohakning ma’lum sharoitlarda suv tubiga cho‘kishi natijasida ham paydo bo‘ladi. Dolomit asosan dolomit mineralidan tarkib topadi (95 foizdan ko‘p). Qum, gil, temir bitumi aralashmalari 3-5 foizgacha bo‘ladi. Dolomit tashqi ko‘rinishidan ohaktoshga o‘xhash bo‘lsada, unda organizmlarning qoldiqlari uchramaydi. Tuzilishi jihatidan ohaktoshlardan qattiq bo‘lib, zich qatlamlar hosil qiladi. Dolomitlar ba’zi ko‘llar tubida (masalan,

Balxashda) hozir ham paydo bo‘lmoqda. Ohaktosh va dolomitlarning geofizik tavsifi bir-biriga juda yaqin, shu sababli karotaj egri chiziqlarida bunday jinslar bir guruhga—karbonat jinslarga birlashtiriladi. Odadta, sho‘r suvlar bilan to‘yingan gilli va yuqori g‘ovaklikka ega bo‘lgan karbonat jinslar farqlanib, ularning qarshiligi past bo‘ladi.

Karbonat jinslarning qarshiligi terrigen jinslarnikidan yuqori bo‘lib, karotaj diagrammalarida terrigen jinslar orasida uchraydigan ohaktosh va dolomit qatlarining ko‘rsatkichlari ancha yuqori qiymatga ega. Kristallangan va kremniylashgan ohaktoshlar qarshiligi juda yuqori. Qarshilik miqdori bo‘sh, yuqori g‘ovakli, darzli, dolomitlashgan ohaktoshlarda hamda yuqori minerallashgan suvlarga to‘yingan chig‘anoqtosh va bo‘r yotqiziqlarida pasayadi. Tarkibida gil aralashmalari bo‘lgan zinch karbonat jinslarning solishtirma qarshiligi ham past bo‘ladi. PS karotaji egri chizig‘idagi anomaliyalar amplitudasi miqdori va ularning ishoralari (musbat yoki manfiy) karbonat jinslarning gillashganiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Gillilik oshgan sari PS egri chizig‘i amplitudasining og‘ishi kamayadi. Tarkibida gil fraksiyalar ko‘p bo‘lgan karbonat jinslar PS egri chizig‘ida gil jinslar kabi ajratiladi va musbat anomaliyaga ega bo‘ladi. Karbonat jinslar qarshisida chiziladigan PS egri chizig‘i qiyofasi yuqori qarshilikka ega bo‘lgan qatlar ta’sirida murakkablashishi mumkin. Qum-gilli yotqiziqlar ichida qavatlanadigan ohaktosh va dolomitlar mikrozond diagrammalarida yuqori zohiriylar qarshilikka ega bo‘ladilar.

Mikrozond diagrammalarida g‘ovakli, yaxshi o‘tkazuvchan ohaktosh va dolomitlar esa zinch tuzilgan, suyuqlikni o‘tkazmaydigan karbonat jinslarga nisbatan past zohiriylar qarshilikka ega bo‘ladi, egri chiziqlarda musbat ortirmalar qayd qilinadi. KS mikrozondi diagrammasida o‘zidan suv o‘tkazmaydigan hamda kovak va darzli ohaktosh va dolomitlar qarshisida chizilgan egri chiziqlar ilonizi, egri-bugri ko‘rinish oladi, yuqori qarshiliklar past qarshiliklar bilan almashlanib keladi.

Gamma-karotaj diagrammalarida tabiiy gamma-nurlanishning past qiymatlari gil aralashmalaridan xoli bo‘lgan ohaktosh va dolomitlarga to‘g‘ri keladi. Lekin, yuqori devon, quyi karbon davrlariga mansub gilli ohaktosh qatlamlarida (**Ustyurt va Buxoro-Xiva neft-gazli regionlari**) yuqori radioaktivlikka ega bo‘lgan qatlar uchraydi. A.V.Kirshin va b. (1998) ma’lumotiga ko‘ra № 6 Qorachelak qudug‘ida qalinligi 100 m dan ortiq bunday qatlamlar 4400-4500 va 3060-3120 m chuqurlikda ajratilgan. Ularda gil fraksiyalarini miqdori 30% va undan yuqori, radioaktivlik 20-12 mkr/soat, yuqori qovushqoqli neft yoki bitum mavjud. Xuddi shunday vaziyat №1 O‘rtatepa qudug‘ida ham kuzatiladi; yuqori gammali pachka 4240-4350 m chuqurlikda ochilgan.

Radioaktiv elementlar aralashgan karbonat jinslarning qarshilik ko'rsatkichlari gil va gilli slaneslarnikiga nisbatan bir necha marotaba yuqori bo'ladi. Bunday intervallar gil jinslari intervallaridan PS diagrammalarida yaqqol ajralib turadi. Neytron gamma-karotaj diagrammalarida odatda ohaktosh va dolomit qatlamlari yuqori ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi. Yuqori g'ovakli, kovakli neft va suvga to'yingan qatlamlarning gamma-nurlanish ko'rsatkichi suyuqlikni kam o'tkazuvchi, zinch karbonat jinslarnikiga nisbatan past bo'ladi. Bunday ko'rsatkichlar yordamida karbonat jinslardan iborat quduq kesimida kollektorlar ajratiladi. Odatda karbonat qatlamlar qarshisida chizilgan egri chiziqda NGK ko'rsatkichlari terrigen jinslarnikiga nisbatan yuqori bo'ladi, shu sababli qum-gilli jinslar ichidagi ohaktosh va dolomit qatlamlari diagrammalarda o'tkir uchli egri chiziqlar orqali ajratiladi.

Gilli ohaktoshlar va dolomitlar NGK diagrammalarida past ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi, ularni g'ovakli shunday jinslardan ajratish uchun gamma-karotaj yoki tabiiy potensiallar PS diagrammalari ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Ohaktosh va dolomit qatlamlari kavernogrammalarida quduq diametri deyarli o'zgarmaydi. Kuchli gillangan ohaktoshlarda quduq diametrining o'zgarishi — kattalashishi kamdan-kam kuzatiladi. Quduq diametri asosan kovak-darzli ohaktoshlarda biroz kattalashishi mumkin. Neft konlarida burg'ilangan quduqlardagi karbonat kollektorlar mufassal o'rganilganda diametrning quduq tanasiga gilli eritmaning shimalishidan hosil bo'lgan gilli qobiq hisobiga kichrayishi aniqlangan. Kavernogrammada quduq diametri kichrayishini belgilash orqali kesimdagagi karbonat jinslar ichidan o'tkazuvchan qatlarni ajratish mumkin bo'ladi.

26-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Quduqlarni texnik holatini o'rganishda bo'r jinslarni ajratish.

Ohaktoshlarning bir turi bo'lib, uning tarkibida ohakli suv o'tlari qoldiqlari (30-40 foiz) va organizmlar skeletining ohakli qoldiqlari (60-70 foiz) uchraydi. Bo'r 5% li xlorid kislotada kuchli «qaynab», undan karbonat gazi ajralib chiqadi. Rangi ko'proq oq, sarg'ish yoki yashil, qo'lga yuqadi. Bo'r fizik va kollektorlik xususiyatlariga ko'ra kuchsiz sementlangan jinslarga — qum, bo'sh qumtosh va alevrolitlarga yaqin. Yuqori g'ovakliligi hamda juda sho'r suvlarga to'yinganligi sababli solishtirma qarshiligi past bo'ladi, nisbiy qarshiligi qiymati 15-20 Om/m dan oshmaydi. Agar bo'r tarkibida gil aralashmalari uchramasa xuddi

yuqori g‘ovakli qumtosh kabi uning solishtirma qarshiligi PS egri chizig‘ida minimum tomon og‘adi.

Mikrozond diagrammalarida bo‘r yotqiziqlari zohiriy qarshiliklarning minimum qiymati bo‘yicha musbat orttirmalar hisobiga ajratiladi. Gamma-karotaj diagrammalarida bo‘r jinslariga eng past ko‘rsatkichlar mos keladi; gilli bo‘rlarda esa GK ko‘rsatkichlari ortadi.

Neytron gamma-karotaj diagrammalarida suyuqlik bilan to‘yingan bo‘r jinslari boshqa yuqori g‘ovakli jinslar kabi past qiymatlar bilan tavsiflanadi. Kavernogrammalarda esa bo‘r jinslaridagi quduqlar diametrining kichrayishi kuzatiladi, kichrayish quduq devorlariga eritma zardobini singishidan hosil bo‘lgan gilli qobiq hisobiga yuzaga keladi.

Gidrokimyoviy cho‘kindilar. Ular eritmalardagi kimyoviy moddalarning cho‘kishidan hosil bo‘ladi. Bunday jarayon dengiz va okean suvlarida, qurib borayotgan suv havzalarida, sho‘r suvli buloqlarda kuzatiladi. Gidrokimyoviy tog‘ jinslariga toshtuz, gips va angidritlar kiradi. Ularning suvda erishidan g‘ovaklar, bo‘shliqlar va darzlar hosil bo‘ladi. Gips va angidrit bug‘lanish kuchli bo‘lgan va suvi oqib chiqib ketmaydigan dengiz qo‘ltiqlarida tuzlarning cho‘kishidan hosil bo‘ladi. Ular toshtuz bilan birga yoki alohida qatlamlar holida, ba’zan gil va qumtoshlar orasida uchraydi. Toshtuz jinslari sho‘r ko‘llar va dengiz qo‘ltiqlaridagi yotqiziqlar orasida hosil bo‘lib, uning rangi tarkib topish sharoitiga va tarkibidagi turli aralashmalarga qarab oq, sariq, qizil, havorang bo‘ladi. Suvda oson eriydi. Asosan u galit (NaCl) mineralidan tashkil topgan.

Angidrit, gips va toshtuz cho‘kindi jinslar ichida eng yuqori qarshilikka ega. Gidrokimyoviy cho‘kindilarning elektr o‘tkazuvchanligi tuz eritmalari yoki gilli ashyo aralashmalari bilan to‘lgan darzliklar hisobiga sodir bo‘ladi.

Gidrokimyoviy jinslarning toza xillari juda yuqori qarshilik ko‘rsatadi, zohiriy qarshiliklar qiymati asosan quduqni to‘ldirib turuvchi eritma va uning diametriga bog‘liq holda o‘zgaradi. Shunga ko‘ra, toshtuz va kaliy tuzlari quduqlarda suv ta’sirida eriydi, natijada quduq diametri kattalashadi, zohiriy qarshilik qiymati esa kamayadi.

Tabiiy potensiallar karotaji bo‘yicha olingan qiymatlar bunday jinslarda barqaror bo‘lolmaydi. PS bo‘yicha gidrokimyoviy jinslar tavsifining beqarorligi ularning qarshilik qiymatini nihoyatda yuqoriligidandir. Gidrokimyoviy jinslar qatlamlari elektr zanjiriga ulangan izolyator vazifasini o‘taydi. Gidrokimyoviy yotqiziqlar qarshisida qayd qilingan PS egri chizig‘i ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi elektrod potensiallarining o‘zgarishi bilan bog‘liq

bo‘lib, jinslarning litologik tarkibi to‘g‘risida ma’lumot beraolmaydi. Shunga ko‘ra gidrokimyoviy jinslar qarshisida chizilgan PS diagrammasi ko‘pincha noaniq to‘lqinsimon egri chiziqlardan iborat bo‘ladi.

Mikrozond diagrammalarida gidrokimyoviy yotqiziqlar yuqori zohiriy qarshiliklar namoyon etadi. Suvda erimaydigan angidrit, gips jinslari ichidagi toshtuz qatlami mikrozond diagrammasida past zohiriy qarshilikka ega bo‘lgan interval sifatida ajratiladi. Qarshilikning kamligi tuzning suvda eruvchanligi va quduq diametrining kattalashishi bilan bog‘liq.

Cho‘kindi jinslar orasida gips, angidrit va toshtuz (galit) juda past radioaktivlikka ega. Shu sababli gamma-karotaj diagrammalarida gidrokimyoviy yotqiziqlar eng past ko‘rsatkichlar namoyon etadi. Gamma-karotaj diagrammalarida kalyt tuzlari (silvin) yuqori radioaktivlik bilan tavsiflanadi, buning asosiy sabablariga uning tarkibida kaliyning radioaktiv izotopining borligidir.

Neytron gamma-karotaj diagrammalarida gidrokimyoviy cho‘kindilar qayd qilingan gamma- nurlanish jadalligi qiymati bilan ajralib turadi. NGK diagrammalarida anomal yuqori ko‘rsatkichlar toshtuzi qatlamlari qalinligiga to‘g‘ri keladi. Xlor atomlari neytron yadroasi bilan qamrab olinganda gamma-nurlanish shiddatli va katta energiya ta’sirida sodir bo‘ladi. Quduq diametri namlikda tuzlarning erishi hisobiga kattalashganda (40 sm dan ko‘p bo‘lganda) NGK ko‘rsatkichlari toshtuz qatlamlari qarshisida kichik qiymatga ega bo‘ladi. Agar quduqqa mustahkamlash quvurlari tushirilgan, quvur orti bo‘shlig‘i sement bilan to‘ldirilgan bo‘lsa, u holda bunday quduqlarda bajarilgan NGK diagrammalarida toshtuz qatlami past ko‘rsatkichlarga ega bo‘ladi. Bunday hollarda quduq diametrining kattaligi hisobiga toshtuzning NGK ko‘rsatkichlariga ta’siri juda oz bo‘ladi, shu sababli NGK ko‘rsatkichlari yuqori g‘ovaklikka ega bo‘lgan sement halqaning neytronli xususiyatlari bilan aniqlanadi.

Karbonat jinslar qarshisida chizilgan egri chiziqlarda angidrit qatlamlari yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ladi. Gil aralashmalar va darzliklar angidritning NGK ko‘rsatkichlarini pasaytiradi. Gips tarkibida kristallashgan suv bo‘lganligi tufayli NGK diagrammalaridagi ko‘rsatkichi minimal qiymatga ega; gamma-nurlanish jadalligi karbonat, qumli va yuvilmagan gil jinslarnikidan doimo kam bo‘ladi. Shu sababli, zich tuzilgan va gipslashgan jinslar — ohaktoshlar, dolomitlar, angidritlar va b. NGK diagrammalarida ko‘rsatkichlar doimo past bo‘ladi. Bunday holat ularni kollektor sifatida ajratishda chalkashliklarga olib keladi.

Kaliy tuzlari NGK diagrammalarida mineralogik tarkibiga ko‘ra turlicha ifodalanadi. Masalan, tarkibida ko‘p miqdorda kristallizatsion bog‘liq suv bo‘lgan karnallitlar ko‘rsatkichi minimumga yaqin bo‘lsa, xuddi shunday xususiyatlarga ega bo‘lgan silvinitlar ko‘rsatkichi toshuzniki kabi maksimumga yaqin.

Xemogen jinslar suvda yaxshi eriydi (toshtuz va kaliy tuzlari bundan mustasno). Quduq diametri doloto diametriga mos kelganda kavernogrammalarda ularning ko‘rsatkichi yuqori, quduq diametri tuzlarning suvda erishi hisobiga dolotonikidan katta bo‘lganda ko‘rsatkich past bo‘ladi. Toshtuz va kaliy tuzlarini kavernogrammalarda quduq diametri qiymatining deyarli o‘zgarmasligini hisobga olgan holda aniq ajratish mumkin.

Magmatik va metamorfik jinslar. Bunday jinslarning karotaj tavsiflari aniq belgilanmagan. Magmatik jinslarning zohiriyligi bir necha yuz Om·metrga etishi mumkin. Lekin, poydevor (nurash po‘sti)ning eng yuqori qismidagi maydalangan, parchalangan jinslarning zohiriyligi qarshiligi qiymati bo‘sh oqqumli jinslarnikiga yaqin bo‘ladi.

Tabiiy potensiallar (PS) diagrammasida magmatik va metamorfik jinslar anomaliya qiymatlari bilan ajralib turadi. Radioaktiv karotaj egri chiziqlarida otqindi jinslar gil jinslarnikiga nisbatan past ko‘rsatkichlarga, NGK egri chizig‘ida esa yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ladi. Nurash zonasi NGK diagrammalarida past qiymatlar bilan tavsiflanadi.

27-amaliy mashg‘ulot.

Mavzu: Neft-gazli va gazli qatlamlarni ajratish.

Quduq kesimida neftli va gazli qatlamlarni ajratish va ularning neft-gazga to‘yinganligini baholashda, geofizik, geokimyoviy va geologik tadqiqot ma’lumotlaridan foydalilaniladi. Jinslarning neft va gazga to‘yinganligini miqdoriy baholash qarshiliklar metodi yordamida bajarilgan geofizik tadqiqotlar orqali amalga oshiriladi. Neft va gazli qatlamlarning solishtirma qarshiligi jinslarning g‘ovakliligiga, g‘ovak bo‘shlig‘i strukturasiga, undagi neft, gaz va suvlarning foiz miqdoriga, qatlam suvlaringin minerallashganligiga va b. bog‘liq.

Bir xil sharoitda joylashgan neft va gazli jinslarning solishtirma qarshiligi jinsni to‘yintirib turgan suvning solishtirma qarshiligidagi to‘g‘ri mutanosibdir. Shu sababli, neft va gazli qatlamning solishtirma qarshiligi jinsning neft va gazga to‘yinganlik darajasini ifodalay olmaydi. Neft va gazga turli darajada to‘yingan jinslarning qarshiligi neft va gazga bir xilda to‘yinganlaridan farq qiladi.

Shunga ko'ra neftli va gazli jinslarni ajratishda solishtirma qarshilik o'rniga g'ovaklari neft yoki gaz va qoldiq suv bilan to'lgan qatlamning solishtirma qarshiligi qiymatidan foydalanish mumkin. Bunda qatlamning g'ovaklari ma'lum harorat va sho'rlikdagi suvlarga 100 foiz to'lgandagi qarshiligi hisobga olinadi. Neft va gazli jinslarning solishtirma qarshiligini ularning g'ovaklari sho'r suvga to'liq to'lgandagi qarshilikka nisbati *qarshilik ortishi koeffitsiyent* deb atalib, u suvli kollektorning g'ovaklari neft yoki gazga qisman to'yinganda ularning solishtirma qarshiligi necha marta ortishini ko'rsatadi.

Qarshilik ortishi koeffitsiyent miqdoriga ko'ra qatlamni neft va gazga to'yinish koeffitsiyentni aniqlash mumkin. Qatlam qarshiligining ortish koeffitsiyent jinslarning neft va gazga to'yinish darajasiga, jinsda suv, neft va gazning taqsimlanish xarakteriga, g'ovak va bo'shliqlar strukturasiga, jinslarning litologik-petrografik xossalariiga va qatlamdagi suyuqlikning fizik-kimyoviy xususiyatlariga bog'liq.

Odatda, qatlamning qarshilik ortishi koeffitsiyentni baholashda suvli qatlamning solishtirma qarshiligini ehtimoliy qiymatidan foydalaniladi. Bunday qiymatlar suvga to'yingan namunalarning laboratoriya sharoitida o'lchangan solishtirma qarshiligining taqsimlanishini ifodalovchi egri chiziqlaridan yoki konning chegara tashqarisidagi qatlamlarni yonlama zondlash karotaji o'tkazib olingen ma'lumotlaridan foydalanib aniqlanadi.

N.A.Perkov ma'lumotiga ko'ra, Saratov shahri yaqinidagi Volga bo'yi konidagi devon davriga tegishli suvli qumtoshlarning qarshilik qiymati $0,7 \text{ Om} \cdot \text{m}$. Bu miqdor Volga-Ural neft provinsiyasida joylashgan Tuymazin, Shkapova, Romashkin neft konlaridagi hamda Muxana ko'mir konidagi devon davri qumtoshlari qarshiligiga ham xos. Jinslarning kollektorlik xususiyatlariga ko'ra neftli qatlamlardagi suv miqdori katta intervalda o'zgarishi mumkin, shunga ko'ra neftli qatlamlarning qarshiligi 1-2 dan yuzgacha va hatto bir necha ming om-metrgacha o'zgaradi. Har bir rayon uchun qatlamning neftga to'yinishini minimal qiymati aniqlanadi, bu qiymat qatlamning sanoat miqyosida neft-gazlilagini bildiradi. Tarkibida gil fraksiyalari kam bo'lgan ko'pgina kollektorlarning ushbu chegaraviy qiymati qarshilik ortishi koeffitsiyentga mos bo'lib, u taxminan 5 ga teng. Tarkibida gil fraksiyalari ko'p bo'lgan kollektorlarning qarshilik ortishi koeffitsiyent qiymati 1,5-2 bo'lganda toza neft bera oladi. Masalan, Buxoro-Xiva neft-gazli regionida o'rta yura davrida hosil bo'lgan qumtosh gorizontlar neftli hisoblanadi. Bunday jinslarning qarshilik ortishi koeffitsiyent 10 dan yuqori bo'lib, ushbu rayondagi qatlamlarning solishtirma qarshiligi 10 $\text{Om} \cdot \text{m}$ qiymatiga mos keladi. Agar qumtoshlar suvga to'yingan bo'lsa, qatlamning solishtirma qarshiligi 3 $\text{Om} \cdot \text{m}$ dan kichik bo'ladi. Qarshiligi

3-10 Om·m bo‘lgan qatlamlar uyumni ishlatish chog‘ida ham neft, ham suv berishi mumkin.

Qatlamning neftliligi va gazliligi amaliyotda qarshilik ortishi koeffitsiyent qiymati bilan quduqni sinash natijalarini taqqoslash orqali aniqlanadi. Shunday yo‘l bilan topilgan miqdorlar qatlamning neft-gazliligini baholashda zarur bo‘ladi.

Karbonat qatlamlarning neft-gazliligini aniqlash juda murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Ma’lumki, ohaktoshlarning g‘ovaklilik qiymatini tez o‘rganuvchanligi va g‘ovaklar strukturasining bir-biridan keskin farqlanishi ularning solishtirma qarshiligin katta chegarada o‘zgarishiga sabab bo‘ladi, shu sababli ko‘pincha qatlamning qarshilik ortishi koeffitsiyentni aniqlash imkonni bo‘lmaydi. Odatda karbonat kollektorlarning neft-gazliligini baholashda qatlamni sinash natijalarini ularning solishtirma qarshiligi yoki qarshilik ortishi koeffitsiyent qiymatlari bilan taqqoslashdan olingan dalillardan foydalaniladi. Masalan, Buxoro-Xiva neft-gazli regionidagi SHo‘rchi neft-gaz konida yuqori yura davri ohaktoshlari sinab ko‘rilganda neftli gorizont qarshiligi 80 Om·m atrofida bo‘lgan bo‘lsa, suvgaga to‘yingan ohaktoshlarning solishtirma qarshiligi birmuncha past ko‘rsatkichlarga ega, faqat ayrim holatlardagina 100 Om·m gacha ortganligi kuzatiladi.

Odatda karbonat kollektorlarning neftlilagini elektr karotaj dalillari asosida aniqlashda neytron gamma-karotaj ko‘rsatkichlari hisobga olinadi. NGK diagrammalarida qayd qilingan gamma-nurlanishning past ko‘rsatkichlari qatlamning yuqori darajada neftga to‘yinganligini ko‘rsatadi, jinslarning elektr toki o‘tishiga qarshiligi KS diagrammasida esa bu holat yuqori ko‘rsatkichlar bilan izohlanadi. Demak, kollektor g‘ovakligi yuqori darajada bo‘lsa, uning neftga to‘yinshi ham yuqori bo‘ladi. Ko‘pincha qatlam neftliligini aniqlashda empirik qoidalarga ham amal qilinadi, ya’ni NGK egri chizig‘ining minimum qiymati KS egri chizig‘ining maksimum qiymatiga mos kelganda qatlam neftli hisoblanadi.

Qatlamning elektr karotaji ma’lumotlari asosida aniqlangan solishtirma qarshiligi asosan kollektorning suvgaga to‘yinganligiga bog‘liq. Bunda qatlamning neftga va gazga to‘yinganligi ko‘p ahamiyat kasb etmaydi, shu sababli solishtirma qarshilik qiymatiga ko‘ra gazli qatlamni neftli qatlamdan ajratish qiyin kechadi. Odatda gazli qatlamlarni ajratishda elektr karotaj hamda neytron gamma-karotaj ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. Gazli gorizontlarni NGK dalillari asosida ajratishda ulardagi vodorod atomlarining solishtirma miqdori g‘ovaklari neft yoki suv bilan to‘lgan gorizontlarnikiga nisbatan ancha kamligi hisobga olinadi.

NGK diagrammalarida gazli qatlamlar ko'rsatkichlari xuddi g'ovakligi kam qumtosh va ohaktosh jinslarniki kabi yuqori bo'ladi. Agar burg'ilash eritmasi zardobi gazli qatlam ichiga chuqur singigan bo'lsa, karotaj egri chizig'ida bunday ko'rsatkichlar kuzatilmaydi. Bunday hollarda gaz eritma zardobi bilan qatlam ichi tomon siqib boriladi, shu sababli singish zonasidagi vodorod miqdori suyuqlikka to'yingan qatlamdagi vodorod miqdoridan farq qilmaydi. Bunday holatlar g'ovakligi kam, darzli karbonat kollektorlarni o'rganishda tez-tez kuzatiladi, burg'ilash eritmasi zardobi bilan birga gazning singishi chuqur bo'lib, ba'zan NGK tadqiqot radiusidan ortib ketadi. Gaz qatlamlari NGK diagrammalarida suvli yoki neftli qatlar sifatida ajratilishi ham mumkin. Bunday hol qatlam bosimi kritik bosimdan yuqori va gaz qatlamda suyuq holatda bo'lganda kuzatiladi. Lekin, ayrim hollardagina (qatlam temperaturasi past va gaz tarkibida og'ir uglevodorodlar miqdori yuqori bo'lganda) qatlam sharoitida gaz suyuq holatda bo'lishi mumkin.

Ushbu masalalar «Kon geofizikasi» fanida mufassal bayon qilingan.

Quduq karotajining boshqa metodlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) Gaz karotaji — burg'ilanayotgan quduq kesimida gazga to'yingan gorizontlarni ajratish, ularning yotish chuqurligi va qalinligini aniqlash hamda ajratilgan qatlamlarning neft-gazga to'yinganligini sanoat miqyosida baholash;
- 2) Mexanik karotaj — boshqa karotaj metodlari majmui bilan birgalikda quduq kesimida juda qattiq, qattiq va bo'sh jinslarni ajratish imkonini beradi;
- 3) Fotokarotaj — jinslarning litologik tarkibini aniqlash va baholash maqsadida quduq devorini suratga olish;
- 4) Akustik karotaj — litologik tarkibni aniqlashtirish, ularning g'ovakliligini o'rganish, kollektorlarni suyuqlikka to'yinish xarakterini baholash uchun o'tkaziladi;
- 5) Kavernometriya — quduq diametrini, jinslarning litologik tarkibini o'rganish va turli texnik masalalarni xal qilish, quduqni sementlash va sinash ishlarini belgilash;
- 6) Termokarotaj — quduq kesimida gazli qatlamni ajratish va quduqqa suv haydalganda u yutiladigan zonani aniqlash maqsadida bajariladi. Bunday tashqari yer qobig'ini temperaturasini o'zgarish gradientini o'lchaydi.

28-amaliy mashg'ulot.
Mavzu: Gaz korataji va uni izohlash.

Quduq burg‘ilash chog‘ida gaz-neftli qatlam ochilganda suvli gil eritmaga gazsimon va suyuq uglevodorodlarning o‘tishini o‘rganishga asoslangan. Quduqdan chiqayotgan gil eritmadan vaqt-vaqt bilan yoki uzlusiz ravishda namuna olib, uning tarkibidagi gazsimon va suyuq uglevodorodlar miqdori aniqlanadi, eritma tarkibidagi yonuvchi gazlar miqdori ma’lumotidan gaz karotaji egri chizig‘ini chizishda foydalaniladi. Bunda ordinata o‘qiga qabul qilingan masshtabda quduq chuqurligi, absisissa o‘qiga gil eritmadagi gaz miqdori metanga nisbatan foizda qo‘yiladi.

Gaz karotaji Sobiq Ittifoqda 1963 yili birinchi bo‘lib M.V. Abramovich va V.A. Sokolovlar tomonidan ishlab chiqilgan va Apsheron rayonidagi Karachuxur konida sinovdan o‘tkazilgan. Hozirgi vaqtida gaz karotaji jinslarning gaz-neftlilagini boshqa usullar bilan aniqlash mumin bo‘lmaganda ishlatiladi.

Gaz karotaji natijasiga ko‘ra gazga to‘yingan qatlamlarni ajratish mumkin. Gil eritmadan gaz namunasini olishda gaz karotaji stansiyasining gatsizlantirgichidan foydalaniladi va gaz miqdori gaz aniqlagich yordamida aniqlanadi. Kern olib burg‘ilashda gaz karotaji kernda bajarilishi ham mumkin. Gaz karotajini o‘tkazishda og‘ir uglevodorodlar miqdorini uglevodorodli gazlarning umumiyligi miqdoridan ajratilgan holda aniqlash zarur, chunki neftli qatlamlarda og‘ir uglevodorodlar ko‘p uchraydi.

Gaz karotajini o‘tkazish natijasida egri chiziq chiziladi, unda quduqni burg‘ilash chog‘ida gil eritma qo‘shilgan uglevodorod gazlarining nisbiy miqdori o‘z ifodasini topadi. Gaz karotaji uzlusiz o‘tkazilganda ikkita egri chiziq yoziladi, ulardan biri uglevodorod gazlarining umumiyligi miqdorini, ikkinchisi — og‘ir uglevodorod gazlar miqdorini ko‘rsatadi. Gaz karotaj egri chizig‘i tarkibida gaz va neft bo‘lgan qatlamlar yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ladi. Neftli qatlamlar toza gazli qatlamlardan farqli o‘laroq gil eritmalarga o‘zidan ko‘proq yonuvchi gazlarni o‘tkazadi. Gaz karotajida qayd qilingan gazning nisbiy miqdori asosan gil eritmasidan olingan namunaning chuqurligiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Katta chuqurlikdan chiqib kelayotgan gil eritmadan olingan namunaning tadqiqi gaz karotaji egri chizig‘ida fon qiymatni namoyon etishi mumkin, lekin yuqorida joylashgan qatlamlardan gil eritmaga qo‘shilayotgan gazlar miqdori juda oz miqdorda bo‘lganligidan ular gaz karotaji egri chizig‘ida qayd qilinmay qolishi ham mumkin. Gaz karotaji diagrammasini to‘laqonli talqin qilish uchun gil eritmasi lyuminessent tahlildan o‘tkaziladi. Bunda toza gaz uyumlari lyuminessensiyalanmasligi (gaz sovuq holda nur sochmasligi) mumkin. Neft uyumlari mavjud bo‘lganda gil eritmalari namunasida uglevodorod gazlari miqdori oshadi va undagi gazlar lyuminessensiyalanadi. Neftga to‘yinish past yoki

tarkibida og‘ir neft bo‘lgan intervallardan olingan gil eritmalar namunalarida uglevodorod gazlar miqdori kam bo‘lsa, ular lyuminessentlanadi (nur sochadi).

29-amaliy mashg‘ulot.

Mavzu: Mexanik korataj va uni izohlash.

Burg‘ilanayotgan jinslarni dolotalarning emirilish xususiyatiga ko‘ra o‘rganish murakkab ishlardan biri deb hisoblanadi. Dolotoning emirilish shakli va xususiyatiga qarab qanday tog‘ jinslari burg‘ilanayotganligini taxminan bilish mumkin. Masalan, gil jinslarni yoki bo‘s sh qumlarni burg‘ilashda doloto kam emiriladi, zich va qattiq jinslarda esa emirilish kuchli bo‘ladi. Ohaktoshlar va ohakli qumtoshlar dolotoni o‘tmas (arra) qilib qo‘yadi. Gil jinslarda u o‘tmas bo‘lib qoladi, jinslarning kesuvchi tishlari yumaloq shakl oladi (masalan, RX dolotosi). Zich qumtoshlarda doloto bir tekis va kuchli emiriladi.

Burg‘ilash jarayonini xronometrajlash (biror narsaga sarf bo‘lgan vaqtini aniq o‘lhash) da kesimning 1m oralig‘ini o‘tishga (toza burg‘ilashga) sarflangan vaqt qayd qilinadi.

Tog‘ jinslarining qattiqligi turlicha bo‘lib, burg‘ilashga har xil qarshilik ko‘rsatadi, shu sababli 1 m jinsnini burg‘ilashga sarflanadigan vaqt ham turlicha bo‘ladi. Xronometrajning to‘liq bajarilishi uchun quduqni burg‘ilash jarayoni va boshqa zaruriy ishlarga sarflanadigan vaqt uzlusiz yozib boriladi. Natijada 1 m qazishga sarflangan vaqt o‘lchovlariga ko‘ra diagramma chiziladi, uni vertikal o‘qiga quduq chuqurligi masshtabida qo‘yiladi, gorizontal o‘qiga esa har bir metr o‘tishga sarflangan vaqt (soat) da qo‘yiladi. Natijada karotaj egri chizig‘iga o‘xshash grafik hosil bo‘ladi, egri chiziqning o‘tkir uchlari qattiq jinslarga, yassi joylari bo‘sh va yumshoq jinslarga to‘g‘ri keladi.

Shunday qilib, chizilgan diagramma *mexanik korotaj diagrammasi* deb ataladi, uning yordamida kesimdagagi qattiq va yumshoq jinslarni, ayniqsa karbonat jinslar ichidagi neftli intervallarni ajratish va shu bilan elektr karotaj diagrammasini izohlashni osonlashtirish mumkin bo‘ladi. Darzliklari, bo‘shliqlari va kovaklarida neft bo‘lgan karbonat jinslari zich tuzilgan turdoshlariga nisbatan oson burg‘ilanadi va ularni mexanik korotaj yordamida ajratish engil kechadi (ularni elektr korotajda umuman ajratib bo‘lmaydi).

Mexanik korotaj diagrammasining aniqligiga doloto o‘lchami va tipi, qotishmalarni o‘rnatish usuli, quduq chuqurligi, burg‘ilash uskunasi massasi, rotoring aylanish miqdori, burg‘ilash nasosi quvvati, burg‘ilash usuli (rotorli, turbinali va b.) ta’sir etadi. Shunga ko‘ra turli quduqlar bo‘yicha olingan mexanik

karotaj diagrammalarini faqat burg‘ilashning texnologik rejimi butkul bir xil bo‘lgandagina taqqoslash mumkin.

30-amaliy mashg’ulot.

Mavzu: Quduq kavernometriyasi va kavernogrammalarni izohlash.

Quduq kesimini o‘rganishda kavernogramma ma’lumotlaridan keng foydalilanadi. Uning yordamida chuqurlik bo‘ylab quduq diametri o‘zgarishini ifodalovchi egri chiziq chiziladi. Kavernogramma quduqda bajarilgan geofizik tekshiruvlar natijasini taqqoslab, quduq holatini baholash, qatlamning geologik tavsifini va diametrini aniqlash uchun tuziladi.

Kavernogramma chiziladi. Kavernogramma ma’lumotlaridan, shuningdek, quyidagi maqsadlarda foydalilanadi: a) quduq devori bilan mustahkamlash quvuri oralig‘idagi bo‘shliqni sementlashga sarf bo‘ladigan sement miqdorini hisoblashda; b) quduq ichidagi holatni baholashda; v) quduqning geologik kesimini aniqlashda; g) geofizika ma’lumotlarini taqqoslashda; d) quduqning texnik holatini nazorat qilishda; e) qatlamlarni sinashda paker qurilmalari va mustahkamlovchi quvurlar boshmog‘i o‘rnataladigan joylarni tanlashda; j) quduq kesimida kollektorlarni ajratishda (boshqa kon-geofizika metodlari diagrammasi bilan birgalikda), gil qobiq qalinligini aniqlashda va b. da. Kavernogramma quduq chuqurligi bo‘ylab 1:500 yoki 1:200, diametri bo‘ylab 1:10 yoki 1:5 masshtabda qayd qilinadi. Chizilgan egri chiziqlar tahlili quduq diametri qiymatining jinslarning litologik tarkibiga ko‘ra sezilarli darajada o‘zgarishini ko‘rsatadi. Gil va alevrolit qatlamlarida bajarilgan kavernogrammalarda quduqning haqiqiy diametri nominal (belgilangan o‘lcham)dan katta bo‘ladi. Diametrning kattalashish darajasi gil jinslar xususiyatiga va qatlamni harakatlanayotgan burg‘ilash eritmasi bilan qancha vaqt yuvib turilganligiga bog‘liq.

Kollektorlik xususiyatlari yaxshi bo‘lgan donador ohaktoshlar va dolomitlarda hamda qumtosh va alevrolitlarda gil eritmasi yordamida quduq burg‘ilanganda eritma zardobini qatlam-kollektorga singishi kuzatiladi, natijada quduq devoridagi bunday jinslarda gilli qobiq hosil bo‘ladi, bu jarayon kavernogramma diagrammasida qayd qilinadi va quduq diametrini belgilangan o‘lchamidan kichiklashganligi kuzatiladi. Gilli qobiq qalinligi gil eritmasi sifati va jinslarning kollektorlik xususiyatlariga bog‘liq holda o‘zgaradi. Kollektor-jinslarning g‘ovakligi yuqori darajada, gil eritmasi sifati esa past bo‘lsa, gilli qobiqning qalinligi katta bo‘ladi.


Zich tuzilgan ohaktosh va dolomitlarda, zich gilli qumtosh va alevrolitlarda gilli qobiq hosil bo'lmaydi, shu sababli kavernogrammalarda bunday jinslar tarqalgan uchastkalarda quduq diametri o'zgarishsiz qoladi. Quduq diametrining kattalashishi yuqori g'ovaklik, darzlik va kovaklikka ega bo'lgan karbonat kollektorlar tarqalgan joylarda qayd qilinadi. Odatda kavernogrammada bunday uchastkalar burg'ilash eritmasi jadal yutiladigan intervallarga mos keladi. Donador-darzli holatdagi zich tuzilgan karbonat kollektorlar tarqalgan uchastkalar kavernogrammasida quduq diametri belgilangan o'lchamdan o'zgarmaganligini kuzatish mumkin. Angidritlarda quduqning belgilangan diametri o'zgarmaydi. Toshtuz (galit, silvin) da quduq diametri sezilarli kattalashadi, gipsda — ozroq oshadi. Kavernogrammaning bunday xususiyati 1-rasmida ko'rsatilgan.

Demak, kavernogrammaning gorizontal masshtabi to'g'ri tanlansa, uning yordamida quduq kesimidagi terrigen jinslarni aniq ajratish mumkin bo'lar ekan, ba'zan standart zondlar bilan qayd qilingan KS va PS da karotaj diagrammalariga qaraganda ham aniqroq natija olinadi. Kavernogramma ma'lumotlarini talqin qilishda quydagilarga e'tibor berish zarur: qatlam-kollektorlarni ochgan quduqlar diametri kavernogrammalarda haqiqiysidan kichikroq bo'lishi, agar qatlamning qalinligi kam va u yuvilgan gillar ustida yotgan bo'lsa, biroz kattalashgan bo'lishi mumkin;

1) kavernogrammalarda zich tuzilgan gilli qumtoshlar va alevrolitlarni gil jinslardan ajratish mumkin, standart elektr karotaj diagrammalarida esa ular tavsifi deyarli bir xil bo'ladi.

2) Qumtosh va alevrolitlar orasida joylashgan yupqa gil qatlar kavernogrammalarda standart elektr karotaj diaframmlari dagiga nisbatan yaxshi farqlanadi.

Demak, diagramma ma'lumotlariga ko'ra quduq kesimidagi jinslarning litologik tarkibini aniqlash hamda suyuqlik o'tkazadigan va o'tkazmaydigan qatamlarni ajratish mumkin bo'ladi. Shuningdek, quduqlar kesimini o'zar o'tqoslash, quvur tashqi bo'shilig'i hajmini hamda uni sementlashga sarflanadigan sement miqdorini bilish, quduqda sodir bo'lgan falokatlarni bartaraf etish mumkin.



1 - rasm. Quduq kaverno-grammasi (M.A.Jdanov, 1981): 1 – qumtosh; 2 – gil; 3 – gilli qumtosh yoki alevrolit; 4 ohaktosh; (p=1,60 Om ·m; ds=273 mm).

31-amaliy mashg’ulot.

Mavzu: Quduqlarda otish va portlatish ishlarini olib borish.

Quduqlarda otish ishlari quyidagi vazifalarni yechish uchun ishlataladi:

- 1) neftli, gazli va suvli qatlamlarni ochish uchun mustahkamlovchi quvur va uning ortidagi sement toshini perforatsiya (teshish) qilish;
- 2) quduqlarda burg‘ilash quvurlarini (zarurat bo‘lganida) kesish va ularni yuqoriga chiqarish;
- 3) quduq devorlaridan tog‘ jinsi namunalarini olish;
- 4) kollektor qatlamlarni sinash maqsadida ularning ichidagi suyuqlik va gaz namunalarini olish.

Portlatish ishlari quduqlarda quyidagi vazifalarni yechish maqsadida qo‘llaniladi:

- 1) ekspluatatsion quduqlarda qatlamning mahsuldarligini oshirish, suv haydovchi quduqlarda qatlamning qabul qilish qobiliyatini oshirish;
- 2) qatlamlarni bir-biridan ajratish;
- 3) filtrlarni tozalash;
- 4) burg‘ilash quvurlarini, avariya bo‘lganida, bo‘shatish va ularni quduqdan chiqarib olish;
- 5) burg‘ilash davomida burg‘ilash eritmasining yutilishini oldini olish;
- 6) neft va gaz favvoralarini o‘chirish.

Quduqlarda bu ishlarni amalga oshirish maqsadida portlatish materiallari (PM) ishlataladi. Portlatish materiallari PM ga portlatish moddalari (PMo) va portlatish vositalari (PV) kiradi. Pmo-kimyoviy birikma yoki aralashma bo‘lib, chetdan bo‘ladigan ta’sir ostida o‘ta tez va o‘z-o‘zidan tarqaluvchi kimyoviy jarayonkim, bu tufayli issiqlik, hamda yuqori temperaturali gazlar ajraladi. Bular o‘z navbatida buzish va siljitish ishlarini olib boradi.

PMo lar o‘z ta’sirlari bo‘yicha: 1) brizantli (bo‘luvchi, chaquvchi); 2) qo‘zg‘otuvchi; 3) otuvchi (poroxlar) guruhlarga bo‘linadilar. PV-asosiy portlatish

moddalarida portlashni qo‘zg‘otish uchun ishlataladilar. Bularga olov o‘tkazuvchi (bikford) shnur, kapsul-detonator, elektr zapal, elektr portlatgich, portlatish patroni. detanatsiyalovchi shnur va hokazolar kiradi.


Quduqlarni perforatsiya qilish

Quduqlar qazib bo‘linganlaridan so‘ng ularga mustahkamlovchi quvurlar tushiriladi va quduq devori bilan ular oralig‘iga sement qorishmasi quyiladi. Qatlamlarni sinash va ularni ekspluatatsiya qilish maqsadida perforatsiya o‘tkaziladi.

Perforatorlar ikki turli bo‘ladilar: o‘qli va kumulyativ.

O‘qli perforatorlar o‘q otuvchi qurollar prinsipida ishlaydilar. Perforator korpusida birnecha gorizontal yoki egri chiziqli stvollar bo‘lib, ularning ichiga porox va po‘lat o‘q joylashtirilgan bo‘ladi. Elektr alanga oldiruvchi stvol ichidagi poroxlarni yondiradi. Porox yonishi natijasida katta bosim hosil bo‘ladi va bu bosim po‘lat o‘qning katta tezlikda perforatordan otilib chiqaradi. Uning tezligi mustahkamlovchi quvurlarni, ortidagi sement toshini o‘tib, qatlam ichidagi neft, gaz, suvlarga quduqqa chiqish yo‘lini ohib berish darajasida bo‘ladi.

O‘qli perforatorlar selektiv va birdaniga otadigan turlarga bo‘linadilar. Selektiv perforatorlar kichkina qalinlikdagi qatlamlarni ochish uchun ishlataladilar. Perforatorlar birnechta seksiyadan (qismdan) iborat bo‘lib, o‘qlar birdaniga emas, quduqlarning harxil chuqurliklarida, yuqorida berilgan ko‘rsatmaga binoan otadilar. Bularning turlari SSP-108, SSP-88 va boshqalar. Sonlar perforatorning tashqi diametrini ko‘rsatadi.



1-rasm. Perforatorlarning turlari.

Birdaniga otadigan perforatorlar PPZ-98, PPZ-80, PPZ-65 va hokazolar bir-birlaridan diametrlarining turlichaligi bilan farqlanadilar. Mustahkamlovchi quvurlarni uzilishidan saqlash maqsadida perforator o'qlari bir-birlariga harxil burchakda joylashganlar. Perforator o'qlarni bir paytda otadi. O'qli perforator turkumiga Koladyajniy tomonidan taklif etilgan torpeda-perforatorini TPK-22 ni ham kiritish mumkin. Bu perforatordan otilgan o'q qatlam ichiga kirgandan keyin, qo'shimcha portlatish moddalari borligigi tufayli, qatlam ichida portlaydi va kollektorlarda qo'shimcha darzliklar hosil qilib kollektorlik xususiyatlarini yaxshilaydi. O'qli perforatorlarning turlari va texnik xarakteristikalarini jadval 26.1 da keltirilgan. Perforator ARV-130 quduqlarda uchraydigan toshlarni parchalash uchun ishlataladi. Bularda katta gabaritli o'qlardan foydalaniladi. Odadta bu turdag'i perforatorlar tilla konlarini ochish uchun qazilayotgan quduqlarda ishlataladi.

Korpusli perforatorlar o'z navbatlarida bir marta ishlataladigan va ko'p marta ishlatalgan turlarga bo'linadilar.

Ko'p marta ishlataladigan korpusli perforatorlarning g'ilofi o'ta mustahkam xromnikelmolibden aralashmali po'latdan bo'lib, 10dan 50 martagacha ishlatish

imkonini beradi. Kumulyativ zaryadlar perforator o‘qiga perpendikulyar joylashtiriladi. Zaryad o‘qlari orasidagi masofa 50-80 mm. olingan, bu esa bitta zaryad portlashi ikkinchi zaryadni detonatsiya bilan portlatib yubormaydi. Mustahkamlovchi quvurlarda darzliklar hosil qilmaslik, ularni uzib olmaslik maqsadida, zaryad o‘qlari bir-birlaridan $90-120^\circ$ burchakka siljitalgan. Zaryad guruhlari detonatsiya shnuri vositasida bir paytda portlatiladi. Korpusli bir marta ishlatiladigan kumulyativ perforatorlarning g‘ilofi plastik materiallar alyuminiy birikmali, latun, mo‘rt materiallar-cho‘yan, plastmassa va hokazolardan yasaladi. Agarda g‘ilof plastik materiallardan yasalgan bo‘lsa, korpusli perforatorlar otib bo‘lganidan so‘ng yuqoriga ko‘tarilib olinadilar. Agarda mo‘rt materiallardan yasalgan bo‘lsalar, perforator korpusi butunlay parchalanib quduqda qolib ketadi. Zaryadlar perforator o‘qiga perpendikulyar va burchak ostida joylashishi mumkin. Burchak ostida joylashgan zaryadlar yupqa qalinlikdagi qatlamlarni ochish uchun ishlatiladi.

Bir marta ishlatiladigan korpusli perforatorning quvvati ko‘p marta ishlatiladigan peforatorning quvvatidan ancha kattadir. Ularning avzalliklari yana og‘ir burg‘i qorishmalarida perforatorlarni quduqlarda ushlanib qolish ehtimollari ko‘p bo‘ladi va shuning uchun bir marta ishlatiladigan perforatorlarni quduqda qoldirish ham mumkin.

Korpussiz perforatorlar qisman va to‘liq parchalanadigan, hamda ochiladigan turlarga bo‘linadilar. Korpussiz qisman parchalanadigan kumulyativ perforatorlarda harbir zaryad individual germetik qobiqqa o‘ralgan bo‘ladi. Zaryadlar lenta, karkaslarga birkiteladi. Bularning avzalligi bir paytda 30 m. gacha bo‘lgan quduq oralig‘ida otish mumkin. Bular turiga jadvalda ko‘rsatilgan PKS turkumidagi perforatorlar kiradi. To‘liq parchalanadigan perforatorlarda zaryadlar cho‘yan, plastmassa qobiqlarga o‘ralgan bo‘ladi. Bu turdagи perforatorlarga KPR-65, KPR-85 turidagi perforatorlar kiradi. Uchinchi tur perforatorlari 2.5 dyuym diametri nasos-kompress quvurlaridan tushirilib, so‘ngra ochiladilar va 5-6 dyuym diametrli quvurlarni perforatsiya qilishda qo‘llaniladilar. Bu turkum perforatorlarga PKR-65 perforatori kiradi.

Umuman olganda kumulyativ perforatorlar o‘qli perforatorlardan afzaldirlar. Qaysi perforatorni ishlatmang, mustahkamlovchi quvurlarda darzlik hosil qilmaslik kerak. Bunda sementlanganlik sifati yuqori bo‘lishi kerak. Sement toshi yo‘q yoki sifatsiz oraliqlarda quvurga perforatsiya juda katta zarar yetkazishi mumkin.

32-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Torpedolash.

Quduqlarda o'tkazilgan portlatish ishlarini torpedolash deb ataladi va quduqqa tushirilgan portlatish moddasini torpedo deb ataladi. Odatda torpedo portlatish moddasi va portlatish vositasi - elektr zapali, kapsul-detonator va yuqori brizantli (parchalovchi) portlatish moddasining shashkasidan iborat bo'ladi.

Torpedolash ishlovchi quduqlarni debitini oshirish, avariyalarni tugatish, filtrlarni tozalash, quduq tubidagi metal qoldiqlarini parchalash, favvoralarni o'chirish kabi maqsadlarda qo'llaniladi. Torpedolash maqsadida quduqlarda fugasli va kumulyativ torpedolar ishlatiladi.

Fugasli torpedolar TSH va TSHT (jadvalda) larning g'iloflari yupqa qalinlikdagi alyuminiydan ishlangan bo'lib, ichiga birnecha silindrik shashka ko'rinishida bo'lgan portlatish moddalari joylashtirilgan. Bu portlatish moddasi germetik qobiqda joylashgan portlatish-patroni orqali portlatiladi. Agarda yuqorida keltirilgan torpedolarda portlatish moddasi quvur ichidagi suyuqlik bilan bevosita kontaktda bo'lsa, F-2, FT-60 torpedolarida portlatish moddalari ham portlatish vositalari kabi garmetik korpusning ichida bo'ladilar.

Quduqlarda tog' jinslarining o'pirilishi natijasida burg'ilash quvurlari ushlanib (prixvat) qoladi. Shuningdek burg'ilash dolotolari quduqlarda qoldirib ketilgan metall predmetlar tufayli qisilib (zaklinivaniye) qolishi mumkin. Bu hollarda burg'ilash quvurlari va burg'ilash dolotolarini bo'shatish kerak bo'ladi. Ushlanib qolningan joylar aniqlanib, shu yerda kichkina zaryadlarni portlatib, burg'i quvurlari bo'shatiladi. Lekin bu usulda bo'shatishni iloji bo'lmasa, quvurlar ushlangan yeridan yuqori qismini qirqib olinadi. Quvurlarni qirqish ham torpedolar yordamida amalga oshiriladi. Quduq tubida qoldirilgan metall predmetlarni kumulyativ perforatorlar TKO bilan tugatiladi.

Mustahkamlovchi quvurlar tushirlgan, quduqlarda mahsuldor qatlamlarni ochish uchun TSH, F-2 torpedolari qo'llanishi mumkin. Bu torpedolarda zaryad og'irligi 5-7 kg dan oshmasligi kerak. Torpeda kamida 10 m.balandlikdagi suv bilan ko'milgan bo'lishi shart. Bu torpedolar portlaganda mustahkamlovchi quvurlarda fonus (fonar) ko'rinishda shishish (razdutiye) hosil bo'ladi. Bu esa quvurlarda vertikal siniqliklar keltirib chiqaradi. Shunday qilib qatlam ichidagi flyuidga quduq tomon yo'l ochiladi. Quvurlarning butunligi saqlanadi. Bu ishlarni yaxshi natija berishi uchun quduq ortida mustahkam, katta zichlikka ega tog' jinslari yotishi kerak. Katta zaryadga ega torpedolar bilan qatlamga ta'sir etib, uning kollektor xususiyatini yaxshilash mumkin. Buning uchun ishlatiladigan torpedoning tashqi diametri mustahkamlovchi quvurning ichki diametridan

kamida 20 mm ochiq quduqlarda esa quduq diametridan kamida 50 mm kichkina bo‘lishi kerak. Ishlar quyidagi tartibda o‘tkaziladi. 1. Quduqqa torpedo tshiriladigan chuqurlikka most o‘rnataladi. 2. Torpedoni 4-6 sutkadan keyin portlashga mo‘ljallatib (portlatgich soat mexanizmi bilan ishlaydi) taylorlanadi. 3. Torpedoni maxsus simda quduqqa tushiriladi, so‘ngra simdan torpedoni uzgich orqali uziladi va sim yuqoriga tortib olinadi. 4. Keyin yuqorigi most o‘rnataladi. Keyin sodir bo‘lgan portlashni seysmopriyemnik orqali aniqlaniladi.

Neft va gaz favvoralarini o‘chirish uchun zaryadlarni yong‘inga yaqin joyda portlatish kerak. Zaryadlar og‘irligini neft va gaz debitiga qarab tanlanadi. Agarda gaz debiti 500 ming m³/s sutka dan kam bo‘lsa zaryad og‘irligini 50-100 kg gacha olish mumkin. Agarda katta favvora bo‘lsa zaryad og‘irligi 100-300 kg gacha bo‘lishi mumkin. Zaryadlar yog‘och yashiklarga joylashtiriladi va uning issiqqa chidamlı material bilan o‘raladi. Zaryad atrofi o‘ralgandan so‘ng, ochiq joylari loy bilan chaplanadi. Zaryad portlaganda yonib turgan alangani ikki qismga bo‘ladi va shuning uchun qisqa vaqtga o‘t o‘chirilgan bo‘ladi. Qaytadan alanga olmaslik uchun tevarak-atrofga suv sepiladi.

Filtrlarni tozalash uchun TDSH torpedasi olinadi. Shnurlar soni uchtadan oshmasligi kerak. Qatlamlarda siniqliklar hosil qilish uchun qatlamga gazzuyuqlik aralashmasi katta bosimda haydaladi. Buning uchun poroxli bosim generatorlari PGD ishlatiladi. Hosil bo‘lgan, keyin bir-birlari birikib ketmaydigan, darzliklar kattaligi va miqdori tog‘ jinslarining fizik-mexanik xususiyatlari, haydalayotgan aralashmaning hajmiga bog‘liq bo‘ladi.

Burg‘ilash ishlari tugatilganidan keyin quduq qatlamdagi suyuqlik oqimini chiqarishga va sinashga tayyorланади. Buning uchun ekspluatatsion quvurlar birikmasining yuqori qismiga fontan armaturasi o‘rnataladi. Keyin quduq yaqiniga bu armatura bilan birga suyuqliklarni yig‘ish uchun sig‘im (idish)lar, suyuqlik va gazsimon fazalarning debitlarini o‘lchash uchun separatorlar, fakel yasamasi, o‘lchagichlar, apparaturalar o‘rnataladi.

Quduqni yuvish va qatlam suyuqligini chaqirish uchun quduq og‘ziga vaqtincha nasos-kompressor agregatlari joylashtiriladi. Fontan armaturasini – quvurli kallak va fontan yolkasi kabi qismlarga ajratish mumkin. Quvurli kallak NKQni osishga, fontan yolkasi esa quduqdan chiqayotgan suyuqlikni yer osti sig‘imiga yo‘naltirishga va quduq og‘zini germetiklashga xizmat qiladi. Quvur kallagi va fontan yolkasi oraligida yuqori bosimli markaziy surilma (zadvijka) joylashgan. Quvurli kallak va fontan yolkasi yon tarmoqlar bilan ta’minlangan. Ularning har qaysisi ikkita yuqori bosimli surilma (zadvijka)lar, manometrlar bilan yolka tarmoqlari ham termometr va shtutserli hujra (kamera)lar bilan jihozlangan.

Quduqlarni sinashning asosiy maqsadi – o‘rganilayotgan obyektning kollektorlik xossalari mahsuldorligini, ulardagi neft va gaz zahiralarini, ularning ekspluatatsiya qilish usullarini tanlashni, optimal rejimini baholash uchun aniq va to‘liq ma’lumot yig‘ishdan iborat. Odatda, quduqlar o‘zlashtirilgandan keyin darhol sinashga o‘tiladi. Razvedka qilinadigan har qaysi mahsuldor qatlam alohida-alohida sinaladi. Sinash pastki qatlamdan boshlab ketma-ket o‘tkaziladi. Keyingi obyektni sinashdan oldin yuqorida joylashgan obyektni sinalgan obyektdan germetik cement ko‘prigi yordamida chegaralanadi. Neft va gaz konlarining geologik kesimida g‘ovakli qumlar, qumtoshlar, ohaktoshlar, gillar, mergellar uchraydi. Bu tog‘ jinslar neftli, gazli va suvli bo‘lishi mumkin.

Mahsuldor qatlamlarni ochish bir necha usullarda amalga oshiriladi.

1. Burg‘ilash qudug‘i mahsuldor qatlamning shipigacha kovlanib, oraliq quvurlar yordamida sementlanadi. Keyin mahsuldor qatlamlar ochilib, burg‘ilash qudug‘iga sizgich tushiriladi. Bu holda oraliq quvurlar birikmasi ishlatish quvuri vazifasini bajaradi.
2. Burg‘ilash qudug‘i mahsuldor qatlamning butun qalinligi bo‘yicha kovlanadi va sizgichli foydalanish quvurlari birikmasi tushiriladi. Keyin manjet usuli yordamida neft qatlami shipining ustki qismi sementlanadi. Bunday usullar past bosimli qatlamlarda foydalinadi.
3. Burg‘ilash qudug‘i mahsuldor qatlamning butun qalinligi bo‘yicha kovlanadi. Bundan so‘ng foydalanish (ishlatish) quvurlar birikmasi tushirilib, quduq tubidan boshlab sementlanadi.

Keyin mustahkamlovchi quvurlar birikmasining mahsuldor qatlamlari qarshisidan neft va gazlarni quduqga tushishi uchun teshik ochiladi. Bunday usullar yuqori bosimli qatlamlarda foydalaniladi.

Birlamchi mahsuldor qatlamlar ochilgandan keyin burg‘ilash quduqlari mustahkamlovchi quvurlar birikmasi yordamida musthakamlanadi va ayrim bo‘shliqlar sementlanadi. Keyin quduqdagi mahsuldor qatlamlardan neft, gaz va boshqa suyuqliklarni olish uchun mustahkamlovchi quvurlar birikmasi, tamponaj toshi va kolmatatsion qatlamlaridan ko‘plab teshiklar ochiladi. Bunday teshiklarni ochish jarayoni «mahsuldor qatlamlarning ikkilamchi ochilishi» deb ataladi. Bunday teshiklarni perforatsiya teshiklari deb aytildi.

Mahsuldor qatlamlardan suyuqlik oqimini chaqirish, stvol oldi zonalarini iflosliklardan tozalash va quduqdan yuqori mahsulot olish uchun sharoit yaratish kabi kompleks ishlar quduqni sinash bilan bog‘liq. Mahsuldor gorizontlardan suyuqlik oqimini chaqirish uchun quduqdagi bosimni qatlam bosimiga nisbatan ancha pasaytirish lozim. Bosimni pasaytirishning bir necha usullari mavjud:

- a) Og‘ir yuvish suyuqliklarini ancha yengiliga almashtirish;

b) ekspluatatsion quvurlar birikmasidagi suyuqlik sathini bir tekis yoki keskin pasaytirish.

Murakkab kam mustahkam tog‘ jinslaridan tuzilgan qatlamlardan suyuqlik oqimini chaqirish uchun bosimini bir tekis pasaytirish usuli, mahsuldor qatlamlar juda mustahkam tog‘ jinslaridan tuzilganda esa bosimni keskin pasaytirish usuli qo‘llanadi. Suyuqlik oqimini chaqirish usullarini tanlashda kollektor tog‘ jinslarining mustahkamligi, strukturasi, ularni to‘ldiruvchi suyuqliklarning tarkibi va xossasi, mahsuldor qatlamlarni ochishda sodir bo‘ladigan iflosliklarning darajasi, suvli qatlamlarning mavjudligi, mustahkamlovchi quvurlar birikmasining chidamliligi hisobga olinadi.

a) Og‘ir suyuqliklarni yengiliga almashtirish.

Agar mahsuldor qatlamlar mustahkam tog‘ jinslaridan tuzilgan bo‘lsa, NKQ quvurlar birikmasi quduq quduq tubiigacha, tog‘ jinslari uncha mustahkam bo‘lmasa, perforatsiyalash teshigining Yuqorisigacha tushiriladi.

Suyuqliklarni almashtirish teskari aylanish usulida amalga oshiriladi. Bunda zichligi ekspluatatsion quvurlar birikmasidagi yuvish suyuqligi zichligidan kam suyuqlik ko‘chma porshenli nasos Yordamida quvurlararo bo‘shlig‘iga haydaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. А. И. Ипатов, М. И. Кременецкий Геофизические методы контроля разработки месторождений нефти и газа: учебник. - М.: Издательский центр РГУ нефти и газа им. И.М. Губкина, 2012 - 374с.
2. С.П. Скопинцев Аппаратура ГИС - контроль: учебное пособие. - Издательский центр РГУ нефти и газа им. И.М. Губкина, 2014. - 208 с
3. М.Г.Латышова, В.Г.Мартынов, И.Ф.Соколова. Практичес-кое руководство по интерпретации данных ГИС: учебное пособие. - М.: Недра, 2007 - 328с.
4. Г.М.Золоева, С.Б.Денисов, С.И.Билибин. Геолого- геофи-зическое моделирование залежей нефти и газа: учебное пособие. - 2-е изд., доп. и перераб. - М.: Макс-Пресс, 2008 - 210 с.
5. Г.М.Золоева, Н.Е.Лазуткина. Интерпретация данных ГИС: учебное пособие. - М.: РГУ нефти и газа им.И.М.Губкина, 2002. - 100 с.
6. Методические указания для студентов специальности «прикладная геология», специализации «геология нефти и газа». - М.: Издательский центр РГУ нефти и газа имени И.М. Губкина, 2011 - 36 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

7. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning nutqi. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017 y., 16 yanvar, №11.
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Т.: O‘zbekiston, 2017. - 46 b.

Internet saytlari

9. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portalı.
- 10.www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
11. www.wikipedia.ru
- 12.EBS RGU nefti i gaza imeni I. M. Gubkina 13.<http://elib.gubkin.ru>
- 14.IPRbooks <http://iprbookshop.ru>
15. www.Ziyo.net.

MUNDARIJA

1 – amaliy mashg‘ulot	Kirish. Fanning asosiy maqsadi va vazifalari. Quduqlarda geofizik tadqiqot o’tkazish usullari.	3
2 – amaliy mashg‘ulot	Quduqlarda o’tkaziladigan geofizik tadqiqotlarda ishlataladigan qurilma va jixozlar	5
3 – amaliy mashg‘ulot	Geofizik metodlarning turlari	9
4 – amaliy mashg‘ulot	Elektrik korataj	12
5 – amaliy mashg‘ulot	Solishtirma qarshilikni o’lchash prinsiplari	14
6 – amaliy mashg‘ulot	Tog’ jinslarini haqiqiy qarshiliginini aniqlash	16
7 – amaliy mashg‘ulot	Ehtimoliy qarshilikni mikrozondlar bilan o’lchash	17
8 – amaliy mashg‘ulot	Ehtimoliy qarshilikni ekranlashririlgan zondlarda o’lchash	20
9 – amaliy mashg‘ulot	Radioaktiv va yadro-fizik usullar	22
10 – amaliy mashg‘ulot	Gamma usuli (GK). Fizik mohiyati va yechadigan vazifalari. Qo’llaniladigan asbob-uskunalar	25
11 – amaliy mashg‘ulot	Quduqlarni o’rganishni neytron usullari	27
12 – amaliy mashg‘ulot	Quduqni texnik holatini o’rganishda akustik usul	29
13 – amaliy mashg‘ulot	Burg’ilash quduqlarini o’rganishni geoximik usullari	34
14 – amaliy mashg‘ulot	Mustahkamlangan quduqlarda solishtirma elektr qarshiligni o’lchash	39
15 – amaliy mashg‘ulot	Quduqlarni texnik holatini o’rganishda termik usullari	41
16 – amaliy mashg‘ulot	Quduq va qatlam bosimini aniqlashda barometrik usuldan foydalanish	42

17 – amaliy mashg‘ulot	Neft va gaz konlarini ishlatishni nazorat qilishda termometriya usuli	43
18 – amaliy mashg‘ulot	Neft va gaz konlarini ishlatishni nazorat qilishda gamma-gamma zichlik o'lchash usuli	45
19 – amaliy mashg‘ulot	Vertikal seysmik profillash usuli yordamida quduqlar oralig‘ini o‘rganish texnologiyalari	47
20 – amaliy mashg‘ulot	Gradiyent va potensial zondlar, ularning turlari	50
21 – amaliy mashg‘ulot	Ekranlashtirilgan mikrozondlar	53
22 – amaliy mashg‘ulot	Burg‘i qudug‘i kesimini o‘rganish bo‘yicha olingan geofizik ma’lumotlarni geologik izohlash	55
23 – amaliy mashg‘ulot	Elektr va radio karotaj ishlarini izohlash	58
24 – amaliy mashg‘ulot	Quduqlarni texnik holatini o‘rganishda qum-gilli jinslarni ajratish	60
25 – amaliy mashg‘ulot	Quduqlarni texnik holatini o‘rganishda karbonat jinslarni ajratish	63
26 – amaliy mashg‘ulot	Quduqlarni texnik holatini o‘rganishda bo‘r jinslarni ajratish	66
27 – amaliy mashg‘ulot	Neft-gazli va gazli svitalarni ajratish	68
28 – amaliy mashg‘ulot	Gaz korataji va uni izohlash	71
29 – amaliy mashg‘ulot	Mexanik korataj va uni izohlash	72
30 – amaliy mashg‘ulot	Quduq kavernometriyasi va kavernogrammallarni izohlash	73
31 – amaliy mashg‘ulot	Quduqlarda otish va portlatish ishlarini olib borish	75
32 – amaliy mashg‘ulot	Torpedalash	79
	Foydalilanigan adabiyotlar.....	83

